Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бутун ер юзи аҳолиси олдида турган энг катта муаммолардан бири ҳисобланади. Фан ва техниканинг ривожланиши жамиятга мисли кўрилмаган ютуқлар келтириши билан бир қаторда жамият билан табиат ўртасидаги муносабатларнинг кескинлашишига, экологик ҳолатнинг ёмонлашишига, табиий ресурсларнинг исроф бўлишига, сув, ҳаво, тупроқнинг ифлосланишига, заҳарланишига, ўсимлик ва ҳайвонларнинг камайиб кетишига ва бошқа салбий оқибатларга олиб келди [5].

Ҳозирда атроф-муҳитни сақлаш, соғломлаштириш энг долзарб муаммолардан биридир. Дунёнинг барча минтақаларида йирик саноат марказлари, транспорт воситаларининг атроф-муҳитни ифлослантираётгани, катта-катта ўрмонларнинг кесилиб тугатилаётгани, денгиз ва океанлар заҳарланаётгани, ҳайвонот ва ўсимликлар оламидаги турларнинг тобора камайиб бораётгани сир эмас. Сайёрамизда ҳар йили ташқи муҳитга 70 млн $м^3$ заҳарли газ, 50 млн тонна метан, 13 млн тоннага яқин азот қуюндиси чиқарилмоқда; океанларга 10 млн тонна нефт ва нефт маҳсулотлари, сув ҳавзаларига 32 $км^3$ ифлос саноат сувлари қуйилмоқда; 11 млн гектар ўрмон кесилмоқда ва ёниб кетмоқда [3].

Атроф-муҳитнинг ифлосланиши бутун инсоният учун катта муаммолигини чуқур англаб етган мамлакатимизнинг биринчи президенти И.А. Каримов ўзининг "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида" деб номланган китобида шундай деб ёзади: "Экологик хавфсизлик муаммоси аллақачонлар миллий ва минтақавий доирадан чиқиб, бутун инсониятнинг муаммосига айланган. Табиат ва инсон ўзаро муайян қонуниятлар асосида муносабатда бўлади. Бу қонуниятларнинг бузилиши ўнглаб бўлмас экологик фалокатларга олиб келади" [1]. Дарҳақиқат, бугунги кунда юртбошимизнинг ўша пайтларда айтган сўзлари қанчалик тўғри эканлиги барчамизга маълум.

Асосий қисм. Ташқи ҳаводаги чангларнинг миқдори саноат корхоналаридаги технологик жараёнларнинг характерига, шаҳарларнинг ободонлаштирилганлик даражасига, транспорт ҳаракатининг интенсивлигига, йўл қопламаларининг ҳолатига ва шу каби кенг чегарадаги омилларга боғлиқ.

Бинолардан чиқариб юборилаётган чангланган ҳаво қимматбаҳо ишлаб чиқариш маҳсулоти (цемент, ун, шакар чанглари ва шу кабилар) бўлган чанг бўлиши мумкин, унинг тутилиши ташқи ҳаво тозалигини муҳофаза қилиш талабларини бажариш билан бир қаторда иқтисодий аҳамиятга ҳам эга.

Ишлаб чиқариш хоналарининг ишчи зонаси ҳавосида чангнинг рухсат этилган чегаравий концентрацияси, вентиляция ташламаларининг тозаланиш даражаси санитария меъёрлари билан тартибга солинади. Ҳавони тозалаш даражаси чангнинг бошланғич ва охирги таркибига, унинг дисперслигига, физик-кимёвий хоссаларига ва ишлаб чиқаришга қайтиш имкониятига қараб уч босқичга бўлинади: дағал (грубой), ўртача (средний) ва майда (тонкий).

Дағал тозалашда фақатгина катта (ўлчамлари 100 мкм) ўлчамли чанглар ушлаб қолинади.

Ўртача тозалашда нафақат катта заррачалар (100 мкм дан ортиқ), балки майда чанг заррачаларининг ҳам сезиларли қисми ушлаб қолинади. Ўртача тозалашда 30-50 мг/$м^3$ чанг концентрациясининг қолдиғи қолади.

Майда тозалашда фракцияси 10 мкм дан кичик майда чангларнинг ушлаб қолиниши 60-100% ни ташкил этади. Майда тозалашда 1-3 мг/$м^3$ чанг концентрациясининг қолдиғи ва ҳаттоки ундан ҳам камроқ қолади.

Чангсизлантириш қурилмаларини номланиши бўйича чангтутгичлар ва ҳаво фильтрларига ажратиш мумкин. *Чангтутгичлар* атмосферага ташланадиган ҳавони тозалаш учун мўлжалланган. *Ҳаво фильтрлари* кириш (приточный) вентиляция тизимларида ва ҳавони кондициялаш тизимларида хонага берилаётган ва қайта фойдаланиладиган ҳавони чанглардан тозалаш учун мўлжалланган.

Чангсизлантириш қурилмалари ишлаш принципи бўйича тўртта гуруҳга бўлинади: гравитацион чангтутгичлар, инерцион чангтутгичлар (қуруқ ва ҳўл), чангтутгич ва фильтрнинг ҳамда

электрик чангтутгичлар ва фильтрларнинг биргаликда ишлаши.

Гравитацион чангтутгичлар ҳаводаги чангсимон заррачаларнинг гравитация кучи яъни оғирлик кучи таъсирида чўкиши асосида ишлайди. Чангни чўктириш камералари қурилмаси шу тамойилга асосланади.

Инерцион чангтутгичлар (қуруқ ва ҳўл) чангланган ҳаво оқими ҳаракати йўналишининг ўзгариши натижасида пайдо бўлувчи инерцион куч асосида ишлайди. Бундай қурилмаларга турли конструкцияли циклонлар: марказдан қочма скрубберлар, циклонли ювувчилар, ротоклон типидаги чангтутгичлар ва Вентури чангтутгичлари киради.

Чангтутгичлар ва фильтрлар биргаликда ишлатилганда қуруқ ёки ҳўлланган ғовак материаллар: мато, синтетик тола, қоғоз, симли сетка, донадор материаллар, керамик ва металл халқалар орқали чангланган ҳаво ўтказилганда чанг заррачалари тутиб қолинади.

Электрик чанг тутгичлар ва фильтрлар ҳаводаги чанг заррачалари (чанг, туман, тутун) ни ионлаш йўли билан электр майдон орқали ўтганда тутиб қолади.

Чангтутгичлар ва фильтрлар қуйидаги кўрсаткичлари билан характерланади: тозалаш даражаси, ўтказиш қобилияти ёки солиштирма ҳаво юкламаси, чанг сиғими, аэродинамик қаршилиги, энергия сарфи ва тозалаш қиймати.

Чангтутгичлар ва фильтрларнинг тозалаш даражаси ҳаво ёки газ таркибидаги чангнинг чангтутгич ёки фильтргача ва чангтутгич ёки фильтрдан ўтган чанг массалари фарқининг чангтутгич ёки фильтргача бўлган чанг массасига нисбати орқали топилади:

$$\eta = \frac{G_н - G_к}{G_н},$$

бу ерда: $G_н$ ва $G_к$ мос равишда, ҳаво ёки газ таркибидаги чангнинг чангтутгич ёки фильтргача ва чангтутгич ёки фильтрдан ўтган чанг массалари, кг/ч.

Тозалаш даражаси фоизларда қуйидагича ифодаланади:

$$\eta = \frac{G_н - G_к}{G_н} 100.$$

Тозалаш даражаси фоизларда бошланғич ва охирги концентрациялар фарқининг бошланғич концентрацияга нисбати орқали топилади:

$$\eta = \frac{C_н - C_к}{C_н} 100.$$

Иккита чангтутгичнинг қайси бири самарали ишлашини аниқлашда, уларнинг чангни ушламаган қисми солиштирилади (100-η). Масалан, биринчи чанг тутгичнинг тозалаш даражаси η_1= 82%, иккинчисиники эса η_2= 94% бўлса, иккинчи чанг тутгич биринчисига қараганда 3 марта самарали ишлайди:

$$\frac{100-\eta_1}{100-\eta_2} = \frac{100-82}{100-94} = \frac{18}{6} = 3.$$

Кетма-кет ўрнатилган бир нечта фильтрларнинг умумий тозалаш даражаси қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$\eta = 1-(1-\eta_1)(1-\eta_2)\dots(1-\eta_n)$$

бу ерда: $\eta_1, \eta_2, \dots, \eta_n$ лар мос равишда, биринчи, иккинчи ва n-фильтрларнинг тозалаш даражаси.

Солиштирма ҳаво юкламаси – чангтутгич ёки фильтр орқали ўтувчи ҳаво ёки газлар ҳажмий сарфининг ($м^3$/ч) фильтрловчи майдон юзасига ($м^2$) нисбати орқали характерланади.

Чангтутгич ёки фильтрларнинг чанг сиғими – улар тўхтовсиз ишлаган вақтда фильтр қатламини тиклашнинг кетма-кет иккита операцияси ўртасида ёки чангтутгич ёки фильтрнинг маълум қаршилик қийматига етгунича тутган чанг миқдори (г ёки кг). Шу сабабли чанг сиғими чанг заррачаларининг ўлчамларига ва уларнинг дисперслигига боғлиқ.

Чангтутгич ёки фильтрларнинг аэродинамик қаршилиги – уларга кириш ва чиқишдаги ўлчанган босимларнинг фарқини билдиради (Па ёки кгс/$м^2$).

Энергия сарфи – 1000 $м^3$ ҳаво ёки газни тозалаш учун сарфланган электроэнергия сарфи билан характерланади (кВт·ч).

Ҳаво ёки газларни тозалаш қиймати – капитал ва эксплуатация харажатларининг йиғиндисидир.

Хулоса

-Саноат корхоналаридан чиқаётган чанглар ва аэрозол заррачаларини камайтириш учун аввало чанг тутиш ускунасини тўғри танлаш лозим.

-Чанг тутиш ускунаси самарали ишлаши учун унинг фильтрларини белгиланган муддатларда **тозалаб** туриш ва яроқсиз ҳолга келганда уларни алмаштирилиш лозим.

-Агарда амалдаги чанг тутиш ускунасининг самарадорлиги меъёр даражасидан паст бўлса, иккинчи босқичли чанг тутиш ускунасини қўллаш мумкин.

Адабиётлар:

1. Каримов, И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Тошкент - 1997.

2. Халманов А.Т., Исмоилов Ҳ. И. “Қурилиш материаллари ишлаб чиқарадиган корхоналарнинг атроф-муҳитга таъсирини тадқиқ қилиш”.

3. Қудратов О. “Саноат экологияси”. Тошкент – 2003.

4. Ишлаб чиқариш корхоналари ҳавоси таркибидаги чанг миқдорини аниқлаш бўйича услубий кўрсатма. Тошкент – 2007.

5. Набижонов Н.Ф. “Цемент чангларини ҳўл усулда ушловчи аппарат ишини ўрганиш”. Фарғона – 2013.

6. Богословский В.Н. “Отопление и вентиляция” часть II, Москва стройиздат – 1976.

ОҚОВА СУВЛАРНИ ТОЗАЛАШДА СУВ ЎТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

Такабоев Қўчқор Ўролович, Жиззах политехника институти

Оқова сувларни тозалашда асосан турли биологик сув тозалаш иншоатларидан, жумладан аэротенкалар, аэрофильтрла, биофильтрлар, майдонларда филътрлаш каби мураккаб мухандислик иншоатларидан фойдаланилади. Бу усулни такомиллаштириш учун ўтказилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатмоқдаки, турли оқова сувларни 12-15 суткада тўлиқ биологик тозалаши мумкин.Бунинг учун эса турли хил сув ўсимликларидан фойдаланилади. Бу усул арзон, самарали эканлиги ўз тасдиғини топмоқда.

Калит сўзлар: оқва сувлар, сув ўтлари, геологик тозалаш, аэротехника, аэрофильтр, пистия, эйхорния, азолла.

Очистка сточных вод в основном осуществляется с использованием различных сооружений биологической очистки воды, в том числе сложных инженерных сооружений, таких как аэротенки, аэрофильтры, биофильтры. Результаты исследований, проведенных с целью усовершенствования этого метода, показывают, что различные сточные воды могут быть полностью биологически очищены за 12-15 дней с использованием различных водных растений. Этот метод оказался дешевым и эффективным.

Ключевые слова: сточные воды, водоросли, геологическая очистка, аэротехника, аэрофильтр, фисташка, эйхорния, азолла.

Wastewater treatment is mainly carried out using various biological water treatment facilities, including complex engineering structures such as aeration tanks, air filters, biofilters, field filters. Research conducted to improve this method shows that various wastewaters can be completely biologically treated in 12-15 days using a variety of aquatic plants. This method has proven to be cheap and effective.

Keywords: sewage, algae, geological treatment, aerotechnics, aerofilter, pistachio, eichorniya, azolla.

Оқова сувларни биологик тозалашнинг экологик хавфсиз ва иқтисодий арзон ҳамда самарали усулларини яратиш сув ресурсларини муҳофаза қилишнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади. Оқова сувларни тозалашнинг турли усуллари мавжуд. Ҳозирги даврда оқова сувларни тозалашнинг биологик усули, яъни, юксак сув ва сув-ботқоқ ўсимликлари ёрдамида тозалаш тавсия қилинади..

Кўп йиллик илмий тадқиқотлар натижасида қишлоқ хўжалиги корхоналари (қорамолларни бўрдоқига боқиш комплекслари, паррандачилик) ва саноат корхоналари (канопни қайта ишлаш, минерал ўғитлар ишлаб чиқариш, биокимё, ёғ-мой корхоналари, пиллачилик корхоналари, тўқимачилик саноати) ва коммунал-хўжалик оқова сувларини органо-минерал моддалардан, оғир металлардан, цианидлардан, нефть маҳсулотларидан ҳамда патоген микроорганизмлардан юксак сув ўсимликлари — пистия, эйхорния ва азолла ёрдамида биологик тозалашнинг янги самарали биотехнологияси яратилди.

Пистия (Pistia stratiotes L., Araceae), эйхорния (Eichhornia crassipes Solms., Pontederiaceae) ва азолла (Azolla caroliniana Willd., сем. Azollaceae) сув бетида қалқиб ўсувчи, кўп йиллик ўсимликлар бўлиб, тропик ва субтропик минтақаларда кенг тарқалган. Ҳозирги пайтда мазкур ўсимликлар Ўзбекистон шароитига муваффақиятли интродукция қилинган.

Олиб борилган гидрокимёвий ва микробиологик тадқиқотларимиз натижаларига кўра, турли оқова сувларни 12-15 суткада тўлиқ биологик тозалаши мумкин. Бу вақт ичида сапрофит микроорганизмлар сони минг мартагача, ичак таёқчалари гуруҳи бактериялари эса уч-тўрт кундан кейин умуман учрамайди. Сув таркибидаги микрофлоранинг миқдори кескин камайиб, ўсимлик ва ҳайвонлар учун патоген ҳисобланган микроскопик замбуруғлар йўқолиб кетади. Сувнинг физикавий ва кимёвий кўрсаткичлари яхшиланади, яъни сувнинг оксидланиши даражаси камаяди, сувдаги азот ва фосфор ионлари ўсимликлар томонидан деярли тўла ўзлаштирилади, сувда эриган кислород миқдори кўпаяди, оқова сув тиниқлашади ва қўланса ҳиди йўқолади.

Пистия, эйхорния ва азолла ёрдамида тозалаган сувни техник мақсадларда, яъни молхоналарни ювишда, қишлоқ хўжалик экинларини суғоришда, каноп поясини ивитишда ёки балиқчилик ҳовузларига ва очиқ сув ҳавзаларига чиқариб юбориш мумкин.

Пистия сув юзасида қалқиб ўсувчи, қисқарган пояли, барглари ясси эшкаксимон ўсимликдир. Интродукция шароитида бўйи 20-40 см гача етади. Илдиз бўғзидан чиққан барглари қалин боғлам ҳосил қилиб, юқори қисми яшил, бўйламада чизиқсимон чуқур излар мавжуд. Баргларининг бутун сатҳи қалин, кўп ҳужайрали, шаффоф тукчалар билан қопланган. Ўсимлик баргларида аэренхима тўқималари яхши ривожланганлиги сабабли, сув юзасида қалқиб ўсади. Пистиянинг илдиз тизими попуксимон, узунлиги 50-60 см бўлиб, кўп тукчалар билан қопланган

Эйхорния сув юзасида қалқиб ўсувчи ўсимлик бўлиб, бўйи 30-40 см. Қошиқсимон; силлиқ, яшил, ялтироқ тусдаги барг япроқлари овалси-

мон шаклда; четлари текис, симметрик бўйламасига параллел жойлашган ва томирлари аниқ кўриниб туради. Барг бандлари асосида, ҳаво билан тўлган шарсимон этдор қисми аэренхима — ўсимликни сув юзасида қалқиб туришини таъминлайди. Попуксимон илдиз тизими тукчалари яхши шохланган. Қисқарган поясининг асосидан 15-20 тагача барг ғилофи билан қўшилиб, ўсувчи биринчи тартиб ён илдизлар ривожланган. Узунлиги 2,5 см гача бўлган иккинчи тартиб ён илдизлари сувда горизонтал жойлашади

Азолла сув юзасида қалқиб ўсиб, узунлиги 0,7-1,8 см гача етади. Спорафитининг юқори қисмида 2 қатор майда баргча, устма-уст жойлашган тангачалар каби шохчани қоплаб олади, танасининг пастки қисмида эса 2,0-2,5 см узунликда илдизча шаклланган. Барг тузилишига кўра, у юқори даражада ривожланган, яъни ҳар бир барг икки сегментдан иборат: юқори сегменти яшил рангли, сув сатҳининг юза қисмида жойлашади; пастки сегменти эса сувнинг остки қисмида жойлашиб, сувда эриган моддаларни ўзига тортиб олиш учун хизмат қилади.

Азолла ялпи кўпайишининг оптимал даври июль-сентябр ойлари бўлиб, бу даврда суткасига 250-300 г/м2 биомасса ҳосил қилади.

Оқова сувларда ўстирилган азолла 1 гектар сув юзасидан бир кеча-кундузда 1500-2000 кг гача ҳўл биомасса; пистия ва эйхорния эса 1800-2700 кг гача ҳўл ёки 90-135 кг гача мутлақ қуруқ биомасса бериши мумкин (июнь-октябрь ойларида).

Юксак сув ўсимликларининг биомассаларини кўчат сифатида оқова сувларни тозалаш иншоотларининг биологик ҳовузларига экиш ёки иссиқлик ёрдамида (АВМ-0,65, АВМ-1,5) ишлов бериб, витаминли ун тайёрлаб, оқсил – витаминли ва минерал озуқа сифатида қишлоқ хўжалик ҳайвонлари ва паррандаларини боқишда уларнинг рационига қўшимча озуқа сифатида фойдаланиш мумкин.

Шунингдек, азоллани шоличиликда «яшил ўғит» сифатида ишлатиш натижасида шоли ҳосилдорлиги назорат вариантига нисбатан 20-25% га ошганлиги ва 1 гектар шоли майдонидан олинган иқтисодий самарадорлик 2008 йилда 500 000 (беш юз минг) сўмни ташкил этган. Ангрен «Сувоқова» тозалаш иншоотида оқова сувларни пистия, эйхорния ва азолла ёрдамида тозалаш натижасида электроэнергия ва оқова сувларини зарарсизлантиришда ишлатиладиган хлор ва унинг бирикмаларини тежаш ҳисобига олинган иқтисодий самарадорлик юқори бўлади. Шу билан биргаликда ахоли яшаш жойларида сув таркибининг ўзгаришини сақлашда ҳам самарали ҳисобланади.

Юксак сув ўсимликларини манзарали ўсимликлар хилма-хиллигини ошириш учун ҳовузларни безашда ҳам фойдаланиш мумкин

Корхона ва давлат идораларига сувни тозалаш ва қайта ишлатиш учун мазкур сув ўсимликларидан фойдаланишни тавсия этамиз.

Адабиётлар:

1. Такабоев Қ. “Аҳоли яшаш жойларида жумладан Жиззах шахри ичимлик суви таркибининг ўзгариши, ундаги муаммолар ва ечимлар”. Меъморчилик ва қурилиш муаммолари Илмий техник журнал 2019 й. 102 бет.
2. Такабоев Қ., Пирназаров И. “Некоторые аспекты экологических проблем, связенные с автомобилъными транспортами». MODERN SKIENTIFIK CHALLENGER AND TRENDS. Collektion of scientific works of the international scitntifik conference. Warsaw 2020 Issue 11 (33) Part 2. 89-бет
3. Хажиматова М. М. (2021). Сооружение для забора подземных вод. *Символ науки*, (4), 21-24.
4. Мирзоев, А. А., Ходжаев, Я. Д., Хусанов, И. Н., & Хажиматова, М. М. (2015). Многофазные среды со сложной реологией и их механические модели. In *XI Всероссийский съезд по фундаментальным проблемам теоретической и прикладной механики* (pp. 2558-2561).
5. Хажиматова, М. М., & Саттаров, А. (2019). Экологик таълимни ривожлантиришда инновация жараёнлари. *Me' morchilik va qurilish muammolari*, 48.
6. Xajimatova, M. M., & Sattarov, A. (2019). Innovation processes in the development of environmental education. *Problems of architecture and construction*, 48.
7. Қутлимуродов, У. М. (2020). Некоторые аспекты экологических проблем, связанные с автомобильными транспортами. In *European Scientific Conference* (pp. 50-52).
8. Кутлимуродов, У. М. (2019). Загрязнение атмосферы вредными веществами и мероприятия по его сокращению. In *Экология: вчера, сегодня, завтра* (pp. 249-252).

СУВНИ ТАЙЁРЛАШДА БИОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРДАН: БИОРЕАКТОР ВА БИОСОБЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Хажиматова Мавлуда Мамасолиевна. Жиззах политехника институти

Сув ресурсларини бундай техноген ифлосликлардан тозалаш учун уларни дастлабки ишлов бериш босқичида сув таркибида мавжуд бўлган гидробионтларнинг потенциалидан фойдаланадиган биологик тозалаш жараёнидан фойдаланиш мумкин.

Калит сўзлар: биологик тозалаш, техноген, полиэтилен, капрон, биореактор.

Чтобы очистить водные ресурсы от таких антропогенных загрязнителей, можно использовать процесс биологической очистки, который использует потенциал водных организмов в воде на этапе предварительной очистки.

Ключевые слова: биологическая очистка, рукотворное, полиэтилен, капрон, биореактор.

To purify water resources from such anthropogenic pollutants, a biological purification process can be used, which uses the potential of aquatic organisms in water at the stage of preliminary purification.

Key words: biological treatment, man-made, polyethylene, nylon, bioreactor.

Сув таркибида мавжуд бўлган микроорганизмлар сувда эриган органик моддалар билан жумладан антропоген таъсири остида келиб чиққан ифлосликлар (СЮАМ, нефт маҳсулотлари, пестицидлар ва бошқалар) билан озиқланиши мумкин. Сув ресурсларини бундай техноген ифлосликлардан тозалаш учун уларни дастлабки ишлов бериш босқичида сув таркибида мавжуд бўлган гидробионтларнинг потенциалидан фойдаланадиган биологик тозалаш жараёнидан фойдаланиш мумкин. Ер усти сув ресурсларини биологик тозалаш биореакторларда (биофилтрларда), яъни ривожлантирувчи юзага эга воситаларда микроорганизмларни махкамлаш хисобига ўстирилган биоценозни қўлловчи иншоотларда амалга оширилади. Махкамланган микроорганизмлар учун восита сифатида полимер материаллардан (полиэтилен, капрон, лавсан ва бошқалар) ясалган толали ёки гранулали таркибга эга учликлардан фойдаланилади. Бундай материаллар токсик эмасдир. Полиэтилен ва полипропилендан тайёрланган толалар, микроорганизмлар ҳаракатига юқори мустаҳкамликка ва чидамлиликка эгадир. Толали учликларнинг ишлаш самарадорлигини тавсифловчи асосий параметрлардан бири биореактор корпуси ҳажмини улар билан тўлдирилиш даражасидир.

Ер усти сувлари манбасидан олинган сувни тозалашда биореакторни ўзан турдаги сув олишнинг бош қисмига ёки сувни биринчи кўтариш насос станциясининг қабул қилиш бўлимига жойлаштириш мумкин.

1 – расмда маҳкамланган микроорганизмлар учун учликлари мавжуд ўзан турдаги сув олишнинг бош қисмининг схемаси кўрсатилган.



1– расм. Ўзан турдаги сув олишнинг бош қисми конструкцияси: 1 – баликдан сақловчи мослама; 2 – темир бетон бош қисми; 3 – тўлдирувчи; 4 – сувни қабул қилувчи қудуққа сувни олиб бориш қувури; 5 – ювиш сувини олиб кетиш тизими.

Бош қисмга кичик балиқчаларни тушишини олдини олиш мақсадида баликдан сақловчи мослама 1 кўзда тутилган. Бош қисмнинг ичида унда биоценозни ривожлантириш учун тўлдирувчи 3 жойлашади, тўлдирувчидан ўтиш давомида сув таркибидан органик ва ноорганик чўкиндилар қисман олиб ташланади. Сувни кейинги тозалаш босқичига олиб ўтиш қувур 4 орқали амалга оширилади.

Тўлдирувчини ювиш қирғоқ қудуқдан олинган сувни тескари йўналишда берилиши билан амалга оширилади. Тўлдирувчини ифлосликлар билан ва сув ўтлари билан ўсиб кетишида ювиш учун бериладиган сувга қўшимча равишда зарарсизлантирувчи эритма қўшилади, масаалан мис купороси ва бунда сувни қабул қилувчи қирғоқ қудуқдан фойдаланиш мумкин (2 – расм). Дастлаб сув қувур 1 орқали қудуқнинг сувни қабул қилиш бўлимига узатилади. Толали тўлдирувчи каркас 3 га маҳкамланади. Узилиб тушган биоценоз чўкмаларини сўриб олувчи бўлимга тушиб қолишини олдини олиш учун кириш тирқиши олдига қўшимча равишда пенополистирол гранулари билан тўлдирилган филтрловчи кассеталарини жойлаштириш мумкин. Қудуқдаги чўкмаларни маълум вақт ўтиши билан гидроэлеватор 4 ёрдамида амалга оширилади.



2– расм. Сувни қабул қилувчи қудуқ конструкцияси: 1 – дастлабки сувни узатиш қувури; 2 – қудуқ деворлари; 3 – тўлдирувчиси бор каркас; 4 – гидроэлеватор; 5 – насос станциясининг сўрувчи қувури; 6 – тешилган тўсиқ.

Восита қатлами орқали филтрлаш тезлиги биоценозни барақарор ўсиб кетишининг шаклланиш шароитига таъсир қилади. Шунинг учун филтрлашнинг тезлиги катта бўлганда вақтдан олдин биоценознинг бузилиши юз беради, филтрлаш тезлиги жуда кичик бўлганда эса микроорганизмларнинг нормал яшаш фаолияти учун озуқа моддаларнинг кириб келиш

катталиги етарлича бўлмаслиги мумкин.

Тўлдирилиш даражаси коэффициенти биоценознинг ўсиб кетиш тезлигига ва биореакторда биомассанинг юқори концентрациясини ушлаб туришга сезиларли даражада таъсир қилади. Сувнинг ҳарорати микроорганизмларнинг ҳаёт фаолиятига кучли таъсир кўрсатади, натижада сувнинг хлорни ютиш қобилиятини ўзгариш самарадорлигига хам таъсир кўрсатади.

Тўлдирувчи чиқиндилар билан ўсиб кетиши билан уни ювиш жараёни амалга оширилади. Биореакторнинг ишлаш самарадорлиги ювиш ишларини олиб бориш режимига боғликдир. Тўлдирувчи вақтида юпишиб қолган биомассадан тозаланмаса, сув иккиламчи ифлосланиши мумкин. Ювиш жараёнининг жадаллиги ва давомийлиги кўрсаткичларини тўғри танлаш биореакторнинг ишлаш самарадорлигини оширади.

Ювиш учун сувни 15 – 20 л/с м^2 жадаллик кўрсаткичига эга бўлганда ва 3 – 6 минут давомийликда узатилса закрузканинг юза қисмидан йиғилиб қолган метаболизм маҳсулотлари ва қуйқа моддалар йўқ қилинади, биоценоз ўсиши фақат қисман бузилади ва етарли даражада тез олдинги фаоллигини тиклаб олиши мумкин.

Биореактор ва филтрловчи кассеталарни ювиш учун қудуқнинг ер усти қисмида жойлашган махсус резервуарлар кўзда тутилган, бу резервуарлардаги босимли шланг ёрдамида тўлдирувчиларни ифлосликлардан тозалаб ювиш амалга оширилади. Тўлдирувчи ва касетталарни чиқариб олиш қўл билан ёки электрик тал орқали амалга оширилади. Биореактор тўлдирувчисига эркин кира олиш имконияти тўлдириш даражасини тезкор ўзгартириш ва ювиш жараёнини амалга ошириш хамда толаларни алмаштириш имконини беради. Эриган кислород концентрациясини ошириш зарур бўлган холларда биореакторга компрессордан хаво ўтказгич уланиши мумкин. Қудуқни санитар холатдан ишлашга лаёқатини сақлаш учун қудуқни вақти вақти билан зарарсизлантириш эритмаси билан ишлов бериш керак.

Антропоген келиб чиқишига эга ифлосликлардан сувни тозалаш учун префилтрни ва сузиб юрувчи тўлдирувчиси бор дастлаб сувни юқори охиригача тозалаш филтрни бирга боғлайдиган иншоот самарали ҳисобланади (3– расм). Дастлаб сув қувур 1 орқали филтрга узатилади ва майдаланган пенопластдан иборат тўлдирувчи орқали пастдан тепага филтрланади, бунда сув дағал дисперс чўкиндилардан тозаланади. Префилтрдаги устки ушлаб турувчи қатлам синтетик толалардан бажарилган, ушбу толалар микроорганизмларни маҳкамлаш ва биоценозни ўстириш учун янгилаш учун хизмат қилади. Сувни тозалаш самарадорлигини ошириш учун қўшимча аэрация кўзда тутилган. Ундан кейин сув қўшимча равишда сузиб юрувчи тўлдирувчига эга филтрларда ФПЗ – 4 охиригача тозалашдан ўтади. Префилтрнинг бундай конструкциясидан фойдаланиш дастлабки сувнинг сифатига боғлиқ равишда сузиб юрувчи тўлдирувчининг толали қатламни сиқиш қобилияти хисобига тўлдириш даражасини осон ўзгартириш имконини беради. Сув ва иншоотларни зарарсизлантириш зарур бўлган холларда сувга ва иншоотларга реагент берилиши кўзда тутилади.



3 – расм: 1 – дастлаб сувнинг берилиши; 2 – сузиб юрувчи тўлдирувчи; 3 – хавонинг берилиши; 4 – толадан иборат тўлдирувчи; 5 – ювиш учун сувни узатиш қувури; 6 – ФПЗ – 4 филтри; 7 – филтратни олиб чиқиш; 8 – ювиш учун берилган сувни олиб чиқиб кетиш.

Водопровод тармоғининг тозалаш иншоотларида микрофилтрлардан ва барабанли тўрлардан фойдаланишда биореакторни уларнинг қабул қилиш чўнтагида ёки қайта ускуналар билан жиҳозлаш йўли ёки толали филтрлаш материалини тўлдирувчи сифатида фойдаланиш билан барабанни ўзини алмаштириш йўли билан уларни жойлаштириш мумкин. Сувни янада чуқурроқ тозалаш талаб этилганда унга дастлабки ишлов бериш босқичида сузиб юрувчи қатламга эга микрофилтрлардан фойдаланиш мумкин. Филтрнинг бундай конструкцияси сув таркибидаги эриган органик моддалар, дағал ва майда дисперс чўкиндиларни сувга реагент билан ишлов бериш босқичигача сезиларли даражада камайтиради.

Материал юзасида табиий сувлардаги органик моддалар билан самарали ўзаро таъсирлашуви учун етарли бўлган керакли миқдор ва сифатда, биоценоз ўсиб кўпайишига эга тўлдирувчиларнинг шаклланишига керак бўлган вақт биореакторнинг “зарядлаш” вақти деб номланади. Ушбу вақт биореакторлар ишининг давомийлигига эквивалентдир, биореакторнинг давомийлиги унинг иш бошлаш моментидан бошлаб перманганат оксидланиши 10 % га тушишни бошлагунча тенгдир. Тозалашнинг бундай эффектига етишишда сувнинг хлорни ютиш қобилияти 5 – 10 % га камаяди. Сувнинг хлорни ютиш қобилиятининг катталиги сув таркибининг умумий тавсифи хисобланади (хлорга таъсир қилувчи сув таркибидаги органик ва ноорганик моддалар). Сувнинг хлорни ютиш қоби-

лиятидан келиб чиққан ҳолда дастлабки хлорлашнинг дозаси белгиланади. Шунинг учун сув таркибидаги органик моддалар миқдорини биологик усуллар ёрдамида сувга ишлов беришнинг биринчи босқичида камайтиришга эришиб, дастлабки сувга бериладиган бирламчи хлорнинг дозасини сезиларли даражада камайтириш мумкин ва токсик учгалогенметанларнинг ҳосил бўлишини олдини олиш мумкин.

Тозалаш иншоотларнинг самарадорлигини ошириш ва сув таркибидан антроплген келиб чиқишга эга ифлосликларни бошидан йўқ қилиш учун НИИ ВОДГЕО да биосорбцион тозалаш усули ишлаб чиқилган. Ушбу усулнинг асосини ифлосликларни сорбция қилиш жараёни билан уларни биологик оксидлаш жараёнлари билан бирга олиб бориш ташкил этади. Органик ифлосликлар сорбентнинг микроғовакли таркибида сорбланади ва кейин сорбент зарраларининг юзасида ривожланадиган биопленканинг микроорганизмлари билан биологик оксидланишига юборилади. Ишлаб чиқилган бу усул қийин оксидланадиган органик бирикмалар учун айниқса самаралидир. Абсорбланган ифлосликлар экзоферментлар орқали биопленкага сафарбар қилинган биологик чирувчи шаклга айланади. Биопленкада сорбент билан чегарада юз берадиган доимий равишда амалга ошириладиган масса алмашинуви (сорбция, биочириш, биооксидланиш), кўмирнинг юқори даражада сорбцион қобилиятини узоқ вақт ушлаб туриш имконини беради ва бунда сорбентнинг уни алмаштиргунча ишлаш вақти 2 – 3 йилни ташкил қилиши мумкин.

Адабиётлар

1. Такабоев К. У., Мусаев Ш. М., Хожиматова М. М. Загрязнение атмосферы вредными веществами и мероприятие их сокращение //Экология: вчера, сегодня, завтра. – 2019. – С. 450-455.
2. Sultonov A. et al. Pollutant Standards for Mining Enterprises. – EasyChair, 2021. – №. 5134.
3. Хажиматова М. М., Саттаров А. Экологик таълимни ривожлантиришда инновация жараёнлари //Me′ morchilik va qurilish muammolari. – 2019. – С. 48.
4. Мирзоев А. А. и др. Многофазные среды со сложной реологией и их механические модели //XI Всероссийский съезд по фундаментальным проблемам теоретической и прикладной механики. – 2015. – С. 2558-2561.
5. Xajimatova M. M., Sattarov A. Innovation processes in the development of environmental education //Problems of architecture and construction. –2019. –С.48.
6. Хажиматова М. М. Сооружение для забора подземных вод //Символ науки: международный научный журнал. – 2021. – №. 4. – С. 21-24.
7. Хажиматова М. М. Некоторые гидродинамические эффекты, проявляемые при пузырьковом и снарядном режимах течения газожидкостной смеси //Science and Education. –2021. – Т.2. – №.4. – С.257-264.
8. Shukurov G. et al. " Thermal conductivity of lightweight concrete depending on the moisture content of the material //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 08. – С. 6381.
9. Такабоев Қ. Ў., Хажиматова М. М. Хўжалик чиқинди сувлари, улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 325-336.
10. Ugli U. S. R. Reagent Water Softening in Illuminators //International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 18-23.

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДАН АЖРАЛИБ ЧИҚАДИГАН ЧАНГ ЗАРРАЧАЛАРИНИ ТОЗАЛАШНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ

Халманов А. Т. - илмий раҳбар, **Исмоилов Ҳ. И.** - таянч докторант (PhD)
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти

Ушбу мақолада цемент ишлаб чиқариш заводининг атроф-муҳитга таъсирини ЭКОЛАБ газ анализатор асбоби ёрдамида тадқиқ қилинди. Аэрозоль заррачалари: фтороводород (HF), азот икки оксиди (NO_2), олтингугурт икки оксиди (SO_2), водород сульфиди (H_2S), аммиак (NH_3), углерод оксиди (CO), формальдегид (CH_2O) каби моддалар ўрганиш объекти ҳисобланади.

Калит сўзлар: цемент заводи, чанг зарралари, аэрозоль, фильтр, анализатор.

Исследование очистку от частиц пыли, выбрасываемой производственными предприятиями

В этой статье влияние цементного завода на окружающую среду было исследовано с помощью газоанализатора EKOLAB. Объектом исследования являются аэрозольные частицы таких как вторидный водород (HF), диоксид азота (NO_2), диоксид серы (SO_2), сероводород (H_2S), аммиак (NH_3), оксид углерода (SO), формальдегид (CH_2O).

Ключевые слова: цементный завод, пылевые частицы, аэрозоль, фильтр, анализатор.

Research on the cleaning of dust particles emitted by industrial enterprises

In this article, the environmental impact of a cement plant was investigated using an EKOLAB gas analyzer. The object of research is aerosol particles such as hydrogen fluoride (HF), nitrogen dioxide (NO_2), sulfur dioxide (SO_2), hydrogen sulfide (H_2S), ammonia (NH_3), carbon monoxide (SO), formaldehyde (CH_2O).

Keywords: cement plant, dust particles, aerosol, filter, analyzer.

Кириш. Ҳозирги вақтда дунёда энергетиканинг ривожланиши ва экологик муаммоларни ҳал қилиш замонавий илм-фан ва техниканинг кўплаб соҳалари учун муҳим рол ўйнайди. Маълумки, халқаро энергетика агентлиги (ХЭА) 2050-йилга қадар қайта тикланадиган энергия

манбаларининг 80 фоизгача энергия ташувчиси сифатида фойдаланишни ва зарарли моддалар чиқиндиси кўрсаткичи сифатида атмосферага CO_2 ташланмасини икки баравар камайтириш вазифасини қўйган. Шунинг учун ҳар хил ёнувчан газларни ёқиш тизимлари ва мосламаларини такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш натижасида атмосферага зарарли моддалар чиқишини камайтиришга катта эътибор қаратилган. Бунга, бошқа нарсалар қатори, ёнувчан газлар ва суюқ ёқилғини ёқиш учун ёндиргичларни ва фойдали сигналларни қайд қилиш тизимини такомиллаштириш, иккинчидан, электр станцияларида иссиқлик узатишни кучайтириш орқали эришилади. Қурилиш материаллари ва буюмлари саноатида керамик ғишт ва цемент ишлаб чиқариш Ўзбекистон халқ хўжалигининг жадал ривожланаётган тармоқларидан бири ҳисобланади. Ҳозирги вақтда ёқилғи энергиясидан самарали фойдаланиш ва атроф-муҳитга зарарли моддалар чиқиндиларини камайтириш долзарб вазифадир [1-7].

Мустақиллик йилларида Республикамиз илм-фан соҳасида устувор ривожланишларга, жумладан, ўта сезгир лазер спектроскопия соҳасини самарали ривожлантириш борасида атомларни ва аэрозолларни ёки шунга ўхшаш мураккаб молекулаларни қайд қилишга қаратилган тадқиқотларга, қурилмаларнинг дизайни ва техник тавсифларини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилди [2].

Ушбу мақолада цемент ишлаб чиқариш заводининг атроф-муҳитга таъсирини ЭКОЛАБ газ анализатор асбоби ёрдамида тадқиқ қилинди. Аэрозоль заррачалари: фтороводород (HF), азот икки оксиди (NO_2), олтингугурт икки оксиди (SO_2), водород сульфиди (H_2S), аммиак (NH_3), углерод оксиди (CO), формальдегид (CH_2O) каби моддалар ўрганиш объекти ҳисобланади.

Тажриба қисми. Бизнинг охирги илмий ишларимизда лазер плазмасининг морфологияси ва атмосферанинг оптик экстинкциясини ўлчаш учун, шу билан биргаликда лазер нурининг резонаторда яшаш (сўниш) вақтига аэрозоль заррачаларининг таъсирини ўрганишда резонатор ичида сўниш лазер абсорбцион спектроскопия (РСЛАС) методи қўлланилган [2-5]. Методнинг имконятлари O_2, H_2O, NO_2, N_2, Cu_2, Cu_3, CuSi, AgSi, AuSi, PtSi, Cl_2, ClO, Al_2, AlAr, OH, I_2, Hg, Pb, CO, CO_2, NH_3, HCN, C_2H_2, S_2 ва симоб излари миқдорларини аниқлаш учун намойиш қилинган [2]. Охирги вақтда РСЛАС методи ёрдамида ҳар хил аэрозолларнинг оптик хусусиятларини ўрганиш катта қизиқиш уйғотмоқда. Бу методнинг ҳар хил аэрозоллар учун жумладан, металл юзасидаги факелларга ва металл тузларидан ҳосил бўладиган шаффоф аэрозолларга қўлланиши ҳар бир аэрозоль учун экстинкция коэффициентини, ҳамда эффективлигини ва ёруғликнинг резонаторда яшаш вақтини аниқлашга имконят яратади. Маълумки, анъанавий спектроскопия ёруғликнинг кириш ва чиқиш интенсивликларини ўлчашга асосланган бўлиб, бу метод эса лазер нурининг резонаторда яшаш вақтини тоза (фильтрланган) ва намунада ўлчашдан иборат. Кейинги вақтларда бутун сайёрамиздаги барча мамлакатларда атроф-муҳит муҳофазасига алоҳида эътибор берилмоқда. Завод ва фабрикаларнинг кўпайиб бориши мамлакатларнинг ривожланишига улкан ҳисса қўшаётган бўлсада, аммо улардан чиқаётган зарарли чиқиндилар экологияга жиддий таъсир кўрсатмоқда. Озон қатламининг емирилиши, глобал исиш, улкан муз тоғларининг эриши ва сўнгги йилларда кўпайиб бораётган касаллик турларининг хилма-хиллиги фикримизнинг яққол далилидир.

Охирги вақтда РСЛАС методи ёрдамида NaCl тузининг сувдаги эритмаси ва атмосферадан бино-иншоотларга кириб келаётган аэрозоль заррачалар сонининг заррачалар диаметрига боғлиқлиги ўрганилган ва тажриба натижалари гистограмма кўринишда 1 ва 2-расмларда келтирилган[2]. 1-расмда NaCl концентрациясини 50 г/л дан 200 г/л га оширганимизда катта диаметрли аэрозоль заррачалари сони ошган ва натижада гистограмма ўнг томонга силжиши кузатилган. Хонадаги ҳаво заррачаларининг тўлиқ концентрацияси $C=3\cdot10^3 см^3$ бўлиб, ўртача диаметри 150нм бўлган аэрозоль заррачалари максимумни ташкил қилади (2-расм).



1-расм. Натрий хлор аэрозоль заррачалари сонининг заррачалар диаметрига боғлиқлик графиги

2-расм. Хонадаги аэрозоль заррачалари сонининг заррачалар диаметрига боғлиқлик графиги

Юқорида келтирилган натижалардан шуни таъкидлаш керакки қурилиш материаллари ишлаб чиқарадиган корхоналар атроф-муҳитга

ҳар хил турдаги газлар ва чанг зарралари тарқатади. Шундай экан цементнинг таркибини билиш жуда муҳим ҳисобланади. Цемент бу – майда, нометалл, ноорганик кукун, у сув билан аралаштирилганда хамир ҳосил қилади ва қатиқлашади. Ушбу гидравлик қотиш, сув ва цемент таркибий қисмлари ўртасидаги реакция натижасида калций силикат гидратлари ҳосил бўлиши туфайли юзага келади. Цемент ишлаб чиқариш учун асосий хомашё материаллари (бўр, оҳактош), алюмосиликатлар (глина, шлаклар, зола ва бошқалар) ва темир таркибли компонентларидир. Цемент ишлаб чиқаришда, цемент заводларидан атмосфера ҳавосига одатда чанглар, азот оксидлари (NO_x), олтингугурт икки оксиди (SO_2), углерод оксидлари (CO_x), металлар ва уларнинг бирикмалари, газсимон хлоридлар (Cl) ва фторидлар (F) ажралиб чиқади. Цемент заводларида одатда чанг ташламалари массасининг 20% гача ёки 20% дан 70% гача қисмини SiO_2 ташкил қилади. SiO_2 миқдори юқори бўлган чанг инсон танасига кўпроқ зарарли ҳисобланади. Майда дисперсли чанглар инсоннинг ўпка йўлларига анча тез тушади ва ўпка касалликларини келтириб чиқариши мумкин. Цемент заводларидан атмосфера ҳавосига ташланаётган чангларни камайтириш ва санитария меъёрида бўлишини таъминлашда циклонли фильтр, электрофильтр ва бошқа турдаги технологик чанг-газлар тозаловчи қурилмалар қўлланилади. Бу қурилмалар чангнинг умумий миқдорини 75% дан 99% гача тозалаш самарадорлигига эга. Чанг-газларни тозалаш учун ускуналарни ва уларнинг оптимал иш режимларини тўғри танлаш орқали цемент ишлаб чиқаришдаги чанг-газ ташламаларини мақбул даражагача тушириш мумкин [6,7].

Цемент ишлаб чиқаришда атмосферага ташланадиган ифлослантирувчи моддалардан бири азот оксидларидир (NO_x). Аралашманинг 95% ини азот оксиди, 5% ини эса азот икки оксиди ташкил қилади. Азот оксиди (NO)-рангсиз, ҳидсиз, сувда ёмон эрийдигин газдир. Унинг концентрацияси 50 ppm гача бўлса заҳарли таъсир кўрсатмайди. Азот икки оксиди (NO_2)-бу паст концентрацияларда ҳам сезилиб турадиган жигарранг-қизғил рангли, ўткир ҳидли газдир. Унинг концентрацияси 10 ppm дан юқори бўлса, бурун тешигини ва кўзни кучли ачиштиради. Агар унинг концентрацияси 150 ppm дан юқори бўлса бронхит, 500 ppm дан юқори бўлса ўпка шиши пайдо қилади, ҳаттоки бир неча дақиқа давомида таъсир этса ҳам.

Олтингугурт икки оксиди (SO_2) чиқиндилари, цемент печларидаги хомашё материаллари ва ёқилғи таркибидаги учувчан олтингугурт бирикмаларининг концентрациясига, цемент ишлаб чиқариш усулига ҳамда печдаги учувчан олтингугурт бирикмаларининг ички циркуляциясига боғлиқ. Олтингугурт икки оксиди-безовта қилувчи, рангсиз ва заҳарли газдир. Олтингугурт газидан заҳарланиш аломатлари: тумов, йўтал, хириллаш, томоқ оғриғи. Юқори концентрацияли олтингугурт газидан нафас олганда-бўғилиш, нутқнинг бузилиши, қайд қилиш ва ўпка шишиши юзага келади.

Клинкерни куйдириш печидаги тутун газлари таркибидаги углерод оксидлари-икки хил йўл билан пайдо бўлиши мумкин. Биринчи йўли ҳаводаги кислород миқдорининг етишмаслиги оқибатида технологик ёқилғининг тўлиқ ёнмаслиги ҳамда айланувчи печга узатлиадиган ҳаво етишмаслигига боғлиқ. Иккинчи йўли, хом ашё таркибида углерод бўлган турли хил органик бирикмалар мавжудлиги билан боғлиқ. Углерод оксиди-рангсиз, ҳидсиз, заҳарли газдир. Унинг кам миқдордаги концентрацияси ҳам инсон танасига тушганда бош оғриғи, бош айланиши, томир тортишиши, нафас қисилиши, юрак уриш тезлигининг ошиши ва кома ҳолатларига олиб келади.

Металлар ва уларнинг бирикмалари, печга клинкерни куйдириш учун хомашё материаллари ва технологик ёқилғилар билан киради. Уларнинг концентрацияси кенг чегарада ўзгариши мумкин. Металлар ва уларнинг барча бирикмалари, учувчан бўлмаган моддалар бўлган металлар, қисман учувчан металл бирикмалари (Sb, Pb, Se, Zn), Таллий (Tl) металл шаклида ёки бирикмалар шаклида жуда учувчандир ва Симоб (Hg) жуда учувчан бирикмаларга бўлинади. Хлор ва фторнинг ноорганик бирикмалари портландцемент клинкерининг кичик таркибий қисмлари ҳисобланади, уларнинг клинкердаги таркиби одатда 0,05-0,1 % дан ошмайди (хлор иони бўйича).

Бугунги кунда биз Самарқанд вилояти Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бошқармаси билан ҳамкорликда иш олиб бормоқдамиз. Вилоятдаги барча завод ва фабрикалар ушбу бошқарманинг доимий назоратида бўлади. Самарқанд вилоят Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бошқармаси “Атроф-муҳитни ифлосланиши мониторинги” бўлими ходимлари билан Жомбой туманида жойлашган «ФАРХОД ШИФЕР» МЧЖ цемент ишлаб чиқариш заводидан атроф-муҳитга ташланаётган чанг ва зарарли моддаларнинг миқдорини ЭКОЛАБ газ анализатори асбоби билан ўргандик. Тадқиқот жорий йилнинг 18-февраль куни соат 15:52да 32 ^oC ҳаво ҳарорати ва 697 мм.сим.уст. атмосфера босимида олиб борилди. Заводдан 100 м радиусда ўлчаганимизда азот икки оксиди (NO_2): 0.017 мг/м^3, олтингугурт икки оксиди (SO_2): 0.604 мг/м^3, углерод оксиди (CO): 1.091 мг/м^3, миқдорларни ташкил қилади. Фтороводород (HF), водород сульфиди (H_2S), аммиак (NH_3), формальдегид (CH_2O) каби моддалар рухсат этилган концентрациядан 10 мартадан ҳам кичиклиги аниқланди. Юқоридаги

кўрсаткичлар асосида заводдан ажралиб чиқаётган зарарли моддалар миқдори меъёр даражасида дейишимиз мумкин. Бу заводдаги чанг ушлаш мосламаларининг меъёр даражасида ишлаётганлигини билдиради.

Хулосалар

1. Атмосферага тушган кўплаб ҳавони ифлослантирувчи моддалар аэрозоль кўринишида бўладилар ёки аэрозолларга айланадилар. Аэрозолларни самарали тутиб қолиш учун фильтрлар белгиланган муддатларда тозалаб ва алмаштирилиб турилиши керак.

2. Инсонларнинг соғлом ҳаёт кечириши ва узоқ умр кўриши учун атмосферага ташланаётган зарарли моддаларнинг миқдорини камайтиришимиз зарур. Шу сабабли завод атрофида манзарали дарахтлар экиш ва кўкаламзорлаштириш ишларини олиб бориш керак.

Адабиётлар:

1. Дресввянникова Е А, Готулева Ю В. Энергосберегающие технологии при производстве строительных материалов. Современные наукоёмкие технологии-2013-№8-2. Стр301-302.

2. Халманов А.Т. Высокочувствительная лазерная спектроскопия ультрамалых концентраций атомов в различных фазовых состояниях вещества, (DSc) диссертации по физико-математическим наукам. Ташкент. Физико-технический институт, 2017. -204 с.

3. Khalmanov Aktam, Boboev Sobir and Burxonov Xurshid. Calculation of a polluting substance released into the atmosphere from asphalt-concrete plants. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Year: 2019 Issue: 08 Volume: 76 - p.246-249.

4. Khalmanov Aktam. Laser spectroscopy of ultra-small concentration of atoms and aerosols in various phase states of substance. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science Year: 2019 Issue: 07 Volume: 75 -p.225-239.

5. Халманов Н., Халманов А. Пахтачиликда органик ўғитлар ва атроф-муҳит муҳофазаси. – Самарқанд: - Zarafshon, 2015, 136 бет.

6. Грин Х., Лейн В. аэрозоли - пыли, дымы и туманы Перевод с английского под редакцией докт. хим. наук Н. Л. Фукса издательство «ХИМИЯ» Ленинградское отделение 1972-427.с

7. «Производство цемента» Москва Бюро НДТ 2015.

ОПРЕДЕЛЕНИЯ НАДЕЖНОСТИ РАБОТЫ ТРУБОПРОВОДНЫХ ИНЖЕНЕРНЫХ СЕТЕЙ ПРИ ИХ РАБОТЕ В РАЗЛИЧНЫХ УСЛОВИЯХ

Абдиганиева Г.К. – Каракалпакский государственный университет

В статье рассматривается разработка методов функционирования трубопроводных инженерных сетей, которые происходят в условиях возникновения отказов различных пассивных и активных элементах.

Ключевые слова: статистическое моделирование, распределения вероятности, логическая схема, инженерные сети.

Maqolada turli xil passiv va faol elementlarning ishdan chiqishi sharoitida yuzaga keladigan quvur liniyasi muhandislik tarmoqlarini ishlatish usullarini ishlab chiqish muhokama qilinadi.

Tayanch iboralar: statistic modelllashtirish, ehtimollik taqsimlash, mantiq sxema, muhandislik tarmoq.

The article discusses the development of methods for the functioning of pipeline engineering networks, which occur under conditions of failure of various passive and active elements.

Keywords: statistical modeling, probability distributions, logic diagram, engineering networks.

В статье рассматривается разработка методов функционирования трубопроводных инженерных сетей, которые происходят в условиях возникновения отказов различных пассивных и активных элементах. При этом каждый пассивный элемент может находиться лишь в двух состояниях- работоспособном и не работоспособном, т.е. состоянии при котором он должен быть исключен из расчетной схемы инженерной сети. Оценка состояний активных элементов может быть дана также просто в том случае, если речь идет об одном насосе, компрессоре, дросселе и т.п. Если включенный в схему инженерной сети активный источник реально состоит из нескольких параллельных работающих насосов, оценка его состояний значительно сложнее, так как отказ одного из насосов может лишь несколько изменить характеристику всего активного элемента в целом, а наличие резервных насосов может в короткое время полностью компенсировать последствия возникшего отказа. Поэтому правильное определение требований к гидравлическим характеристикам активных элементов (величина подачи и напора во всех возможных условиях работы сети), определение разумного (минимально необходимого) резерва оборудования насосных и компрессорных станций является одной из важнейших задач проектирования инженерных сетей.

Несмотря на то, что само понятие надежности технической системы определяется достаточно просто – «надежность есть вероятность того, что система будет в полном объеме выполнять функции в течении заданного промежутка времени, при заданных условиях работы» [1], определение конкретных параметров надежно-

сти проектируемой или эксплуатируемой инженерной сети представляет сегодня весьма сложную теоретическую и практическую задачу. Для сложных систем энергетики, а именно к ним относятся инженерные сети систем тепло-, водо-, газоснабжения, используемое в железнодорожном хозяйстве, это проблема связана не только с трудностями определения показателей надежности при последовательно-паралельной схеме соединений пассивных элементов, сколько с самим понятием отказа в инженерной сети, которая обеспечивает транспортирование целевого продукта многим потребителям в узлах схемы сети. При этом даже нарушается нормальное снабжение целевым продуктом одного из узлов схемы, то, очевидно, это состояние нельзя считать отказом инженерной сети в целом. Такое положение приводит к тому, что при анализе сложных систем в ряде случаев предлагается не показатели надежности, а показатели эффективности функционирования [2]. Однако и в этом случае трудности достаточно велики, когда встает вопрос о выборе некоторой нормы этой эффективности для условий работы конкретной схемы в объектах железнодорожного транспорта.

В настоящее время различные рекомендации по определению показателей надежности трубопроводных инженерных сетей достаточно противоречивы, дискуссионы и не нашли широкого использования на практике. В реальных условиях проектные организации проводят расчеты установившегося потокораспределения при исключении из расчетной схемы инженерной сети небольшого числа пассивных элементов с наибольшими значениями потоков в полной схеме и по этим данным уточняют характеристики активных элементов. При этом значительная часть полученных в ряде исследований данных о потоках отказов пассивных элементов не находит практического применения. Кроме того, упомянутые расчеты проводят только при максимальных расчетных нагрузках в узлах сети, хотя, как было выявлено эти нагрузки имеют весьма малую вероятность появления и поэтому полученные результаты не характеризуют поведение системы во всем рассматриваемом промежутке времени.

Одним из возможных и уже нашедших применение в практике проектирования электроэнергетических систем методов определения показателей надежности и оценки последствий отказов элементов систем состоит в статистическом моделировании (метод Монте-Карло). В этом методе моделируется естественный ход случайного процесса возникновения отказов (и восстановлений) и, при достаточной продолжительности моделирования, на этой основе могут быть получены оценки показателей надежности [1]. В методе Монте-Карло моделирование заключается в определении моментов возникновения отказов, в зависимости от заданных распределений вероятности безотказной работы для всех элементов системы. В принципе, если совместить моделирование случайного потока отказов с моделированием случайных процессов потребления воды в узлах расчетной схемы инженерной сети, то можно найти оценки последствий отказов пассивных элементов при заданных характеристиках активных источников питания или, наоборот, определить требования к этим характеристикам исходя из необходимости поддержания давлений во всех узлах сети. Однако, большое количество пассивных элементов в инженерных сетях, относительно малые значения интенсивности потоков отказов (порядка $\lambda = 1 \div 2$ l/год.км) [1] приводят к тому, что продолжительности периода моделирования должна составляет 20-30 лет для того, чтобы точность искомых параметров надежности системы была не хуже 10%. При этом весьма сложно будет осуществить моделирование случайных процессов водопотребления на таких длительных интервалах. Таким образом применение метода Монте–Карло для исследования надежности проектируемых инженерных сетей не приводит большому эффекту вследствие вышеуказанных положений.

Основная цель работы состоит в том, чтобы предложить такую модель инженерной сети которая обеспечит построение функций распределения вероятности требуемых давлении источников питания которые учитывают надежность работы сети. Для достижения цели более целесообразным представляется не моделирование по методу Монте-Карло, а совмещение сетевых методов изучения надежности и метода пространства состояний [2]. Первый шаг сетевых методов состоит в построении логической или структурной схемы сложной сетевой системы, в которой источники воды и его потребители связаны трубопроводной инженерной сетью. Между расчетной схемой сети, построенной в зависимости от её физической схемы и логической схемой имеются существенные различия, которые заключается в том, что последняя строится так, чтобы на её основе можно было определить комбинации отказов элементов, приводящие к отказу системы в целом.

Литература:

1. Абрамов Н.Н. Надежность систем водоснабжения. –М.: Стройиздат,1995 г.

2. Венников В.А., Сухов О.А. Кибернетические модели электрических систем. Учебное пособие для ВУЗов. М.: Энергоиздат.1989г..252с.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA YO'L TARMOG'INING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Yuzboyev Rustam Alimbekovich. Jizzax politexnika instituti

Ushbu maqolada avtomobil yo'llarining dunyo hamjamiyati iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati,yo'l tarmog'ining rivojlanish omillari asosan yevropaning bir necha davlatlari misolida shuningdek bir necha yevropa mamlakatlarining avtomobil yo'llari davlatning rivojlanish omillariga ta'siri, yo'l infratuzilmasining rivojlanish yo'nalishlari va ularning bevosita davlat iqtisodiyoti rivojlanishiga bog'liqliligi,shuningdek dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSH va Rossiya yo'l infratuzilmasining ushbu davlatlar iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq holda yo'l qurilish va foydalanish jarayonlari haqida so'z yuritilgan

Kalit so'zlar: transport logistikasi, yo'l infratuzilmasi, arterial yo'llar, yo'l tarmog'i, yo'l tarmog'ining zichligi, tezyurar yo'llar, optimal zichlik.

Kwame Nkrumah Science & Technology universiteti olimlari Charles Peprah, Charles Y. Oduro va Kafui Afi Ocloo larning tadqiqotiga ko'ra ko'chada to'xtash joylari, uning foydalari va muammolari bilan bog'liq ko'plab muhim masalalar kuzatishlarga ko'ra ko'chadagi to'htash joylari turli darajadagi biznes va boshqa faoliyatga foyda keltirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bu shahar ma'muriyati uchun shaharni rivojlantirishda daromad olish uchun muhim yo'llardan. Biroq, noqulay madaniyat va munosabat muammolari piyodalarni xavf ostiga qo'yishda ko'chada to'xtash joyini tashkil qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Xulq-atvor va madaniyat masalalari nafaqat piyodalar xavfsizligi va ko'chadagi to'xtash joylari barqarorligiga, balki rivojlanishning barcha sohalariga ham katta ta'sir ko'rsatishi aniq isbotlangan. Ko'chada harakatlanish madaniyatining o'zgarishi ko'chada samarali to'xtash joyi va piyodalar xavfsizligini oshirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Toshkent Davlat tarnsport universiteti professorlari Azizov Q.X. va Sodiqov I.S. larning xulosalariga ko'ra ko'cha to'htash joylari bilan bog'liq muammolarning umumiy qabul qilingan echimi bu to'xtash vaqtining davomiyligini cheklashdir. Texnik jihatdan to'xtash vaqtini cheklashning bir necha yo'li mavjud - maxsus ko'rsatmalar, belgilar, parkomatlar, kuponlar, ruxsatnomalar, to'lovlardan foydalanish. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu vaziyatdan chiqishning eng yaxshi yo'li bu markaz hududiga kirishni taqiqlash, tranzit transporti uchun aylanma yo'llarni yaratish, ko'p qavatli to'xtash joylarini yaratish va shahar markazlarida jamoat transporti tarmog'ini rivojlantirishdir. Biroq, ushbu yondoshuvlar har doim ham qo'llanilmaydi. Shu munosabat bilan avtoturargohni tashkil qilishni tartibga soluvchi boshqa, yanada samaraliroq mexanizmlarni izlash kerak.

Metodlar. Bugungi kunda yo'l - transport hodisalari sonining ortishiga yo'lning qatnov qismi bo'ylab avtomobillar to'xtab turish joylaridagi transport vositalari ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Norvegiya mamlakatida avtomobillar turish joyi bilan bog'liq bo'lgan YTHlar, umumiy YTHlarining 2,4% tashkil etadi, ya'ni to'xtab turgan avtomobillarga urilish 30% ni, to'xtab turgan avtomobillarning oralig'idan chiqib qolgan piyodalarni urib yuborish 25% ni, to'xtab turgan avtomobillarni aylanib o'tishdagi to'qnashuvlar 15% ni hamda to'xtash joylariga va to'xtab turish joylariga kirishdagi YTHlar 8% ni tashkil qiladi [4, 5].

AQShda parkovka bilan bog'liq YTHlar umumiy YTHlarning 16,5% ini tashkil etadi [6]. Bugungi kunda Respublikamizda, jumladan poytaxtimizda aholi sonining ortishi natijasida transport vositalarining ham miqdorini ortishi kuzatilmoqda, bu albatta shahrimiz ko'chalaridagi transport vositalarining harakatlanishini qiyinlashtirib yo'l-transport hodisalarining ko'payishiga olib kelmoqda [7].

Toshkent shahar A.Temur ko'chasidagi 2016, 2018 yillardagi yo'l-transport hodisalarini tahlilini ko'radigan bo'lsak: 2016 yilda ushbu ko'chada Davlat statistikasiga kiritilgan yo'l-transport hodisalarining 16,3% i, 2018 yilda 33,3% i aynan ko'cha bo'ylab avtomobillar to'htab turish mintaqasida sodir etilganini ko'rishimiz mumkin.

Albatta bir qancha rivojlangan davlatlarda bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilgan. Bugingi yaqin kelajakdagi qilingan ishlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak Gollandiyaning Amsterdam shahrida avtomobillarning to'htab turishi uchun taklif qilinayotgan joylar 211457 tani tashkil qiladi shundan: 86% ko'cha bo'ylab avtomobillar to'htab turish joylari hisoblanadi, 14% esa alohida ajratilgan to'htash joylari hisoblanadi. Ya'ni Gollandiyada transport vasitalarini qatnov qismiga nisbatan perpendikulyar joylashtirish usuli mavjud bo'lib, bu usul yordamida ushbu ko'chadagi harakat tezligini pasaytirish orqali harakatlanish xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi

[8]. Bu usul serqatnov bo'lmagan ko'chalarda foydali hisoblanadi. Bundan tashqari bu erda "Yashil hudud" deb nomlangan parkovkalar ham mavjud. Bu parkovkalar haydovchilar uchun bepul xizmat ko'rsatadi biroq bu erda turish vaqti juda qisqa vaqtga mo'ljallangan va doyimiy kuzatuvda bo'ladi agar belgilangan vaqtdan ko'p turilsa albatta jarimaga tortiladi. Yana shaharda uzoqt vaqtga mo'ljallangan parkovkalar ham mavjud bo'lib "Park and ride" deb nomlanadi [7, 8]. Bu parkovka asosan shaharning hududiga shaxsiy transportda kirishni hoxlamagan haydovchilar uchun mo'jallangan bo'lib ya'ni avtomobilingizni qo'yib shaharda avtobusda, velosipedda yoki boshqa jamoat transportida harakatlanishingiz mumkinligini bildiradi. Ushbu parkovkalar o'zining turli xizmatlariga ham ega ya'ni hisobida 10 ta va undan ortiq avtomobillariga ega bo'lgan tashkilotlar uchush shartnoma asosida xizmat ko'rsatadi ya'ni ushbu shartnoma qilingan tashkilotning avtomobillari uchun aloxida joylar ajratib beriladi. Albatta ushbu parkovkalar uchun to'lov tizimi ham qulaylashtirilgan bo'lib ya'ni to'lovni telofondagi maxsus ilova orqali va internetdan yoki o'sha joyning o'zidagi parkomatlar orqali to'lashingiz mumkin [7, 8, 9,10].

Natijalar tahlili. Tadqiqotlar Toshkent shahridagi 10 ta markaziy ko'chalarda o'tkazildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki ushbu ko'chalarda juda ko'plab tashkil qilinmagan yo'lning qatnov qismi bo'ylab to'htab turish joylari aniqlandi.



Toshkent shahridagi yo'lning qatnov qismi bo'ylab to'htab turish joylarining xaritada joylashishi

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki Toshkent shahrining 10 ta markaziy ko'chalarida 45,17 kilometr masofada yo'lning qatnov qismi bo'ylab to'htab turish joylari aniqlandi. Shundan 26,3% zi 45^0-60^0 burchak ostida to'htab turgan, ko'cha bo'ylab to'htab turish joylari bo'lsa, 73,7% zi esa 0^0 burchak ostida ya'ni qatnov qismiga nisbatan parallel joylashgan ko'cha bo'ylab to'htab turish joylari ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki bir qancha ko'chalardagi bitta tasmasining har ikki yo'nalishda hisoblanganda 50%dan ortig'i kun davomida band holatda ekanligi ma'lum bo'ldi.

2008 yildagi Toshkent shahrining markaziy ko'chalaridagi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, qatnov qismining bitta tasmasini 60% gacha kun davomida 4-6 soatgacha to'xtab turgan transport vositalari band qiladi[11]. 2019 yildagi kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki kun davomidagi yo'lning qatnov qismi bo'ylab to'htab turish davomiyligi 10-12 soatni tashkil qilmaqda.

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki ko'cha bo'ylab avtomobillar to'htab turish joylari harakatlanish xavfsizligiga to'g'ri tashkil qilinmaganda sezilarli ta'sir ko'rsatib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni talab etadi. Birinchi navbatda yo'llarda harakat ishtirokchilarining harakatlanish madaniyati shakillanmas ekan ko'cha bo'ylab to'htash joylari barcha harakat ishtirokchilari uchun xavf tug'diruvchi omillardan biri bo'lib qolaveradi. Shu kunga qadar mamlakatimizda ham bu borada bir qancha olimlar o'z tadqiqotlarini olib borishgan biroq bu tadqiqotlar xozirgacha etarli darajada emas. Respublikamizda ham yuqorida ko'rib o'tganimiz kabi usullardan foydalanish mumkin, biroq bu usullar mamlakatimiz sharoitida foydalanish uchun ilmiy asoslanishi shart.

Adabiyotlar:

1. Азизов К.Х., Основы организации безопасности движения. Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2012.

2. "Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси," 2018.

3. "В Узбекистане на 1000 человек приходится 83 автомобиля," 2018. https://www.spot.uz/ru/2018/08/02/avtouzb (accessed Aug. 02, 2018).

4. Галкина Н. Г., "Зарубежный опыт организации парковок," ХНАДУ, 2009.

5. Адилов О. К., Умиров И. И., "Транспортни ҳавфсиз бошқариш кўрсаткичларини баҳолаш," Acad. Res. Educ. Sci., 2020.

6. Папов В.Н., Совершенствование методов организации паркирования легковых автомобилей на улично-дорожной сети городов с использованием теории конфликтных ситуаций. 2007, с. 189.

7. Mamaev G., "Impact on traffic safety of vehicles parked along the street," Sci. Tech. J. NamIET, vol. 5, no. 4, pp. 196–201, 2020.

8. Кодрански М., Герман Г., "Коренной поворот в европейском парковании : от обустройства к ограничению паркомест," 2011.

9. Stieffenhofer K. E., Michael Barton, and Gayah V. V., "Assessing Park-and-Ride Efficiency and User Reactions to Parking Management Strategies," J. Public Transp., pp. 75–92, 2016.

10. Kurek A., "The Use of a Park and Ride System—A Case Study Based on the City of Cracow (Poland)," Energies, 2020, doi: 10.3390/en13133473.

11. Азизов К., Содиков И., "Закономерности движения и паркирования транспортных средств на городских улицах," "Организация и безопасность дорожного движения в крупных городах" Сборник докладов восьмой международной конференции, с. 295–299, 2008.

ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЕР КАДАСТРИ
ГЕОДЕЗИЯ, КАРТОГРАФИЯ, ЗЕМЕЛЬНЫЙ КАДАСТР

УДК 535.5.627

К РАСЧЕТУ НИЖНЕГО БЬЕФА ВОДОСБРОСНЫХ СООРУЖЕНИЙ

Эшев С.С., д.т.н., профессор; **Рахимов А.Р. –** ассистент**; Исаков А.Н. –** ассистент
Каршинский инженерно экономический институт

В статье приведены результаты теоретических и лабораторных исследований нижнего бьефа водосбросных сооружений с учетом воздействия волн и течений, а также приведены основы математического моделирования прилагающего к водосбросу участка береговой зоны.

Ключевые слова: водосброс, волна, течения, деформация, береговая зона, размыв, яма размыва, турбулентность.

Мақолада тўлқинларнинг оқимга таъсири инобатга олинган ҳолда сув ташлаш иншоотларининг қуйи бьефидаги назарий ва лаборатория тадқиқотларини натижалари келтирилган ҳамда сув ташлаш иншоотига тегишли бўлган қирғоқ зонасини математик моделлаштириш асослари келтирилган.

Калит сўзлар: сув ташлаш, тўлқин, оқим, деформация, қирғоқ зонаси, ювилиш, ювилиш чуқурлиги, турбулент.

The article presents the results of theoretical and laboratory studies of the downstream of the spillway structures, taking into account the effects of waves and currents, and also provides the foundations of mathematical modeling of the coastal zone that is attached to the spillway.

Key words: spillway, wave, currents, deformation, coastal zone, erosion, erosion pit, turbulence.

В практике проектирования водосбросов в водохранилища возникает вопрос расчета водосбросных сооружений с учетом наложении волн на течений. Этот фактор влияет на размыва дна, изменения береговой линии и приводит к разным видам деформациям сооружений и водохранилища.

В данной статье на основе экспериментальных исследований авторов и и имеющихся в литературах материалов других авторов исследований предпринялись попытки разработки методик расчета водосбросных сооружений работающих в условиях волн на течений. Целью исследований является вместе с гидравлическим моделированием решать задачу сброса воды в водохранилища и недопущения деформаций прибрежной зоны водотока.

Сначала рассмотрим задачи расчета характеристик растекания струи водосброса в береговой линии. Оценка скоростей по оси струи при симметричном обтекании может быть показано по следующей зависимости[1]:

$$\frac{u_{mx}}{u_o} = 6,4\frac{H_б}{x+a} \qquad (1)$$

где u_{mx} – скорость по оси струи на расстоянии x от створа сброса; u_o- скорость на выходе струи; $H_б$ – бытовая глубина сбросного потока в начальном створе; $a = mH_б$, m - заложение откоса сопряжения водосбросного канала с водоемом.

Для случая сброса течения под косым углом к береговой линии, при котором береговая линия ограничивает растекание струи, сложной конфигурации дна, наличия вдольбереговых течений и т.д., т.е. для случая расчета течения водосброса граничных условиях, оценки скоростей по зависимостям типа (1) являются очень грубыми. Здесь возникает необходимость применения методов вычислительной гидравлики [2]. Существующие математические модели на основе конечно-разностного или конечно-элементного решения двух- или трехмерных уравнений течений позволяют получить с достаточной достоверностью поле скоростей в растекающейся струе с учетом сложных граничных условий.

Отметим, что применение водоскатов сложной формы, гасителей и других сооружение требует гидравлического моделирования нижнего бьефа водосброса. При этом использование расчетных методов дает возможность ограничиться гидравлическим моделированием сооружений нижнего бьефа в укрупненном масштабе.

Знание поля скоростей в растекающейся струе позволяется прогнозировать размыв и отложение наносов в нижнем бьефе. Для расчета ямы размыва существуют различные методики. Например, итерационная методика К.И.Россинского [3], позволяющая определить предельные характеристики размыва сравнением придонных скоростей с не размывающими для данного донного грунта, или зависимость Б. И. Студеничникова [4] для глубины воды в яме размыва:

$$H_р = 1,07^{1.25}\sqrt{\frac{q}{1.15\sqrt{gD^{0.25}}}}, \qquad (2)$$

где q –средний удельный расход струи; D-диаметр частиц размываемого материала.

В случае волн, подходящих фронтом перпендикулярно оси струи, взаимодействие их с течением приводит к трансформации волн на

струи и изменению геометрических и кинематических характеристик растекания струи. При выходе волн на участок, где ощущается действие встречной струи, и затем при распространении на увеличивающихся скоростях встречного течения происходит увеличение высот и уменьшение длин волн. Этот эффект связан с чисто геометрической конвергенцией и работой радиационных напряжений и описан теоретически [5]. Уменьшающиеся глубине берегового откоса вызывают трансформацию волн, накладывающуюся на трансформацию течением. Расчетные зависимости для определения высот и длин волн приведены в работе [6], где показано также, что эти зависимости удовлетворительно согласуются с имеющимися данными лабораторных экспериментов.

При распространении волн на встречном течении с отрицательным скорости возможны эффекты блокировки и обрушения волн на течения. Блокировка или остановка волн течением происходит при равенстве нулю относительной групповой скорости волн и скорости встречного течения:

$$C_{gr} = -u \ . \qquad (3)$$

При этом длина волн минимальна, а высота и крутизна волн максимальна, а высота и крутизна волн максимальны. Оценка длины волн, соответствующей условию блокировки (3), для конечной глубины дана в работе (6), в частного, на глубокой воде в точке блокировки в четыре раза меньше исходной длины волн на подходе к течению.

Для изучения динамики волн в окрестности областей блокировки и обрушения на встречном течении были проведены эксперименты. В лотке с помощью вертикальных жестких стенок создавался раструб с углом расхождения 14^0. В узкий конец раструба подавался расход стационарного течения, к широкому концу подавался расход стационарного течения. К широкому концу подходили волны различных периодов и высот. На рис. 1 показан пример полученных экспериментальных результатов.



Рис.1. Блокировка волн встречным горизонтально-неоднородным течением в опытах (T=1,5 с, H=35 см, Q=285 л/с): 1) h_0 = 5,7 см, течение не; 2) h_0 = 7,8 см, течение ест; 3) h_0 = 5,5 см, течение ест; 4) h_0 = 10,4 см, течение ест.

Условие блокировки волн течением (рис.1) хорошо соответствовало кинематическому предельному условию (3). Волны имели максимальную высоту в точке блокировки, равную 1,2,…2 исходной высоты волн. За область блокировки волны не проникают. Возможно также обрушение волн на встречном течении. Этот эффект пока недостаточно изучен, отсутствуют достоверные оценки условий обрушения. В значительной степени сложность задачи связана с влиянием на обрушение скоростной структуры течения по глубине. А также с взаимосвязью эффектов блокировки и обрушения гравитационных волн. По видимому, достаточно достоверным можно считать, что обрушение на равномерном по глубине встречном течении происходит при меньших крутизне и высоте волн, чем в отсутствие течения.

Обратное влияние волн на струю приводит к увеличению угла свободного растекания струи и перестройке профиля средней скорости струи по глубине. Имеются экспериментальные и теоретические исследования влияния воли на свободно растекающуюся струю. Так, для угла растекания струи получена оценка, хорошо согласующаяся с данными опытов в зоне стабильной струи при 2x/0, 64, b_o -ширина струи в начальном створе [7]:

$$\frac{db}{dx} = \left(\frac{db}{dx}\right)_0 + \left(\frac{db}{dx}\right)' , \qquad (4)$$

где первый член в правой части относится к растеканию в отсутствие воли, а второй представляет собой добавку, определяемую встречными волнами:

$$\left(\frac{db}{dx}\right)' \approx \frac{1/8\rho g h_0^2 u_{mx}}{0{,}122\rho u_{mx}^2 b_0 \left(C_0 - u_{mx}\right)} \ . \qquad (5)$$

Здесь h_0 и C_0 - высота и фазовая скорость волн в отсутствие течения.

Встречные волны вызывают также перестройку эпюры скоростей струи по вертикали. Этот эффект экспериментально замечен давно, существует качественное объяснение соответствующего механизма [6]. Количественное описание перестройки эпюры скоростей течения под действием волн пока отсутствует. При встречных волнах в верхней части струн скорости увеличиваются, а в нижней части струи - уменьшаются. При этом средние по толщине струи продольные скорости соответствуют растеканию с углом, определяемым выражениями (4), (5).

Описанные гидродинамические эффекты изменения элементов волн и кинематики струп водосброса, вследствие взаимодействия волн со струей, приводят, в свою очередь, к изменению транспортирующей способности струи. Рас-

смотрим метод расчета транспортирующей способности потока при наличии встречных волн в схематизированном случае постоянной глубины. Будем считать, что встречные волны приводят к изменению общего расхода наносов за счет двух факторов. Первый - нелинейный волновой перенос массы, второй - придонное волновое течение. Отметим, что волны при достаточной относительной длине способны существенно уменьшать скорости начала трогания наносов. Это может быть важным при наличии в нижнем бьефе водосброса подстилающего галечного слоя.

Если принять обычное предположение, что удельный расход наносов q_s пропорционален мощности потока, то для турбулентного течения

$$q_s \sim u_T^3 , \quad (6)$$

где u_T — придонная скорость.

Для воли на течении представим u_T в виде суммы волновой и стационарной компонент:

$$u_T = u_t + u_s , \quad (7)$$

Во втором приближении теории волн

$$u_t = u_1 \cos\frac{2\pi t}{T_r} + u_2 \cos\frac{4\pi t}{T_r} , \quad (8)$$

где u_1, u_2 — амплитуды соответствующих гармоник; T_r — относительный период волн.

Подставляя выражение (8) в (7) и затем в (6) и проводя осреднение по времени, получим:

$$u_T^3 = \frac{3}{4}u_1^3 u_2 + \frac{3}{2}\left(u_1^2 + u_2^2\right)u_s + u_s^3 . \quad (9)$$

Здесь

$$u_1 = \pi\left(\frac{h}{T_a} - \frac{hu}{\lambda}\right) sh^{-1}\frac{2\pi H}{\lambda} ;$$

и

$$u_2 = \frac{3}{4}\pi^2\left(\frac{h}{T_a} - \frac{hu}{\lambda}\right)\left(\frac{h}{\lambda}\right) sh^{-1}\frac{2\pi H}{\lambda} \quad (10)$$

где T_a, λ - абсолютный период и длина волн; H — глубина; u - средняя по глубине скорость струи. В свою очередь, стационарная компонента скорости u_s представляется в виде:

$$u_s = k\bar{u} + u , \quad (11)$$

где u- скорость придонного волнового течения.

По известной зависимости М. С. Лонге-Хиггинса

$$\bar{u} = \frac{5}{4}\left(\frac{\pi h}{T_r}\right)\left(\frac{\pi h}{\lambda}\right) sh^{-2}\frac{2\pi H}{\lambda} . \quad (12)$$

Если волны на встречном течении не обрушаются, то придонное волновое течение складывается с дефектом скорости основного течения в придонном слое и можно приближенно принять $k = 2$. При обрушения волн придонной волновое течение изменяет направление и можно принять $k = 0$. Таким образом, для области до обрушения волн получим следующую зависимость для придонной волновой скорости:

$$\frac{u_s}{u} = 2{,}5\pi^2\left(-\frac{h}{uT_a} + \frac{h}{\lambda}\right)\left(\frac{h}{\lambda}\right) sh^{-2}\frac{2\pi H}{\lambda} - 1. \quad (13)$$

Подставляя выражение (9) в (6), для удельного расхода наносов получим выражение:

$$q_s = \frac{\alpha}{g}\left[\frac{3}{4}u_1^2 u_2 + \frac{3}{2}\left(u_1^2 + u_2^2\right)u_s + u_s^3\right], \quad (14)$$

где α — коэффициент пропорциональности.

Анализ экспериментов разных авторов с песком различной крупности позволяет сделать вывод о слабой зависимости величины α от волн и течения. Поэтому, нормируя расход q_s на расход q_0 соответствующий только течению, получаем:

$$\frac{q_s}{q_0} = \frac{9}{16}\pi^4\left(\frac{h}{uT_a} + \frac{h}{\lambda}\right)^3\left(\frac{h}{\lambda}\right) sh^{-6}\frac{\pi H}{\lambda} + \frac{3}{2}\frac{u_s}{u}\pi^2 \times \quad , (15)$$
$$\times\left(\frac{h}{uT_a} + \frac{h}{\lambda}\right)^2 sh^{-2}\frac{2\pi H}{\lambda}\left[1 + \frac{9}{16}\pi^2\left(\frac{h}{\lambda}\right) sh^{-6}\frac{2\pi H}{\lambda}\right] + \left(\frac{u^s}{u}\right)^3$$

где u_s / u определяется по формуле (13) в области до обрушения волн; $u_s / u = 1$ после обрушения.

Анализ зависимости (15) показывает, что наложение воли приводит к значительному увеличению величины расхода наносов (рис.2). При крутизнах волн меньше 0,01 расход его, по сравнению со случаем без волн, возрастает приблизительно в 20—30 раз. При большей крутизне воли суммарный транспорт меняет направление и направлен против течения по волнам. В условиях реального водосброса задача расчета транспорта осложняется сложной конфигурацией дна (яма размыва, бар, береговой откос) и отрывом струи водосброса от дна с образованием вихревых и застойных зон. Однако предварительные оценки движения наносов могут быть выполнены по изложенной выше методике.



Рис. 2. Безразмерный расход наносов для встречных волн на течений: —— $H/\lambda = 0{,}1$; ---- $H/\lambda = 0{,}05$

Как уже отмечалось, проектирование водосбросных сооружений должно вестись не только

с учетом функциональных требований водосброса, но и с учетом возможных его влияний на прилегающий участок береговой зоны водоема или водотока. Гидравлическое моделирование в достаточном масштабе всего участка, длина которого может составлять несколько километров, затруднительно. Поэтому здесь необходимо максимальное использование возможностей математического моделирования. Обсудим кратко эти возможности.

В настоящее время имеются вдольбереговых течений и вдольберегового переноса песчаных наносов. Для вдольбереговых течений принимается обычно модель М. С. Лонге-Хиггинса [8], согласно которой вдольбереговое волновое течение в прибойной зоне определяется градиентом радиационных напряжений. Главная компонента тензора радиационных напряжений, определяющая вдольбереговое течение,

$$S_{xy} = F_m \cos\alpha \sin\alpha \ , \qquad (16)$$

где α - угол между фронтом волн и береговой линией; F- поток количества движения в направлении распространения волн.

Для расчета трансформации рефракции поли "а береговом откосе до зоны обрушения применяется обычная лучевая методика, расчет зоны обрушения производится на основании эмпирических зависимостей. Величины вдольберегового численным решением уравнения равновесия сил:

$$\frac{\partial\left(S_{xy}\right)}{\partial x} = \tau_b - \frac{\partial}{\partial x}\left(geH \frac{\partial V}{\partial x} \right), \qquad (17)$$

где ось x направлена перпендикулярно берегу; τ_b - донное сдвиговое напряжение от течения; е - коэффициент обмена количеством движения; V -скорость вдольберегового течения.

Вопрос об определении параметров уравнения (17) обсуждается в [9] и других работах.

Для определения концентрации взвешенных наносов привлекается диффузионная теория. Далее транспорт наносов определяется как соответствующий интеграл произведения скорости на концентрацию. Как показывает сравнение с натурными данными, такая модель эффективна как для условий плоских откосов, так и для условий береговых откосов сложной формы с подводными валами и барами [9].

При использовании на рассматриваемом участке пляже- удерживающих бун, внебереговых волноломов или наличия волнозаградительных молов происходит прерывание вдольберегового потока наносов (полное или частичное). Эволюция береговой линии при этом описывается математическими моделями, основанными на уравнении баланса наносов и позволяющими определить оптимальную компоновку сооружений для конкретных условий [10].

В заключение приведем пример решения компоновки и конструкции водосброса ($Q_{max=}$ 61 м3/с). При определении компоновки сооружений учитывались динамика наносов на прилегающем участке береговой зоны. Конструкция водосброса определялась с учетом влияния встречных воли, которые являются решающим фактором при выборе габаритов сооружения, ограждающих дамб и размеров каменного крепления. Большое внимание при проведении гидравлических исследований на модели было уделено отысканию конструкции и компоновки водосброса, обеспечивающего устойчивое растекание потока и исключение сбойных течений в нижнем бьефе как при наличии, так и отсутствии волнения. Применена эффективная система гашения энергии потока на водобое с использованием прорезной стенки в форме зубьев, что позволило поднять отметку водобоя и таким образом уменьшить объем строительных работ. Рекомендуемый вариант компоновки нижнего бьефа водосброса приведен на рис.3.



Рис.3. Рекомендуемый вариант компоновки нижнего бьефа ($b_k = 9,4\,м, Q = 61\ м^2/с$)

Выводы

1. Оптимальной технологией проведения водосбросов является гибридное моделирований[12], при котором взаимодействие сбрасываемой струи с волнами, а также эволюция прилегающего участка береговой зоны определяются методами математического моделирования, а конструкции сооружений водосброса гидравлического моделирования. При этом результаты математического моделирования используются и в качестве граничных условий для гидравлического моделирования, последнее проводится в укрупненном масштабе.

2. В результате гидравлических исследований разработана оптимальная компоновка водосброса с применением двухсторонних и односторонних рассекателей, обеспечивающих устойчивое растекание потока в нижнем бьефе, и эффективная система гашения энергии потока на водобое.

Литература:

1.Хинце И. О, Турбулентность, ее механизм и теория, М., Физматгиз, 1963.

2. Bengue J.-P., HaiguelA., Viollel P.L. Engineering applications of computational hydraulics, vol. II. Bath, Pitman Press, 1982.

3. Росинский К. И., Дебольский В. К. Речные наносы. М., Наука, 1980

4. Студеничников Б. И., Цветков А. Л. О компоновке строительного водосброса из местных материалов в схеме гидроузла,-В сб.: Научные исследования в области ниженерной гидравлики, Труды института ВОДГЕО, М., 1976, вып. 60, с. 17-22.

5. Longuet -Higgins M. S. Stewa rt R. W. Changes formi of short gravity waves on long waves ang tidal currents.-J. Fluid Mech, 1960, N: 8.

6. Кантаржи И. Г., Ци вцивадзе Н. Ш., Акмурадов Х. А. Гидравлика ветровых воли в каналах. Тбилиси, ТУ, 1984.

7. Is mail N. M., Wiegel R. L. Opposing wave effect on momentunt jets spreading rate.-J. Waterway Port Coast. Ocean Eng., 1983, vol. 109, in the

8. Lo nguet. Higgins M. S. Longslhore currents generated by obliguely incident sea waves, 1 and 2.-J. of Geoph. Res., 1970, vol. 75.

9. Deigaard R., Fredsoe J, Hed egaard 1. B. Malhiematical model for litloral drift.-J, Waterway Port Coasl. Ocean Eng., 1986, vol. 112, N 3.

10. Кантаржи И. Г., Костии В., Масс Е. И. Исследование эволюции береговой линии в зоне влияния поперечных гидротехнических сооружений. — Водные ресурсы, 1986, Ne 4.

11. Лятхер В. М., Прудовский А. М. Гидравлическое моделиролирование. М., Энергоатомиздат, 1984.

UO‘K 625.7

AVTOMOBIL YO‘LLARINING MA’LUMOTLAR BAZASINI YARATISHDA ZAMONAVIY, RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYLARDAN FOYDALANISH

Urokov A.X., техн. фан. док., профессор; **Soataliyev R.R.,** докторант,
Xalimova SH.R. старший преподователь
Тошкент Давлат транспорт университети

Ushbu maqolada avtomobil yo‘llari qoplama ravonligini smartfonlar yordamida turli ilovalar bilan aniqlash imkoniyatlari va O‘zbekiston sharoitida yo‘l ma‘lumotlar bazasinin yaratishning avzallik va kamchilik tomonlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ma’lumotlar bazasi, smartfon, yo‘l qoplamasi ravonligi, TotalPave

В данной статье изучены возможности различных приложений, используемых для измерения ровности дорожного покрытия с помощью смартфонов, а также проанализированы возможности, преимуществ и недостатков для создания дорожной базы данных в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: база данных, смартфон, ровность дорожного покрытия, TotalPave,

This article examines the capabilities of various applications used to measure the evenness of the road surface using smartphones, as well as analyzes the opportunities, advantages and disadvantages for creating a road database in Uzbekistan.

Keywords: data base, smartphone, road roughness, TotalPave.

O‘zbekistonda avtomobil yo‘llari tarmog’i bo‘yicha yuzaga kelgan haqiqiy holat va rivojlanish darajasi yo‘l xo‘jaligining barcha yo‘nalishlariga doir aniq va samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishni, avtomobil yo‘llarini boshqarishda hamda iqtisodiyot va aholi ehtiyojlariga muvofiq, yo‘l tarmog’i holatini sifat jihatidan o‘zgartirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shulardan biri bu avtomobil yo‘lining elektron ma’lumotlar bazasi yaratishdan iboratdir.

Bugungi kunda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda natijalarida O‘zbekiston yo‘l tarmog’i holati bo‘yicha umumiy ma’lumotlarda ta’mirlanmay qolib ketgan yo‘llar umumiy tarmoqning 70-75 % ni tashkil etishi keltirilgan [1, 2, 3]. Lekin avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnik siyosat yurutuvchi tashkilot tomonidan berilgan rasmiy ma’lumotlar tahliliga ko‘ra bu ko‘rsatkich 17 % ni tashkil etadi (1-jadval) [7].

Yuqoridagi kabi bir-biriga qarama qarshi ma’lumotlardan yo‘l tarmog’ining real holati mavhumligini ko‘rish mumkin.

1-jadval

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi ma’lumotlariga asos umumiy foydalanuvdagi yo‘l tarmog’ining holati

Respublika umumiy foydalanuvdagi yo‘l tarmog’i holati	Xalqaro		Davlat		Mahalliy	
	umumiy, km	ta’mirtalab, km	umumiy, km	ta’mirtalab, km	umumiy, km	ta’mirtalab, km
	3981	573	14097	2049	24604	4932
		14%		15%		20%
Jami: 42695 km, shundan ta’mirtalab 7554 km (17 %)						

Bugungi kunda avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni asoslash, samaradorligini oshirish hamda, yo‘l tarmog’iga ajratilayotgan mablag’larni tarmoqning bugungi kundagi talabiga qanchalik mos kelish yoki kelmasligni baholash uchun yo‘l tarmog’ining real holatini o‘zida aks ettiruvchi yo‘l ma’lumotlari bazasiga ehtiyoj ortmoqda. Ushbu

extiyojni qondirish uchun har bir viloyatda ilmiy-tajriba va innovatsiya poligonlarini (1-rasm) tashkil holda ularning moddiy-texnik bazasini zamonaviy ko‘chma laboratoriyalar bilan to‘ldirish zarur.



1-rasm. Respublika hududida tashkil etilishi zarur bo‘lgan ilmiy-tajriba va innovatsiya poligonlari.

Bugungi kunda kompleks ko‘chma yo‘l laboratoriyalari turli ishlab chiqaruvchilar jumladan, AMAC (Vectra, Fransiya), ARAN (Fugro, Kanada), Road Surfase Vehicle (GREENWOOD Engineering, Daniya), Hawkeye 2000 (ARRB, Avstrliya) tomonidan taqdim etilmoqda. Hozirda Respublikamizga olib kirilgan va foydalanilayotgan Rossiya Federatsiyasining STD kompaniyalar guruhi tomonidan taqdim etilayotgan, avtomobil yo‘llarining transport-ekspluatatsion sifatlarini baholashga mo‘ljallangan “TRASSA” kompleks ko‘chma yo‘l laboratoriyasi ham yuqorida keltirilgan ko‘chma laboratoriyalarga alternativ hisoblanadi (2-rasm).

2-rasm. “TRASSA” kompleks ko‘chma yo‘l laboratoriyasi

Ushbu kompleks ko‘chma yo‘l laboratoriyasi yordamida avtomobil yo‘llarining quydagi ko‘rsatkichlarini o‘lchash, baholash va bir vaqtning o‘zida aniqlangan ma’lumotlarni elektron ma’lumotlar bazasiga kirgizib boradi:

- ko‘ndalang noravonlik;
- geometrik ko‘rsatgichlar (bo‘ylama va ko‘ndalang nishabliklar, reja va profildagi egrilar radiusi, balandlik belgilari, ko‘rinish masofasi, bosib o‘tilgan yo‘l uzinligi);
- geografik kordinatalar;
- qoplamaning tishlashish koeffitsienti;
- xalqaro ravonlik indeksi (IRI) bo‘yicha bo‘ylama ravonlik;
- dinamik yuklanuvchi qurilma DINA 4 (FWD) yordamida yo‘l to‘shamasining mustahkamligi;
- yo‘lning jihozlanganlik darajasi;
- yo‘l videobanki;
- xarakat jadalligi va transport oqimining tarkibi.

Yuqorida ro‘yhati keltirilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlangan ma’lumotlar bir vatning o‘zida “TITUL-2005” yo‘l ma’lumotlari bankiga kiritib boriladi.

“TRASSA” kompleks ko‘chma yo‘l laboratoriyasi bugungi kundagi qiymati 400 000 AQSh dollariga teng [8] bo‘lib, 1-rasmda keltirilgan ilmiy-tajriba va innovatsiya poligonlarini kamida 1 dona shu kabi kompleks ko‘chma laboratoriyalar bilan jixozlash uchun 6 x 400 000 = 2 400 000 AQSH dollari miqdorida mablag’ talab etiladi. Albatta ko‘chma laboratoriyalar soni ajratilayotgan mablag’lardan kelib chiqib belgilanadi.

Mablag’lar cheklangan sharoitda yo‘l tarmog’i holatini resurs tejamkor usullardan foydalanib baholash va ma’lumotlar bazasini yig’ish imkoniyati bugungi kunda mavjuddir [4, 5]. Bunda asosiy vosita sifatida kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan “smartphone” lardan foydalanish mumkin. Buning uchun “smartphone” ga Google Play Market orqali ushbu bepul ilovalardan biri yuklanadi: RoadBump, rRuf, RoadBounce, iRoad, BumpRecorder, TotalPave [7].

Ushbu ilovalar va smartphone yordamida qisqa muddatda keng ko‘lamdagi ma’alumotlarni olish mumkin.

Mualliflar tomonidan yuqorida keltirilgan mobil ilovalardan birida ya’ni TotalPave da Toshkent shaxar ko‘chalarida dastlabki sinov ishlari olib borildi va quyidagi natijalarga erishildi (3-rasm).

3-rasm. TotalPave ilovasi yordamida Toshkent shaxar markaziy ko‘chalari holatini baholash natijalari.

O‘tkazilgan sinovlar natijasida olingan ma’lumotlar xaritada va bir vaqtning o‘zida ma’lumotlar bazasida ko‘rinadi (4-rasm) [6].

Xalqaro ravonlik indeksi (IRI) umum qabul qilingan va avtomobil yo‘lining asosiy tavsiflovchi ko‘rsatkichi bo‘lganligi sababli TotalPave va shu kabi ilovalar avtomobil yo‘llarinig ravonligini xalqaro ravonlik indeksi orqali baholaydi va uni yig’ilgan GPS kordinatalar vositasida qurilgan trekga bog’laydi. Ushbu ma’lumotlarning yig’ilishi

natijasida yo‘l tarmog’ining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettirgan raqamli xaritasi paydo bo‘ladi.



4-rasm. TotalPave ilovasi yordamida aniqlangan sinov natijalarinin ma’lumotlar bazasidagi ko‘rinishi.

1-jadval

Yo‘l qoplamasi ravonligini o‘lchash sinflari

Qurilmalarning sinfi	**O‘lchashga talablar**	**Qurilmalarning sinfi**
1-sinf: o‘lchash aniqligi o‘ta yuqori profilometrlar	Juda yuqori aniqlikda o‘lchash standarti Yo‘l qoplamasi yuzasining bo‘ylama profilini aniq o‘lchash va IRI qiymatini hisoblashni talab etadi. 320 metrda 2 % xatolik. Qoplamali yo‘llarning XRI bo‘yicha takroriylik qiymati 0,3 m/km Barcha yo‘llarning XRI bo‘yicha takroriylik qiymati 0,5 [m/km]	Face Technology dipstick, yuqori aniqlikka ega nivelir va uning reykasi, ROMDAS Z-250, ARRB profilometrlari
2-sinf: aniqligi yuqori bo‘lgan profilometrlar	Yo‘l qoplamasi yuzasining bo‘ylama profilini o‘lchash va XRI bo‘yicha baholashni talab etadi.1-sinf aniqlik darajasiga ega bo‘lmagan profilometrik qurilmalarni o‘z ichiga oladi.	Dynatest 5051 modelli lazer profilometr, Fransiyaning APL profilometri, Shvetsiyaning RST lazerli profilometri
3-sinf: avtomobilning vertikal tebranishi orqali qoplama ravonligini XRI bo‘yicha o‘lchash qurilmalari	Yo‘l qoplamasi yuzasining bo‘ylama profilini o‘lchash talab etilmaydi. Transport vositalarining yo‘l qoplamasi noravonligi ta’sirida tebranishi orqali ravonlikni baholash qurilmalarining barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Qurilmalar ma’lum yo‘l uchastkasida o‘lchangan XRIning aniq qiymatiga bog’liq holatda kalibrlanadi.	Roadmaster, ROMDAS, ARRB zarba o‘lchagichlari, TRL Bump Integrator, VIMS
4-sinf: qoplama ravonligining subyektiv darajalari va kalibrlanmagan qurilmalar	Qoplama ravonligini subyektiv baholashni o‘z ichiga oladi. Yo‘ldan foydalanuvchilar tomonidan berilgan bahoga asoslangan.	Vizual baholash

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda [8] qoplama ravonligini aniqlashda qo‘llaniladigan qurilmalarning sinflari keltirilgan bo‘lib, smartfonlar yordamida qoplama ravonligini aniqlash usuli 3-sifga kiradi.

Yuqoridagi tahlillar va o‘tkazilgan sinov natijalarini inobatga olib quyidagi xulosalarga kelindi:

- bugungi kundagi yo‘l tarmog’ining transport-ekspluatasion holatining mavhumligi butun tarmoq holatining baholash imkonini beruvchi raqamli yo‘l ma’lumotlar bazasini shakllantirish zaruriyatini tug’dirmoqda;
- mavjud tarmoq holati bo‘yicha ma’lumotlar bazasinig mavjud emasligi, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar hajmi va sarflanadigan mablag’lar miqdorini hisobga olib ishlarni bosqichma bosqich tizimli tashkil qilish;
- yo‘l ma’lumotlari bazasini shakllantirishda TotalPave va shu kabi resurs tejamkor texnologiyalarda foydalanish imkoniyatlarini baholash;
- yaratilgan yo‘l ma’lumotlar bazasi yordamida yo‘l tarmog’ holatini yaxshilash bo‘yicha chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Adabiyotlar:

1. Sadikov I.S. and Urakov A.Kh. (2018) "SYSTEM APPROACH TO IMPROVEMENT AND ARRANGEMENT OF AUTOMOTIVE ROADS," The Scientific Journal of Vehicles and Roads: Vol. 2018 : Iss. 2 , Article 14.

2. Aslidin Uroqov, Raximjon Soataliyev, "Use of express methods in evaluation degree of compaction subgrade (in case of terratest 5000 BLU LWD)" The Scientific Journal of Vehicles and Roads: Vol. 2019 : Iss. 1 , Article 7.

3. Aslidin Uroqov, Raximjon Soataliyev (2020) “Intellectual compaction” system in construction of roads and possibilities of its use in Uzbekistan The Scientific Journal of Vehicles and Roads: Vol. 2020 : Iss. 2 , Article 9.

4. Sodikov J I and Silyanov V V 2015 Road asset management systems in developing countries: Case study in Uzbekistan Sci. J. of Transportation 6 (Moscow–China–Vietnam) Retrieved from: https://www.researchgate.net/ publication/272415247_road_asset_anagement_systems_in_developing_countries_case_study_uzbekistan

5. Sodikov J, Tsunokawa K and Ul-Islam R 2005 Road Survey with ROMDAS System: A Study in Akita Prefecture Saitama University Departmental Bull. Paper 149–51

6. Raximjon Soataliyev, IRI measurement results using TotalPave http://dx.doi.org/10.13140/RG.2.2.36715.05928

7. Уроков А.Х., Соаталиев Р.Р., “Возможности измерения и визуализации ровности покрытия автомобильных дорог на основе смартфонов в Узбекистане” Сборник международной научно-технической конференции “Транспорт: актуальные задачи и инновации”. 2021 г.

8. Abduvokhid Yunusov, Sulaymon Eshkabilov, Davron RISKALIEV, Nurmukhammad Abdukarimov, “Estimation and evaluation of road roughness via different tools and methods” transport problems 2019 XI international conference.: pp 770-783

9. https://www.uzavtoyul.uz/uz/page/avtomobil-yollarining-holatini-ko-rsatuvchi-ochiq-elektron-xaritasi.html

UDK: 528.428

АЙЛАНАСИМОН ИНШООТЛАРНИНГ ФАЗОВИЙ ҲОЛАТИНИ АНИҚЛАШДА, ИНШООТ РАДИУСИНИ АНИҚЛАШНИ ФОТОГРАФИК УСУЛИ ТЎҒРИСИДА

Назаров Б.Р., доцент; **Юлдашев А.О.** катта ўқитувчи
Тошкент архитектура қурилиш институти

Мақолада рақамли фотокамера ёрдамида фотографик усул билан айланасимон иншоотнинг радиусини аниқлашнинг назарий асоси кўрилди. Иншоот радиусни ҳисоблаш учун формулалар чиқарилди ва аниқликни баҳолаш амалга оширилди ҳамда мисоллар келтирилди.

Калит сўзлар: фотографик усул, радиус, рақамли фотокамера, нивелирлаш рейка, суратни масштаблаш, хатолик.

В статье представлены теоретические основы определения радиуса круговой конструкции фотографическим методом с помощью цифровой камеры. Разработаны формулы для расчета радиуса конструкции, оценена точность и приведены примеры.

Ключевые слова: фотографический метод, радиус, цифровая камера, нивелир, масштабирование изображения, погрешность.

The article discusses the theoretical foundations for determining the radius of circular structures using a photographic method using digital cameras. Formulas for calculating the radius are derived and the accuracy is assessed. Examples are given.

Key words: photographic method, radius, digital camera, leveling rod, image scaling, error.

Танаси айлана шаклга эга бўлган масалан, мўри ва вентиляцион қувурлар, градирни, ректификацион колонналар, грануляционли миноралар, шахта устига ўрнатилган копрлар, радиотелевизион антенна устунлари, биноларнинг колонналари, турли резервуарлар, тарихий ёдгорликлар гумбазлари ва х.о. иншоотларнинг геометрик параметрларини аниқлашда радиусларни аниқлаш зарурати туғилади. Булардан ташқари, иншоот марказининг координатасини аниқлашда радиус зарурдир.

Айланасимон иншоотларнинг радиусларини аниқлашнинг турли усуллари мавжуд, жумладан чизиқли, чизиқли–бурчакли, координатали [1, 2, 3], шу жумладан ТАҚИ "Геодезия ва кадастр" кафедрасида ишлаб чиқилган шахсий компьютер билан мос келадиган рақамли фотокамерани қўллаш орқали фотографик усул. Ушбу усуллар иншоотгача бўлган горизонтал d масофани ўлчаш ва бир вақтнинг ўзида маълум бир $Ф_1$ нуқтадан иншоотга горизонтал ҳолатда ўрнатилган нивелирлаш рейкаси билан суратга олишни кўзда тутади (1–расм).

Масалан, ArchiCAD дастури ёрдамида суратдаги 1–2 = 2h уринма узунлигини ўлчаб, иншоот радиусини ҳисоблаш ммкин:

$$R = \frac{h}{\sqrt{1-\frac{1}{n^2}}}, \qquad (1)$$

бу ерда n –$Ф_1O$ = d +R масофада радиусни жойлаштириш сони.

O_1 даги эмас, балки 3 нуқтада жойлашган нивелирлаш рейкаси бўйича олинган суратни масштаблаш учун 2c рейка узунлигига 2п тузатмани киритиш лозим, у қуйидаги формула орқали ҳисобланади:

$$п = c\frac{n-1}{n^2-1}. \qquad (2)$$



1–расм. Фотографик усул билан иншоот радиусини аниқлашга оид схема.

Ушбу усулнинг камчилиги n сонини билиш зарурати ва 2п тузатмани метрик миқдоридан пикселларга ўтишдаги мураккаблиги ҳисобланади. Агар уриниш нуқтасининг ҳолатини аниқлаш имкони бўлса, буни бартараф этиш мумкин.

Сўнгра, рейкани 1–2 уринма бўйлаб жойлаштириб, уни $Ф_2$ нуқтадан суратга олинади. Биринчи суратда 1–2 уринмага тўғри келувчи пикселлар миқдорини, иккинчи суратда эса – рейка узунлигига тўғри келувчи пиксселлар миқдорини ўлчаб метрик ўлчов системасида $0_1 2 = h$ ни бевосита мниқлаш мумкин. Бу ҳолда R радиусни фақат d ва hларнинг қийматлари бўйича қуйидаги кетма-кетликда аниқлаш мумкин.

Олдин d ва h ларни маълум қийматлари бўйича $t^2 = d^2 - h^2$. Сўнгра (3) формула бўйича p, q ва D ёрдамчи миқдорлар ҳисобланади:

$$p = -\frac{1}{2}\left(\frac{1}{12}\frac{t^4}{d^2} + h^2\right)$$

$$q = \frac{1}{2}\left(\frac{1}{3\times 6^2}\,\frac{t^2}{d^2} + \frac{h^2t^2}{6d} - \frac{dh^2}{2}\right),$$

$$D = q^2 + p^3. \qquad (3)$$

(4) формула бўйича u , v ва уларни y йиғиндиси ҳисобланади:

$$u = \sqrt[3]{-q+\sqrt{D}}.v = \sqrt[3]{-q-\sqrt{D}}, y = u + v \qquad (4)$$

Ва, якунда , (5) формула бўйича R радиус қиймати топилади:

$$R = y - \frac{t^2}{6d}. \qquad (5)$$

Таклиф қилинган методикани текшириш ва уни ишлаш чегараларини анилаш мақсадида тегишли моделлаштириш амалга оширилди. Моделларсифатида шартли бирликда айлананинг 2, 5 ва 10 радиуслари қатнашди. Турли d масофалар учун худди шундай шартли бирликларда тегишли h кесмалар аниқланди. Олинган натижалар 1-жадвалда келтирилди.

1-жадвал

d ва h қийматлар бўйича моделлаштириш натижалари

d	h	p	q	D	u	v	y	R
2	1,73	–1,00	–1,37	0,86	1,3199	0,7612	2,08	2,00
4	1,89	–1,46	–2,51	3,19	1,6253	0,8976	2,52	2,01
6	1,94	–2,06	–3,24	1,82	1,6619	1,2373	2,90	2,00
5	4,33	–6,29	–21,47	211,90	3,3029	1,9053	5,21	5,00
10	4,71	–9,08	–38,89	764,87	4,0524	2,2398	6,29	5,00
15	4,84	–12,82	–50,38	428,50	4,1423	3,0961	7,24	5,00
16	4,86	–13,73	–51,71	83,91	3,9337	3,4911	7,42	5,00
10	8,66	–25,17	–171,79	13561,62	6,6057	3,8107	10,42	10,00
20	9,42	–36,31	–311,15	48951,74	8,1048	4,4797	12,58	9,99
30	9,68	–51,30	–403,02	27423,98	8,2847	6,1921	14,48	10,00
32	9,71	-54,88	-412,46	4873,44	7,8421	6,9976	14,84	10,00

Ушбу жадвалдаги маълумотлар d нинг қиймати $3R$ дан ошмаса, (3, 4, 5) формулалардан фойдаланиш мумкинлиги кўрсатади. Акс ҳолда D миқдор манфий бўлади, бу вақтда (4) формуладаги каби ундан квадарат илдиз чиқариш зарур.

Ушбу усулнинг камчиликларига 1 ва (ёки) 2 уриниш нуқталарини аниқлаш ҳамда $Ф_1$ ва $Ф_2$ иккита нуқтадан суратга олишни амалга ошириш зарурати мавжудлигини айтиш мумкин (1–расм).

Бу камчиликларни бартараф этиш учун d масофани ўлчаш ва иншоотни фақат битта $Ф_1$ нуқтадан суратга олиш билан чегараланиш билан бартараф этиш мумкин (1–расм).

Энди, ЧЎ кесма метрик системадан аниқланса, унда β бурчакни ҳисоблаш ва кузатилаётган кесим R радиусини топиш мумкин:

$$\beta = arctg\left[(\text{ЧЎ})/2d\right],\ R = \frac{dsin\beta}{1-sin\beta}. \qquad (6)$$

Агар 1–2 уринмани пикселлардаги миқдорини, метрдаги рейка узунлигини пикселлардаги рейка узунлигига кўпайтирилса, унда ЛПни метрда тақрибий қийматини олиш мумкин.



2–расм. Иншоотни битта нуқтадан суратга олиш йўли билан радиусни аниқлашга оид схема.

2–расмдаги схемага мувофиқ, d масофа ошганда β бурчак камаяди, 1–2 уринма кесим диаметрига яқинлашади, ЧЎ кесма эса 1–2 уринма миқдорига яқинлашади. Шунинг учун, R аниқлаш талаб қилинган аниқлигини таъминлаш учун шундай d' масофани аниқлаш керакки, унда радиусни аниқлаш хатолиги d ва ЧЎларни аниқлаш хатолигидан ошмасин.

Тадқиқот натижасида аниқландики, яъни d масофа ошиши билан R радиусни аниқлаш аниқлиги ошади, бу 3–расмдаги графикларда яққол ўриниб турибди. Бу графикларда $m_{\text{чў}} = m_d = m = 5, 10, 15$ мм ларни аниқлашдаги хатоликларга мос келадиган эгри чизиқлар ифодланган.



3–расм. m_d ва m_β хатоликларга m_R хатоликни боғлиқлик графиги

Ушбу графиклардан кўриниб турибдики, n=5 бўлгандан бошлаб ва ундан кўп бўлганда, радиусни аниқлаш m_R хатоси d масофасидан қатъий назар амалда бир хил бўлиб қолади.

Иншоотлар радиусларини аниқлашнинг таклиф қилинайтган усуллари мўри қувурини, унга нивелирлаш рейкасини горизонтал ҳолатда қўйиш орқали суратга олиш йўли билан синаб кўрилди. Олинган маълумотлар айланасимон иншоотларнинг радиусини аниқлашда суратга олиш (фотографик)усуллардан фойдаланиш имкониятини тасдиқлади.

Адабиётлар:

1. Шеховцов, Г. А. Фотографик усул билан айланасимон иншоотлар радиусини аниқлаш / Г. А. Шеховцов, Р. П. Шеховцова, Ю. Н. Раскаткин // Саноат хавфсизлиги – 2012: Мақолалар тўплами. / Нижний Новгород, – 2012. –46–49 бетлар.

2. Шеховцов, Г. А. Инженерлик иншоотлар деформациясини аниқлашнинг замонавий геодезик усуллари [Матн]: монография / Г. А. Шеховцов, Р. П. Шеховцова;– Нижний Новгород: ННГАСУ, – 2014. – 255 бетлар.

3. Шеховцов, Г. А. Айланасимон иншоотлар радиусини аниқлашни янги усуллари / Г. А. Шеховцов, Р. П. Шеховцова, Ю. Н. Раскаткин // Приволжья илмий журнали /– Нижний Новгород. 2015. – №1. –131–137 бетлар.

СУВ ОМБОР ТУҒОНЛАРИ ДЕФОРМАЦИЯСИНИ КУЗАТИШДА СУНЪИЙ ЙЎЛДОШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ

Абдурахмонов С.Н. – (PhD), доцент
Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислик институти
Бердиев Д.Ф. – ўқитувчи; **Ашуров И.Р.** – магистрант; **Ҳусинов З.** ва **Бойманов Ш.** - талаба
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Мақолада Республикамиздаги сув омборлари тўғонларнинг горизонтал ва вертикал силжишини йўлдошли кузатув методлари ёрдамида кузатиш ва олинган натижаларини таҳлил қилиш методикасини яратиш, бу методикани илмий асослаш ҳамда амалиётга татбиқ этиш масалалари келтирилган.
Калит сўзлар: Тўғон, деформация, GPS, гидротехник, ГНЙТ, йўлдошли технология, ГЛОНАСС, NAVSTAR GPS, референц, WGS-84.

Статья посвящена разработке методологии мониторинга и анализа результатов горизонтального и вертикального перемещения плотин с использованием методов спутникового мониторинга, научному обоснованию и применению этого метода на практике.
Ключевые слова: плотина, деформация, GPS, гидравлика, GNYT, спутниковая техника, ГЛОНАСС, NAVSTAR GPS, референц, WGS-84.

The main purpose of the article is to create a method of observation and analysis of the results obtained by using satellite monitoring methods of horizontal and vertical Silge of dams of water reservoirs in the Republic, scientific justification and application of this method in practice.
Keywords: dam, deformation, GPS, gidrotechnik, GNYT, satellite technology, GLONASS, NAVSTAR GPS, references, WGS-84.

Кириш. Бугунги кунда мамалакатимизда кўпгина мураккаб гидротехник иншоотлар, шу жумладан сув омборлари мавжуд бўлиб уларнинг вазифаси қишлоқ хўжалиги ва саноат эҳтиёжини сув билан таъминлаш ҳамда электр энергия ишлаб чиқаришдан иборат. Ушбу иншоотлардан фойдаланиш жараёнида уларни хавфсиз ишлашини таъминлаш, яъни деформациясини геодезик кузатиб бориш муҳим аҳамиятга эга.

Геодезик ўлчашлар натижалари бўйича деформация параметрларини оптимал баҳолаш масаласи муҳим аҳамият касб этади. Лекин, шуни таъкидлаш жоизки, бугунги кунда деформация параметрларини GPS технологиясини қўллаб аниқлаш самарасини ошириш етарли даражадаги ижобий мақсадли ишларни олиб бориш имконини беради. Шу боис замонавий асбоблар ва усулларда ушбу ишларни ҳал этиш муҳим ва долзарб ҳисобланди.

Асосий қисм. Гидротехник иншоотлар (гидроэлектростанция, тўғонлар)нинг таянч ва маҳкамловчи қисмлари муҳандислик нуқтаи назаридан заиф бўлади ҳамда кўпинча сув босими уларга таъсир ўтказади. Сув босими, табиий таъсирлар ҳамда иншоотларнинг барқарор бўлмаган асоси натижасида қурилма ёки унинг алоҳида қисмлари деформация (ўзгариш)га учраши мумкин. Меъёридан ортиқ ўзгаришлар эса иншоотларга зарар етиши ва ҳатто уларнинг бузилиши ҳолати юзага келиши мумкин. Шунинг учун гидротехник иншоотларни кузатиш ва уларнинг мониторингини ўтказиш муҳим саналади [1, 79-б].

Иншоотлардаги ўзгаришлар, уларнинг барқарорлиги ва хавфсизлигини кузатиш ва баҳолаш натижалари мутахассисларга иншоотларни қуриш ва уларни таъмирлаш жараёнини ишончли ва хавфсиз ташкил қилиш имконини беради. Ҳозирги кунда бу методларнинг энг самаралиси йўлдошли кузатув методи саналади, чунки бу метод бошқаларидан координата нуқталарни аниқлашда аниқлиги, тезкор ва қулайлиги билан ажралиб туради.

Муҳандислик қурилмаларининг ўзгаришини назорат қилишда глобал навигацияли йўлдош тизим (ГНЙТ)ларни қўллашга қизиқишнинг ортиши бундай тизимларнинг аниқлиги, тезкорлик ҳамда автоматлаштирилганлик даражаси билан изоҳланади.

Янги ташкил қилинаётган кузатишларда йўлдошли технологиялар анъанавий геодезия воситаларини (теодолит, нивелир ва бошқалар) қўллашга асосланган мониторинг технологияларининг асосий қисми ўрнини эгаллаши мумкин [4, 86-б]. Анъанавий геодезик мониторинг технологияларида ишлар унумдорлигини пастлиги, иш жараёнининг автоматлаштирилмагани, обҳавонинг ишга таъсири каби камчиликлар ҳам йўлдошли технологиялар асосида бартараф этилиши мумкин. Йўлдошли технологиялар бундай

камчиликлардан ҳоли саналади.

Иншоотнинг фойдаланиш даврида ўлчашларни даврий бажариш чўкиш суратига боғлиқдир: йилнинг чорагида, ярим йилда ёки бир циклда ўтказилади.

Гидроэлектростанциялар тўғонларидаги деформацияларни кузатишда замонавий йўлдошли технологияларни самарали қўллаш билан боғлиқ масалаларни ҳал қилиш учун қуйидаги вазифалар тадқиқ қилинади (1-расм):

1-расм. Тўғонлардаги деформацияларни кузатишда замонавий технологияларни қўллаш схемаси.

Келтирилган тўғонлардаги деформацияларни кузатишда замонавий технологияларни қўллаш схемани қуйидагича тавсифлашимиз мумкин:

- сув омборлари тўғонларини анъанавий методлар асосида олинган қиймат ўлчамлари натижалари ва шу натижаларга кўра таянч нуқталар барқарорлиги таҳлили олиб борилади;
- сув омборлари тўғонларини ҳозирги вақтдаги замонавий методларда яъни йўлдошли кузатув методлари асосида олинган қиймат ўлчамлари натижалари ва шу натижаларга кўра таянч нуқталар барқарорлиги таҳлили олиб борилади;
- сув омборлари тўғонларини горизонтал сурилишини замонавий методларда яъни йўлдош навигацияли ўлчаш усуллари асосида ишлаб чиқилади ва натижалар таҳлил қилинади;
- кузатиш маркалари координаталарини GPS йўлдошли системадан ясси системага ўтказиб ҳисоблаш ишлари амалга оширилади;
- сув омборлари тўғонларини деформация қийматларини ҳисоблашни дастурий таъминоти ишга туширилади ва аниқлиги юқори натижаларга эришилади.

Кузатув натижаларини баҳолаш мутахассис геодезист учун энг мураккаб вазифалардан бири ҳисобланади. Бурчак, оралиқ ва оғишларни анъанавий методлар билан кузатишга қараганда йўлдошли технологияларда бу айниқса, муҳим саналади, чунки бу методда кузатиш техникасининг ўзи очиқ физик омил сифатида намоён бўлмайди. Геодезист тўлиқ ускуналар асосида ўлчамларга эга бўлиши, бунда эса шу ускуналарнинг тўғри ишлаётганига шубҳа қолмаслик ҳамда улар маълум талабларга жавоб бериши лозим [2, 96-б].

Сўв омборлари тўғонлари йирик ва мураккаб гидротехник иншоот бўлгани сабабли фойдаланиш жараёнида мустаҳкамлиги таъминланиши лозим. Акс ҳолда катта муаммоларга, ҳаттоки фалокатларга олиб келиши мумкин. Тўғонлар мустаҳкамлигини таъминлаш учун уларни тизимли геодезик кузатишлар олиб бориш билан чўкиши ва горизонтал сурилиши миқдорини аниқлаб бориш муҳим аҳамият касб этади. Бунда асосий мақсад олинган натижаларни аниқлиги, ишончлилиги ва ўлчашларни тезкор бажарилишини таъминлашга қаратилиши зарур.

Тўғонларни кузатиш ишларида, асосан йўлдошли технологияларни қўллаш гидротехник иншоотлар деформацияларини мустақил тарзда баҳолаш имконини беради, анъанавий мониторинг технологияларини назорат қилади, бошқа технологиялар ёрдамида аниқлаш мумкин бўлмаган ўзгаришларни аниқлаш имконини беради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, тўғонларнинг силжиши ҳамда чўкишини йўлдошли кузатув методлари ёрдамида олинган натижаларини таҳлил қилишнинг замонавий усули асосида илмий асослаш ҳамда амалиётга татбиқ этиш ижобий натижалар беришига асос бўлади. Геодезик ўлчашлар натижалари бўйича вертикал ва горизонтал силжишларни ишончли ва самаралилигини оширишга имкон берадиган GPS технологияси асосида деформацияни кузатиш услуби ва натижаларини ишлаб чиқилиши доимий равишда деформацияни кузатиш имконини беради.

Адабиётлар:

1. Антонович К.М., Использование спутниковых радио навигационных систем в геодезии. Т. 1, 2. - М: ФГУП, 2006.
2. Лобанов А.А., Михелев Д.Ш. Разработка методики наблюдений за осадками инженерного сооружения геодезическими методами. Учебное пособие. М.: МИИГАиК, 2009.
3. Мубораков Ҳ. ва бошқ. Олий геодезия. – Тошкент.: Чўлпон, 2014.
4. Abdurakhmonov S, Abdurahmanov I, Murodova D, Pardaboyev A, Mirjalolov N, Djurayev A. Development of demographic mapping method based on gis technologies. InterCarto, InterGIS. 2020;26:319-328. doi:10.35595/2414-9179-2020-1-26-319-328.
5. Choriev J, Muslimov T, Abduraupov R, Khalimbetov A, Abdurakhmonov S. Fundamentals of developing and designing portable weirs for farmlands. IOP Conf Ser Mater Sci Eng. 2020;869(7):072023. doi:10.1088/1757-899X/869/7/072023.

УДК 528.94:371.673.001.76.

ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРНИ КАРТАЛАШТИРИШДА ГЕОГРАФИК АХБОРОТ ТИЗИМЛАРИ

Бердиев Д.Ф., ўқитувчи; **Абдирахматов Н.А.,** ўқитувчи
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Ҳозирги кунда космик ва аэросуратларни кенг фойдаланилган ҳолда аниқлик даражаси юқори бўлган электрон рақамли карталарни яратиш технологияси йўлга қўйилиши бу соҳада ишлар такомиллаштирилишига кенг кўламда ёрдам беради. Уларни яратишда замонавий ГАТ технологиялардан фойдаланиш кутилаётган натижаларни самарали бўлишига ёрдам беради десак муболаға бўлмайди.

Калит сўзлар: рақамли карталар, ГАТ технологиялар, космик ва аэросуратлар, самарадорлик.

Внедрение технологии высокоточных электронных цифровых карт, которая сейчас широко используется в космической и аэрофотосъемке, внесет большой вклад в улучшение работы в этой области. Без преувеличения можно сказать, что использование современных технологий GAT при их создании поможет сделать ожидаемые результаты более эффективными.

Ключевые слова: цифровые карты, технология GAT, космическая и аэрофотосъемка, эффективный.

Бугунги кунда мамлакатимиз аҳолисини карталаштиришда, албатта аҳолини барча соҳалардаги динамикаларини статистик маълумотларга таянган ҳолда алоҳида-алоҳида картага тасвирлашни тақоза этилади. Бунда, карта орқали бериладиган маълумотлар аниқликни ва карталарни ўқувчига ўқишни осонлаштиришда карталарни янги авлодини яратиш учун замонавий дастурларлардан фойдаланиб ишлаш зарур деб ҳисоблаймиз.

Маълумотларни карталарга киритишда йиғилган статистик маълумотларга асосланиб шуни башорат қилиш мумкинки, Ўзбекистоннинг меҳнатга лаёқатли аҳолиси сони 2030 йилга бориб 20 фоизга ошиб, қарийб 22 миллион кишига етади. Бу ҳақда Жаҳон банки ва Германия халқаро ҳамкорлик жамияти томонидан тайёрланган маърузада маълум қилинган. “Иқтисодий фаол аҳоли улуши ўсишининг суръати ҳозирги кўрсаткичда сақланиб қолинадиган бўлса, 2030 йилга бориб Ўзбекистон меҳнат кучига яна 3,9 миллион киши қўшилади”, - дейилади маърузада. Шунингдек, аҳоли карталарининг автоматлашган тизимини халқ хўжалигига тадбиқ этиш эса – объектларнинг, ижтимоий-иқтисодий, хўжалик, ҳуқуқий, табиий, маълумотларни йиғиш, таҳлил қилиш, баҳолаш, тақдим этиш жраёнларини тезлаштириб, истеъмолчиларни тезкор, ишончли ахборотлар билан таъминлайди. Дунё аҳолиси тез кўпайиб борётганлиги ҳам ҳеч кимга сир эмас. 2015 йилда дунё аҳолиси 7,3 миллиард кишидан ошди. Дунёда йилига аҳоли 90-100 миллион кишига кўпаймоқда.

Тарихга назар ташласак аҳолининг 2 баравар кўпайиши учун 1-марта 630 йил, 2-марта 250, 3-марта 40 йил, 4-марта эса 2 баробар кўпайиши учун 14 йил керак бўлган. Аҳоли ер шарида сўнгги вақтда йилига 135-137 млн бола туғилмоқда, 53-55 млн киши ўлмоқда. Табиий ўсиш миқдори 82-84 млн кишини ташкил қилмоқда. Ҳозирда ГИС асосида аҳолини ўрганиш ишлари муваффақиятли амалга оширилиб келинмоқда. ГИСда ишланган карта ва планларни чегараси янада мукаммаллашиб сифати ҳам ошиб бормоқда (1- расм).

Мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий ислоҳатларни чуқурлаштириш ва уларни янада ривожлантириш аҳоли билан боғлиқ муаммоларни атрофлича илмий асосда тадқиқ этиш ва шу ўринда республикамизнинг демографик ривожланишида ҳам ўтиш даври ҳолатини ўрганиб карталаштиришда География ахборот тизимлари (ГАТ) нинг долзарблигини алоҳида таъкидлб ўтиш лозим.



1-расм. Демографик жараёнларни географик ахборот тизимлари ёрдамида карталаштирилган кўриниши (диограммалар билан).

Ҳозирги пайтда фойдаланиш соҳаларининг кенглиги жиҳатидан ГАТнинг тенги йўқ. У навигация, транспорт, қурилиш, геология, ҳар-

бий ишлар, иқтисодиёт, экология ва бошқа соҳаларда кенг фойдаланилмоқда. География ахборот тизимлари картографияда, геодезияда ва бошқа турли соҳаларда кенг қўлланилмоқда, чунки катта ҳажмдаги статистик ва фазовий матнли, графикли ва бошқа кўринишдаги маълумотларни қайта ишлаш ва уларни тасвирлаш ГАТ тизимисиз мумкин эмас. Инсониятлар ҳаётида карта яратиш ва ундан фойдаланиш муҳим ўринни тутади. Бизнинг давримизнинг яқин ўтмишигача, яъни 2000 йилгача мамлакатимзда карта яратиш эски услубда яратилиб келинган. Бу ишларни бажаришда бутун бошли чизмачилар ва ҳисобчилар гуруҳи карта яратиш билан банд бўлиб, бу ишлар кўп вақт ва катта маблағ талаб қилинган.

Бугунги кунга келиб халқ хўжалигининг барча тармоқларида компюьтер технологиялардан кенг фойдаланилмоқда. Жумладан, электрон карталар - компюьтер технологиялари ёрдамида махсус дастурлар асосида аниқлиги юқори, сифатли, вақт борасида тез, иқтисодий тежамкор картографик маҳсулотдир. Умуман карталар яратилишида, бугунги кунда илмий тадқиқотлар ва амалий фаолиятда кўплаб ГИСлар ишлатилмоқда. Жумладан, Atlas Gis, Geo Draw, Geo Graph, Win Gis (АҚШ), ArcInfo, MapInfo (АҚШ) ва бошқа дастурларни келтириш мумкин.

Лекин фойдаланувчига маълумотни фақатгина 2 ўлчамли тасвирлар орқали оддий қилиб етказиб беришнинг ўзи кифоя қилмайди. Ҳозирги пайтда географик маълумотга бўлган талаб ортмоқда ва маълумот кўринишида турлича (видео, 3 ўлчамли, ва ҳ.к) бўлишини тақоза этмоқда. Бу муаммони ГИС ва мултимедиа техналогиялари ўзоро бирлаштириш орқали эришиш мумкин. Мултимедиа орқали алоқа матн, график, анимация ва видео орқали амалга оширилиши мумкин. Ривожланишга ҳисса қўшаётган яроқли юқори қийматга эга бўлган аҳоли электрон карталарини яратишда картага тушириш услубини такомиллаштириш керак. Жумладан, легендани ишлаб чиқиш, махсус мазмунни такомиллаштириш, генерализация жараёнларини олиб бориш, тасвирлаш усулларини танлаш, жиҳозлашдаги ишларни қайта кўриб чиқиш ва ҳ.к.

Халқ хўжалиги учун аҳолини ижтимоий-иқтисодий нуқтаи назардан зарур бўлган соҳаларига: меҳнатга яроқли аҳолини сони, аҳолини бандлик даражаси, аҳолини соҳалар бўйича мутахассислиги ва баъзи бир демографик кўрсаткичлар киради. Қайд қилинган аҳоли хусусиятларини ўрганиш ва уни картасини тузиш аҳоли картографиясининг предмети деса бўлади.

Аҳоли жойлашуви ва иш билан таъминланганлиги билан бўлган муаммоларни ҳал этиш мақсадида, ҳаётий муҳим йўналишлар бўйича юқори малакали кадрларни тайёрлаш катта аҳамият касб этади. Электрон рақамли аҳоли карталари компьютерларда махсус дастурларда тузилганлиги туфайли карталардаги ахборотларни қайта ишлаш ва тақдимот тезлигини таъминлайди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш мумкинки, аҳоли жойлашуви, иш билан таъминланганлик даражаси ва бошқа ҳолатлари тўғрисидаги маълумотлар кўп поғонали тизимда жамланганлиги учун картографик тадқиқот усулларидан фойдаланиб, электрон рақамли карта ва планларни тузиш яхши самара беради. Халқ хўжалигида электрон рақамли карталардан фойдалниш кенг имкониятларни яратиб бериши билан бирга бир қатор техник ва молиявий масалаларини ҳал қилиш заруриятини вужудга келтирада. Жумладан: вилоят ва туманларни замонавий компъютер, сканер ва плоттерлар билан таъминлаш ҳамда ушбу техникалар билан ишлайдиган малакали компьютер мутахассисларини ўқитишга қаратиши мақсадга мувоқдир.

Адабиётлар:

1. Каримов И.А. «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари». Тошкент-2012.

2. Абдураҳмонов Қ.Х., Абдураманов Х.Х. “Демография”. – Тошкент.: 2010.

3. Абдураҳмонов Қ.Х., Имомов В. “Ўзбекистонда меҳнат потенциалидан самарали фойдаланиш ва уни бошқариш”. – Тошкент.: Академия, 2008.

4. Сафаров Э.Ю., Абдурахимов Х.А., Ойматов Р.Қ. “Геоинформацион картография”. – Тошкент., Университет, 2012.

5. Интернет маълумот. www.stat.uz

МУКАММАЛЛАШТИРИЛГАН СУНЪИЙ ЙЎЛДОШ ГЕОДЕЗИК ТАРМОҚЛАРИ

Аликулов Ғ.Н., доцент; **Бердиев Д.Ф.,** ўқитувчи. Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Ҳозирги кунда сунъий йўлдош тармоқларининг бизнинг ҳаётимизга жадал суратлар билан кириб келаётганлиги, ҳамда ушбу сунъий йўлдош тармоқларидан фойдаланиш натижасида, мамлакатимиздаги барча соҳалар каби ер ва сув ресурсларини бошқариш, уларни мониторинг қилишда, шу жумладан республикамизнинг асосий йўналишларидан бири бўлган қишлоқ ва сув хўжалигини ривожлантиришда муҳим ўрин эгаллаганлиги тўғрисида маълумотлар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: қишлоқ, халқ, геодезик, объект, сунъий йўлдош, спутник, орбита, геодезия, топографик.

В данной работе освещена информация об искусственных спутниках земли, которые интенсивно вливаются в нашу жизнь, их использование, как и во всех отраслях нашей страны в управлении земными ресурсами,

их мониторинга, а также их особое значение в развитии одного из ключевых направлений республики сельского и водного хозяйства.

Ключевые слова сельское, народное, геодезическое, объектное, спутниковое, спутниковое, орбитальное, геодезическое, топографическое.

n this paper highlights the following information about the artificial earth satellites, which are intensively flow into our lives, using them as in all sectors of our country in the management of the earth's resources, monitoring, as well as their special importance in the development of one of the key directions of the republic of Agriculture and Water Resources.

Keywords Village, People, Geodetic, obyekt, satellite, sputnik, orbit, Geodesy, topographic.

Ҳозирда саноатда, қурилишда, ишлаб чиқариш ва халқ хўжалигининг бошқа кўпгина тармоқларида барқарор илмга асосланган ривожланишни талаб этмоқда. Топографик - геодезик ишлар системасида замонавий технологияларга асосланган GPS ва ГЛОНАСС сунъий йўлдош тизимларини, геоинформацион тизимларни, рақамли ва лазерли - электрон ўлчаш ва ҳисоблаш техникаларини, шунингдек лазерли сканерлаш технологияларини ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш ҳозирги замон талабидир.

Сўнги ўн йилликда фан ва техникани жадал ривожланиши натижасида нуқталарнинг фазовий ўрнини янги замонавий спутник усулида аниқлаш имконияти туғилмоқда. Бу усулда ер сиртидаги нуқталарнинг фазовий ўрнини спутниклар ва уларнинг ердаги приёмник, ҳамда антенналари ёрдамида исталган вақтда ва шароитда аниқлаш мумкин.

Инсонни қадим замонлардан қизиқтириб келган муаммолардан бири, у ўзининг Ер планетаси қайси жойида турганини аниқлашдан иборат бўлган. Киши ўз атрофини ўраб олган объектларга нисбатан турган ўрнини осонгина аниқлаб олиши мумкин. Бордию атрофда бундай объектлар бўлмаса, ҳаммаёқ бўм-бўш чўл ёки бепоён океан сатҳи бўлсачи? Кўп асрлар давомида бу муаммони қуёш ва юлдузлардан фойдаланиб ечиб келинган. Шу жумладан геодезистлар, геологлар ва бошқалар геодезик таянч пунктлардан фойдаланиб келишган, улар орқали ўлчашлар олиб борилган ёки йўллар аниқланган, лекин бу усуллардан фойдаланиш имкони ҳар доим ҳам бўлавермайди. 1970 йиллар бошида GPS **(Global Positioning System)** янги лойиҳаси тақдим этилди ва унга кўра киши ўз турган ўрнини ер юзасининг ҳохлаган нуқтасида, ҳохлаган вақтда, ҳар қандай об-ҳаво шароитида юқори аниқликда аниқлаш имконига эга бўлди. [1,2].

Бугунги кунда геодезик ўлчашларда сунъий йўлдош навигация тизимларида кенг қўлланилмоқда. Бу тизимлар космик ва ер усти механик воситалар комплексидан, ер сфероиди сиртидаги объект ўрнини аниқлаш учун дастур таъминоти ва технологиясидан иборат. Сунъий йўлдош навигация тизимларини катта ҳудудлар топографик съёмкаларни бажаришда планли-баландлик асосни ривожлантириш учун қўллаш мақсадга мувофиқ. GPS тўла таркиби қуйидаги учта турли сегментлардан иборат:

-Космик сегмент – маълум орбита бўйича ерни айланиб учадиган сунъий йўлдошлар;

-Бошқариш сегменти – йўлдошлар учишини бошқариш учун зарур экваторга яқин жойлашган станциялар;

-Фойдаланувчилар сегменти – GPS сигналини қабул қилувчи ва фойдаланувчи ҳар қандай киши.

Космик сегмент 24 та сунъий йўлдошлардан ташкил топиб, улар ўз орбитаси бўйича тақрибан 20200 км баландликда учиб ҳар 12 соатда бир марта Ерни айланиб чиқади.

Космик сегмент шундай лойиҳаланганки ерни ҳар қандай нуқтасида ҳохлаган дақиқада уфқ текислигидан 15^0 юқорида кузатувчининг ихтиёрида энг камида 4 та сунъий йўлдош бўлади бу эса ҳар қандай амалий вазифаларни бажариш учун зарур бўлган йўлдошларни минимал сонидир. Ҳар бир сунъий йўлдош бир нечта жуда аниқ борт атом соатларига эга. Бу соатлар 10,23 МГц асосий частотада ишлайди. Бу частота йўлдош узатадиган сигналларни генерациялаш учун фойдаланади. Йўлдош доимий элтувчи иккита тўлқинни узатиб боради. Бу элтувчи тўлқинлар L – қаторида жойлашиб, ерга қараб ёруғлик тезлигида ҳаракат қилади. Ҳар бир йўлдош ўзининг шахсий кодига эга бўлиб, у бўйича приёмник йўлдошни аниқлайди. Бундай кодлар сохта масофаларни ўлчаш учун асос қилиб олиниб, улар орқали координаталар ҳисобланади. [3,4].

Бугунги кунда нуқталарнинг фазовий координаталарини аниқлаш учун амалда қуйидаги спутник навигацион системалари қўлланилмоқда. Жумладан Россиянинг ГЛОНАСС спутник глобал навигацион системаси (Глобальная навигационная спутниковая система) ва АҚШнинг NAVSTAR GPS спутник навигацион системаси (Navigation system with time and ranging global positioning system – масофа ва вақтни аниқлаш навигацион системаси, нуқта ўрнини аниқлаш глобал системаси) шулар жумласидандир. Ҳар иккала спутник навигацион системаси харбий масалаларни ечиш учун мўлжалланган эди. Сўнгги йилларда, бу спутник навигацион системалари геодезия соҳасида илмий ва амалий масалаларни юқори аниқликда, яъни координата орттирмаларини 5мм $+Д \cdot 10^{-6}$ ўрта квадратик хатолик билан аниқлаш имконини берди. Ҳозирги пайтда мамлакатимиздаги Ер ресурслари, геодезия, картография, кадастр,

геология об-ҳавони кузатиш станциялари ва бошқа корхоналар NAVSTAR GPS спутник навигацион тизими антенналари ва приёмниклари билан тўлиқ таъминланган.

Ҳисоблашлар учун қабул қилинган ер эллипсоиди сиртига нисбатан нуқтанинг учта координаталарини – кенглиги, узоқлиги ва баландлигини аниқлашда хатоликларга йўл қўймаслик учун тўртта йўлдошларгача масофаларни ўлчашга тўғри келади. Юқорида кўриб ўтилган принципда ҳар бир йўлдошгача масофани аниқлаш унинг координаталарини маълум бўлишини тақозо этади. Бу мақсадда йўлдошлар ўзини жуда баланд орбитасига аниқ чиқарилади. Орбита параметрлари приемникка туширилади ва бу зарур вақт учун ҳар бир йўлдош ўрнини аниқлаш имконони беради.

24 соат давомида йўлдошлар кузатиш назорат пунктлари устидан икки маротаба учиб ўтади. Бу эса уларнинг ўрни ва тезлигини аниқ назорат қилиш имконини беради. Кузатиш станцияларида аниқланган орбитанинг ўзгариши орқали “эфемерид” хатосини ҳисоблаш имкони туғилади. Одатда орбиталарни ўзгариб туриши Ой ва Қуёшни гравитация майдонларини таъсири ҳамда Қуёш нурини йўлдошга кўрсатадиган босими билан боғлиқ. Ҳисобланган хатолар асосида йўлдош орбитасига тузатмалар аниқланади. Тузатмаларни киритиш билан аниқланган орбита параметрлари йўлдошга узатилади.

GPS ўлчашлар аниқлигига нурни ионосфера ва тропосфералардан ўтиш хатосига қўшимча приёмник хатоси, атрофдаги предметлардан нурни қайтарилиши хатоси ва бошқалар таъсир этади. Бундан ташқари, “геометрик омил”, яъни йўлдошларга қараб йўналишлар орасидаги бурчаклар қиймати ҳам таъсир этади. Бу бурчаклар қанчалик каттароқ бўлса кестирмалар шунча яхши, демак ўлчашлар ҳам аниқ бўлади.

ГЛОНАСС да ҳам иккита канал: стандарт (СТ) ва юқори аниқ (ЮА) каналлар мавжуд бўлиб, улар нуқталар координаталарини GPS аниқлигига яқин аниқликда топиш имконини беради. СТ сигнали (GPS С/А кодига ўхшаш) ҳамма фойдаланувчилар учун очиқ.

24 та йўлдошлар учта доиравий орбиталарни ҳар бирида 8 тадан жойлаштирилган, орбиталар баландлиги 19100 км га яқин ва улар экваторга қараб 64,8 градусга оғади. Орбиталар параметрларини бундай танлангани узоқ муддат давомида йўлдошлар ўзаро жойлашиши ҳолатини ўзгармас бўлишини таъминлайди.

Шундай қилиб, GPS ёрдамида координаталарни аниқлаш геодезиянинг фундаментал мақсадини амалга оширишда ер сиритни ҳохлаган жойидаги нуқта мутлоқ ўрнини бир хил аниқликда топишни таъминлайди. Анъанавий геодезик ва топографик усулларни қўллаб эса нуқта ўрнини бошланғич пунктларга нисбатан бу пунктларгача бўлган масофаларга боғлиқ бўлган аниқликда топамиз. Шунинг учун GPS одиий усулларга нисбатан катта афзалликка эга. Бошқа томондан геодезия фани – бу GPS учун асос ва аксинча, GPS геодезия учун асосий асбобга айланди. Бу айтилган сўзлар ҳақиқат бўлиб тасдиқланади, агарда биз геодезиянинг асосий мақсадларини эсга келтирсак:

1. Ернинг сиртида фазовий геодезик таянч тармоқларни, улар пунктларини вақт ўтиши билан силжиб ўрни ўзгариб туришини ҳисобга олиб, қуриш ва хизмат кўрсатиш.

2. Геодезик ҳодисаларни (ер қутбларини ҳаракати, ер қобиғини силжиши ва бошқалар) ўлчаш ва тавсифини аниқлаш.

3. Ер гравитация майдонини, уни даврий ўзгариб туриши билан бирга аниқлаш.

GPS дан фойдаланувчиларни кўпчилиги юқоридаги вазифаларни бажариши билан тўқнашмаса ҳам, лекин бу асбоблар билан ишловчилар албатта геодезиядан тушунчага эга бўлишлари шарт.

Хулоса килиб айтганда, спутник навигацион тизимларидан фойдаланиш натижасида, мамлакатимиздаги барча соҳалар каби ер ва сув ресурсларини бошқариш, уларни маниторинг қилишда, шу жумладан республикамизнинг асосий йўналишларидан бири бўлган қишлоқ ва сув хўжалигини ривожлантиришда мухим ўрин эгаллайди.

Адабиётлар:

1. Мирзалиев Т., Мусаев И.М., "Картография" - Тошкент 2013 й.

2. Берлянт А.М. "Картография" -Москва 2002 й.

3. Клюшин Е.Б. и. др. Справочник прикладной геодезии. Недра, -Москва 2000 й.

4. Интернет маълумотлари. www.stat.uz, www.bnzuz.com, www.spr.ru.

БУХОРО ВИЛОЯТИ “ҚАНДИМ ГАЗ КОНИ”ДА ГЕОДИНАМИК МОНИТОРИНГ ОЛИБ БОРИШ УЧУН ГЕОДЕЗИК АСОС ЯРАТИШ

Абдурахмонов С.Н. – PhD, доцент.
Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислик институти
Бердиев Д.Ф. Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси газ конлари ва газ қазиб чиқариш бўйича дунёда етакчи ўринларда эканлиги ҳеч кимга сир эмас. Республикамизнинг Қашқадарё, Бухоро вилоятлари ва Фарғона водийси

ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудларида бир нечта газ конлари мавжуд. Ушбу мақола Бухоро вилояти "Қандим газ кони" да геодинамик мониторинг олиб бориш учун геодезик асос яратиш ва геодезик ўлчаш ишларига бағишланган.

Калит сўзлар: гидрография, газ захираси, геологик таҳлил, геодинамик мониторинг, техник лойиҳа, геодезик пунктлар

Не секрет, что сегодня Республика Узбекистан является мировым лидером по месторождениям и добыче газа. Есть несколько газовых месторождений в Кашкадарьинской, Бухарской областях, Ферганской долине и Республике Каракалпакстан. Статья посвящена созданию геодезической основы геодинамического мониторинга и геодезических измерений на Кандымском газовом месторождении в Бухарской области.

Ключевые слова: гидрография, запасы газа, геологический анализ, геодинамический мониторинг, технический проект, геодезические пункты.

It is no secret that today the Republic of Uzbekistan is the world leader in gas fields and production. There are several gas fields in the Kashkadarya, Bukhara regions, the Fergana Valley and the Republic of Karakalpakstan. The article is devoted to the creation of a geodetic basis for geodynamic monitoring and geodetic measurements at the Kandym gas field in the Bukhara region.

Key words: hydrography, gas reserves, geological analysis, geodynamic monitoring, technical design, geodetic points.

Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатида: "Иқтисодиётнинг қатор муҳим тармоқлари, жумладан, кимё, нефть ва газ, энергетика, электротехника, қурилиш материаллари, заргарлик саноатини хомашё билан таъминлаш учун, аввало, геология-қидирув соҳасини тубдан ривожлантириш лозим..." дея таъкидлаган эди.

Газ конларининг вужудга келиши Мезазой даврининг органик яъни ўсимлик ва жонзодлар қолдиқларининг тўпланган ҳудудларида маълум температура ва босим остида ҳосил бўлади. 120 йиллик тарихга эга Ўзбекистонда нефт ва газ конларини қидириш ва ўзлаштириш ишлари 1885 йилдан бошланган. Тарихга назар солсак, аслида милоддан аввалги 4-асрда Искандар Зулқарнайн Марказий Осиёга юриш қилганда, бу ўлкада «қорамой»ни учратганлар, аммо ундан қандай фойдаланишни яхши билишмаган.

Муҳандис С.А.Ковалевский бошчилигида бир гуруҳ рус тадбиркорлари 1898 йилда Чимён (Фарғона водийси) қишлоқларида нефт конларини қидиришга киришдилар. Улар 1901 йилда 1-қудуқни пармалашга киришиб, 1904 йил 278 метр чуқурликдаги нефт қатламини очишга эришдилар. Бу қудуқ суткасига 130 тонна нефт бера бошлади. Шу кон асосида «Чимён» нефт жамияти тузилди. Шунингдек 1901 йилда Мойлисойда 168 метирдан нефт отилиб чиққан, суткасига 25 тонна нефт берган. 1903 йилда шу асосда корхона ташкил этилган. 1907 йилда Чимён ёнидаги Ёркўтонда нефт қудуғи пармаланиб, 1910 йилда ишга туширилган [6].

Биз Бухоро вилояти ҳудудида жойлашган "Қандим газ кони" мисолида геодинамик мониторинг олиб боришда геодезик асосни яратиш ишларини қисқача ёритмоқчимиз.

"Қандим газ кони" Бухоро вилоятининг шарқий қисмида Туркманистон Республикаси билан чегарадош худудларда, Қоракўл ва Олот туманлари худудида жойлашган бўлиб, асосан чўл минтақасида жойлашган. Ҳудуднинг *рельефи* бархан қумлари, тепаликларнинг баландлиги 4 дан 8 м гача, баландликлари денгиз сатҳидан 178 дан 191 м гача.

Гидрографияси дала сувсиз ҳудудда жойлашган. Энг яқин сув омбори Қандим конидан 10 км шимолда жойлашган. Гидрография конларнинг жанубида жойлашган (асосан шўрланган) кичик кўллар мавжуд. Каттароқ шўр кўллари Шуркак ва Мадонқул кондан 1 км жанубда жойлашган. Туз кўли даладан шарққа 8 км узоқликда жойлашган. Қорақум коллектори шимолдан ва шарқдан 9-12 км масофада ўтади.

Ўсимликлари - жуда ҳам жонсиз ҳисобланади, шунингдек ёз давомида бутунлай ёниб кетадиган ўтсимон шаклида бўлади.

Аҳоли пунктлари - енг яқин аҳоли пункти дала майдонидан 14 км шарқда жойлашган Караджи аҳоли пункти. Бухоро шаҳри шимолий-шарқдан 75 км, вилоят маркази Қоракўл еса майдондан 28 км шарқда жойлашган.

Йўл тармоғи асосан тупроқли йўллар ва асосий йўллар билан ифодаланади. Депозитга Караджи қишлоғидан асфалт йўл (Самарқанд - Бухоро - Чарджоу асосий йўлидан филиал) яқинлашади. Бухоро - Қоракўл - Туркманабат темир йўли кондан 25 км жануби-шарқда ўтади.

Физик-географик хусусиятлар - иқлим кескин континентал бўлиб, мавсумий ва кунлик ҳароратнинг катта тебранишлари билан ажралиб туради. Ёзлар қуруқ ва иссиқ, ҳарорат кундузи 40-44º га етади, кечаси 10º га тушади. Қиш жуда совуқ ва қорли, ҳаво ҳарорати -20 - 25º гача пасаяди.

Дала даврининг давомийлиги 8,5 ой (1 мартдан 15 ноябргача)

Ҳудудда "ЛУКОЙЛ Ўзбекистон Оперейтинг компанияси" МЧЖ томонидан ўнлаб газ қудуқлари қазилган бўлиб, узлуксиз газ қазиб чиқариш йўлга қуйилган.

Газ кони жойлашган худуд геолог мутахассислар томонидан бир нечта кичик ер сирти қобиқларига бўлинган. Шунингдек газ захираси жойлашган асосий ҳудудлар маълум. Шундан

келиб чиқиб геодинамик мониторинг олиб бориш нуқталари ва йўналиши белгилаб олинади.

Бизга маълумки, геодинамик мониторинг деганда ернинг плиталари, аниқланган ер сирти ёриқларининг вертикал ва горизонтал ҳаракатлари тушунилади [2]. Ер ости жараёнларни геологик таҳлил қилишдан ташқари ер қобиқлари ва плиталарнинг ўзгаришини аниқлаш геодинамик мониторинг ишлари орқали ҳам аниқлаб борилади.

Геодинамик мониторинг олиб борилиши белгиланган ҳудудда геодезик асосни яратиш ишлари амалга оширилади. Бунда дастлаб ҳудуднинг релъефи, тупроқ қатламларининг тури, ер юзасини музлаш даври ва чуқурлига, мониторинг олиб борилиши режалаштирилаётган асбоб-ускуналар туридан келиб чиқиб геодезик пунктлар турлари аниқланади.

Геодезик асосга боғланиш ҳолатидан келиб чиқиб аввал ушбу ҳудудда бажарилган геодезик ишлар ўрганиб чиқилади. Сўнгра барча маълумотларни ўрганиб чиқилган ҳолда техник лойиҳа тузилади [3]. Техник лойиҳада геодинамик полигон ҳудуди, унда иштирок этувчи геодезик асосни ташкил этувчи геодезик пунктлар, геодинамик ўлчовлар бажарилиши режалаштирилаётган худудда геодезик пунктларнинг жойлашуви, пунктлар сони, типлари уларнинг жойлашув баландлиги ҳамда чуқурлиги, расмийлаштирилиши лозим бўлган хужжатлар в.х.к.. батафсил маълумотлар кўрсатилиши лозим.

Бухоро вилояти ҳудудида жойлашган “Қандим газ кони” мисолида геодинамик мониторинг олиб боришда геодезик асосни яратиш қуйидаги схема (1-расм) кетма-кетлигида олиб борилиши натижавийликни оширади.

1-расм. Геодинамик мониторинг олиб боришда геодезик асосни яратиш схемаси

Геодинамик мониторинг олиб боришда геодезик асосни яратишни қуйидагича асослашимиз мумкин:

1. Техник лойиҳа тузиш учун ҳудуд ўрганиб чиқилади, аввал бажарилган геодезик ишлар анализ қилинади;

2. Техник лойиҳа тузилади;

3. Техник лойиҳа асосида геодезик пунктлар тайёрланади;

4. Жойига чиқиб геодезик пунктлар ўрнатилади, тегишли хужжатлар расмийлаштирилади;

5. Йўриқномаларга мувофиқ геодезик пунктлар ўрнатилганидан камида 6 ой муддат ўтганидан сунг, геодезик ўлчов ишлари амалга оширилади;

6. Бажарилган ишлар натижаси асосида техник хисобот тузилади.

Ушбу мониторинг ишларини олиб боришда геодезик пунктларни жойлаштиришга асосан ўлчаш аниқлиги ва иқлим омилларидан келиб чиқиб геодезик пунктлар типлари аниқланади.

Қандим газ кони ҳудудида геодезик ўлчаш ишлари юқори аниқликда бажарилиши ва ернинг музлаш чуқурлиги 50-100 см бўлганлиги учун, чуқурлиги 2 метрдан юқори бўлган фундаментал реперлар ва ўрнатиш чуқурлиги 150 см дан юқори бўлган 146 типдаги геодезик пунктлардан фойдаланиш тавсия этилади.

Пунктларни ўрнатиш схемаси газ кони марказидан ҳар 90^0 да тўрт томонга тарқаган тармоқдан иборат бўлиши тавсия этилади. Пунктлар орасидаги масофа ўртача 500-800 метрни ташкил этади.

Геодинамик мониторинг олиб бориш учун геодезик ўлчаш ишларига бўлган талаб қуйидагилардан иборат бўлади:

Бошланғич нуқтадан чиқиб жойлаштирилган геодезик тармоқ орқали II-синф нивелир ишлари бажарилади ва қайта бошланғич нуқтага қадар амалга оширилади;

Бошланғич нуқтага нисбатан геодезик пунктларнинг горизонтал жойлашуви яъни координаталари аниқланади. Бунда координаталар аниқлаш ишлари юқори аниқликдаги GPS қурилмалари ёрдамида амалга оширилиши тавсия этилади. GPS қурилмалари ишлаши даврида 4 тадан кам бўлмаган спутниклар маълумотлари мавжуд бўлиши, ёзувлар интервали 10 секунд бўлиши, PDOP≤3 бўлиши, антена жойлаштирилган горизонтдан 15^0 юқорида антенани тўсувчи ҳолат бўлмаслиги талаб этилади.

Геодинамик мониторинг олиб бориш учун геодезик асосни яратиш юқори аниқликдаги геодезик ишларни бажаришда жуда аҳамияти юқори ҳисобланади. Яратилган геодезик асос билан бажарилган геодезик ишлар босқичларга бўлинади, кейинги босқичларда бажарилган геодезик ўлчаш ишлари натижасини аввалги ишлар билан солиштириш натижасида ер юзасида бўлаётган ўзгаришлар ва уларнинг ўлчамлари аниқланади. Ушбу ишлар натижасига кўра геодинамик ўзгаришларни мониторинг қилиб бориш имконияти яратилади.

Хулоса. Ҳозирги кунда кўпчилик ишлаб чиқариш давлат коорхона ва ташкилотлари

жумладан "Республика аэрогеодезия корхонаси", "O`zGASHKLITI" DUK томонидан геодинамик мониторинг олиб бориш учун геодезик асос яратиш ишлари амалга оширилмоқда. Нефт ва газ конларида геодинамик мониторинг олиб бориш учун геодезик асос яратиш хомашё махсулотлари қазиб олиниши натижасида юзага келиши мумкин бўлган ер юзасидаги чўкиш ёки ўзгаришлар юзага келиши ҳолати аниқланади. Ер қимирлаши, тупроқ қатламларида ва ер ости сувлари ҳолати ўзгариш бўлиши мумкинлиги юзасидан таҳлил қилиш имконини беради.

Адабиётлар:

1. Авчиев Ш. "Амалий геодезия". Дарслик: Ворис нашриёти. Тошкент-2010.

2. Геодезические методы изучения деформаций земной коры на геодинамических полигонах. М., ЦНИИГАиК, 1985 г.

3. Инструкция по обследованию и восстановлению пунктов и знаков государственной геодезической и нивелирной сетей Республики Узбекистан (ГККИНП-07-085-03), Ташкент, 2003 г.

4. Stonex S3 қўлланмаси 2015 йил.

5. Abdurakhmonov S, Abdurahmanov I, Murodova D, Pardaboyev A, Mirjalolov N, Djurayev A. Development of demographic mapping method based on gis technologies. InterCarto, InterGIS. 2020;26:319-328. doi:10.35595/2414-9179-2020-1-26-319-328.

6. Интернет маълумотлари. www.dissercat.com, www.rsl.ru, www.natlib.uz, www.library.ziyonet.uz, www.stat.uz.

YIRIK GIDROTEXNIK INSHOOTLAR DEFORMATSIYASINI KUZATISH

Aralov Muzaffar Muxammadiyevich - katta o'qituvchi,
Qilichev Zaynobiddin Mirzaiyeich - assistent.
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Ushbu maqolada yirik gidrotexnik inshootlarni cho'kishini kuzatish va bashorat qilish, inshootlarning siljish turlari va sabablari keltirilgan.
Kalit so'zlar: deformatsiya, siljishi, cho'kishi, bashorat, to'g'on, nivyelirlash, inshoot.

В данной статье рассматриваются и прогнозируются просадки крупных гидротехнических сооружений, типы и причины оползней.
Ключевые слова: деформация, смещение, просадка, прогноз, плотина, выравнивание, строительство.

In this state, subsidence of large hydraulic structures, types and causes of landslides are considered and predicted.
Key words: deformation, displacement, subsidence, forecast, dam, alignment, construction.

Ma'lumki, inshootlar deformatsiyasi ularning poydevoriga va inshootning o'ziga turli xil tabiiy va texnalogik faktorlar ta'sir etishi natijasida yuzaga keladi. Asosan inshoot va binolar deformatsiyasi ular poydevoridagi tuproq qatlamining xarakatiga bog'liq. Bu xarakatlar tik va gorizontal holatda yuzaga kelishi mumkin.

Shuning uchun yirik gidrotexnik inshoot deformatsiyasini aniqlashda bajariladigan injenerlik-geodezik ishlarni maqsadi va mohiyati, inshootlarning cho'kishi va siljish turlari va sabablari, inshoot deformatsiyasini kuzatishdan iborat bo'ladi.

Loyiha asosida qurilgan injenerlik inshootlari bir oz muncha vaqt o'tgach o'z holatini o'zgartiradi, ya'ni har xil sabablari bulardan inshootning vazni havoni o'zgarishi, yer silkinishi holatlari va hokozalarni ta'siri orqali oldingi o'rnidan, holatidan siljishi, cho'kishi mumkin. Umuman olganda inshoot fazoviy siljishga uchraydi va bu holat *deformatsiya* deyiladi. Bu o'zgarish ikki xil ko'rinishda sodir bo'lishi mumkin: Bular:

–planli

–balandlik

Har qanday inshootni gorizontal tekislik bo'yicha o'zgarishi ***siljish*** deyiladi. Va shu bilan birgalikda vyertikal tekislik bo'yicha o'zgarishi ***cho'kish*** deyiladi. [1]

Inshootning deformatsiyasi cho'kish, burash, og'ish va inshootning ko'rinishida yoriq paydo bo'lishi va h.k. ko'rinishida sodir bo'lishi mumkin.

Inshootning o'z vazni orqali sodir bo'lgan cho'kishlar, tuproqning siqilishiga qarab bora-bora asta-sekin to'xtadi. Biroq yirik inshootlarning fundamentini tagi qumli yoki boshqa bir xil jinsli bo'lsa, cho'kish katta tezlikda sodir bo'lib, tez to'xtashi mumkin. Lekin loyli tuproqlarda esa shu holatni aksi sodir bo'ladi.

Deformatsiya sabablar - poydevorlar deformatsiyasi unga tabiiy va texnalogik faktorlar ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Tabiiy faktorlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1) tog' jinslarining turli xil injener-geologik va gidrogeologik hodisalarga moyilligi;

2) tog' jinslarining sovuqda muzlash va muzlangan jinslarning erishi;

3) gidrometrik sharoitning o'zgarishi, ko'p yillik harorat, namlik va yer osti suvi sathining o'zgarishi.

Texnalogik faktorlarga quyidagilar kiritiladi:

1) inshootning o'z og'irligi ta'siri;

2) yer osti suvlarining sun'iy ravishda ko'tarilish va pasayishi sababli tog' jinslarining xususiyatini o'zgartirishi;

3) yer osti ishlari natijasida poydevorning zaiflashishi;

4) binoga qo'shimcha qavat qurilishi yoki

yonidan yangi bino barpo etilishi natijasida, poydevorga bo‘lgan bosim (kuch) o‘zgarishi;

5) turli xil agregatlar ishlashi, transportlar xarakati sababli poydevor tebranishi.

Shular bilan birga inshoot deformatsiyasiga poydevor shakli, o‘lchamlari va mustahkamligi ham ta’sir qiladi.

Yer hamisha xarakatda uning dinamik ta’sirlar orqali fundamentallarni cho‘kishi juda tez sodir bo‘ladi. Silkinishlar ta’sirida fundamentni tagida bo‘shliq xosil bo‘ladi yer bo‘shashib, bo‘sh joylarni hosil qiladi.

Yirik inshootni keyinchalik cho‘kishini loyihalash paytida nazarga olinadi va uni turg‘inlik xolatda saqlash uchun kerakli ishlar qilinib kayta-qayta kuzatuvlar hisoblashlar olib boriladi. Loyihada ko‘rsatilgan yirik gidrotexnik inshootlarni mustahkamligi va turg‘unligi to‘g‘risidagi bashoratlarni tasdiqlash yoki uni o‘z vaqtida bu bashoratlarini tasdig‘ini topish va aniqlash uchun takroriy mukammal kuzatishlar olib boriladi.

Mukammal kuzatishlar muntazam ravishda, bir necha yil davomida olib boriladi. Bu kuzatishlar orqali inshootning siljigan va cho‘kish qiymatlarini o‘lchashlar yuli bilan aniqlanadi. Barcha kuzatishlar yirik gidrotexnik inshootlar (to‘g‘on, GES, shlyuzlar, ko‘priklar va hokozalarda) elevatorlar va yirik sanoat va fuqaro bino-inshootlarida olib boriladi.

Yirik gidrotexnik inshoot kuzatishlari ko‘pincha geodezik usullardan foydalaniladi. Bu kuzatishlarni olib borish uchun joyda maxsus geodezik tarmoqlarni punktlaridan hamda yuqori aniqlikdagi geodzik o‘lchashya’ni zamonoviy elektron asbob-lardan foydalanilasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun yirik gidrotexnik inshootlarda nazorat belgilar o‘rnatiladi va ularni o‘rinlari o‘zoq vaqtlar kuzatiladi. Geodezik usullarda kuzatishlar har bir inshoot uchun aloxida dastur bo‘yicha bajarilishi kerak bo‘ladi. Bu dasturni tuzish murakkab ilmiy-texnik masala hisoblanib, uni yechish uchun inshoot loyihasi muallifi, geode-zistlarni, konstruktorlarni, geologlarni jalb etib amalga oshirilishi kerak bo‘ladi.

Kuzatishlar dasturida, kuzatish muddati, (davrlari) usullari, inshootda o‘rnatiladigan nazorat belgilarni o‘rni, geodezik asboblar turi va aniqligi, kutiladigan o‘lchashlar xatoligini oldi hisobi, o‘lchash natijalarini matematik ishlab chiqish usullari va boshqalar keltiriladi.

Yirik gidrotexnik inshootlarning cho‘kishi va siljish turlari va sabablari. Sabablar ikki xil bo‘ladi birinchisi umumiy ikkinchisi esa xususiy

Umumiy sabablariga quyidagilar kiradi:

– tuproqning qayish va plastik deformatsiyalash qobiliyati;

– tuproqning geologik tuzilishini har xilligi;

– yer osti suvlarini gorizonti va temperaturasini o‘zgarishi va h.k.

Xususiy sabablarga quyidagilar kiradi:

– yer maydonlarini noto‘g‘ri tekislish;

– geologik va gidrogeologik izlanishlarni noaniqligi;

– yer osti qazishlarni bajarish bo‘yicha asosli bo‘shatilishi;

– inshoot yaqinida yangi katta inshootlarni qurish;

– qiyalik joylarda inshootlarni qurish;

– inshootlarda ko‘tarishda bosimni o‘zgarishi;

– fundamentallarni konstruksiyalash o‘lchamlari va shakllari;

– yer qimirlashi yoki mashinalar ishlashi tufayli fundamentllar-ningvibratsiyaga uchrashi va hokozalar. [2]



Yirik gidrotexnik inshootlarni cho‘kishini kuzatish va bashorat qilish.

Har qanday yirik gidrotexnik inshootlarni cho‘kishini kuzatish joyda balandlik tarmog‘ini barpo etishdan keyin boshlanadi. Buning uchun boshlang‘ich reperlar orasida barcha cho‘kish markalari o‘rnatib so‘ng ular orasida nivyelir yo‘llari o‘tkaziladi. Bu nivyelirlar taqvimi rejega asosan davriy ravishda takrorlanadi.

Geodezik usullarda kuzatishni boshlang‘ich davrasi (sikli) har qanday inshoot fundamentini ko‘targandan keyin bajariladi. Keyingi davralar har bir 10 yoki 20, 30 kundan keyin inshootning asosiga to‘liq yuk tushmaguncha o‘tkaziladi. Shunda cho‘kishlarni o‘lchash muddati qurilish ishlari bosqichlari bilan bog‘langan holda olib boriladi va bu ham yerga bosim kuchini hisoblashda qulaylik to‘g‘diradi. Bundan tashqari cho‘kishlarni o‘lchash taqvimiy rejasi uskunalarni montajlash ish rejasiga kiritiladi.

Umuman olganda kuzatishlarni, qurilayotgan inshootlarni massasi o‘zining loyiha qiymatini 25, 50, 75 va 100%ni tashkil qilganda olib borishi maqsadga muvoffiq hisoblanadi. Inshoot to‘liq yukiga erishgandan keyin cho‘kishlarni kuzatish davri o‘zgaradi. Keyinchalik kuzatishlar yiliga 4,3,2 va 1 marotaba o‘tkazilsa bo‘ladi. Kuzatishlar

qancha ko‘p bo‘lsa uning samarasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Qurilishni tugatgandan keyin inshoot fundamentini kuzatish 5 yil davomida olib borish zarur, hech bo‘lmaganda inshoot asosining tagi loyli tuproqdan iborat bo‘lsa. Agar qumli tuproqlardan iborat bo‘lsa 2 yil davomida olib boriladi. [3]

Umuman inshoot cho‘kishini kuzatishni, inshootning asosi to‘liq turg‘unlash (mustahkamlash) maguncha olib borish kerak, ya’ni oxirgi uch sikl kuzatishlar natijasi bo‘yicha inshootning cho‘kish qiymatlarini nivyelirlash aniqligi aniqlash chegarasiga tushguncha olib borish tavsiya etiladi. Gidrotexnik inshootlarda uning poydevori mustahkam bo‘lgandan keyin hamyiliga bir marotaba kuzatishlar olib borilishi takidlanadi.

Inshoot cho‘kishini aniqlash uchun bajariladigan kuzatishlar natijalaridan foydalanib:

– inshootning aloxida qismlari bo‘yicha cho‘kishini absolyut qiymatlari aniqlanadi;

– cho‘kishlar to‘xtalishining umumiy xarakteri aniqlanib, tez cho‘kayotgan joylarni oldini olish va Pirofilaktik ishlarni bajarish mo‘ljallanadi.

Yirik gidrotexnik inshootlarni cho‘kishini kuzatish davomida tajriba maydonidagi geodezik kuzatish orqali yirik gidrotexnik inshootni cho‘kishini va siljishi parametlari keltirilgan va uning tahlili yirik inshootlar misolida asoslangan. Bu esa kelgusida barcha turdagi inshootlarni xolatini urganishda tuplanadigan ma’lumotlar bazasini shaklllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Avchiyev SH.K. “Amaliy geodeziya”. Toshkent. “Voris”, 2010.

2. Suyunov.A.S., Musayev I.M. «Injenerlik (amaliy) geodeziya» o‘quv-metodik majmua. Samarqand-2011 y.

3. Михелев, В. Д. Фельдман; Под ред. Д. Ш. Михелева. - 3-е изд. Испр. - М.: Высш. шк., 2002.

4. Клюшин Е. Б., Михелев Д. Ш. Инженерная геодезия. - М.: Высшая школа, 1983.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ АЭРОФОТОТОПОГРАФИЧЕСКИХ КАМЕР

Щукина О.Г. – доцент; **Якубов Г.З.** – докторант
Национальный университет Узбекистана

Статья посвящена описанию современных цифровых аэрофототопографических камер различных производителей. Рассматриваются их характеристики, возможности и преимущества перед аналоговыми аэрокамерами.

Ключевые слова: Аэрофототопографические камеры, аналоговые кмеры, CMOS датчики, крупноформатные камеры.

Maqola turli ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy raqamli antenna topografik kameralarining tavsifiga bag'ishlangan. Ularning xususiyatlari, imkoniyatlari va analog antenna kameralariga nisbatan afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: havo topografik kameralar, analog kameralar, CMOS datchiklar, katta formatli kameralar.

The article is devoted to the description of modern digital aerial topographic cameras from various manufacturers. Their characteristics, capabilities and advantages over analog aerial cameras are considered.

Key words: Aerial topographic cameras, analog cameras, CMOS sensors, large format cameras.

Цифровые технологии, ставшие одной из примет современности, все глубже проникают в различные сферы человеческой деятельности. Не могли они не затронуть и аэрофотосъемку.

Цифровые аэрофототопографическик камеры (АФК) заняли прочные позиции в перечне продукции многих производителей (2). Использование таких камер не только удобно, но в ряде случаев экономически оправдано, хотя и имеет свою специфику. Наибольший интерес для пользователей представляют так называемые крупноформатные (широкоформатные) камеры, например, UltraCam-X (Vexcel Imaging GmbH, Австрия), DMCIII (Intergraph Corp., США), ADS 40, АФК VisionMapA3.

Фотограмметрический комплекс UltraCam-X (рис.1) работает под управлением навигационной системы CCNS4 производства IGI GmbH (Германия), которая состоит из блока навигации и управления (Standart CCNS) и блока геопозиционирования (AeroControl).

Рис.1 Цифровая аэрофототопографическая камера UltraCAM X компании Vexcel Imaging (Австрия).

Информация о полете выводится на два идентичных 5-дюймовых дисплея. Ввод команд может осуществляться как оператором, так и пило-

том с помощью управляющих кнопок мониторов, что позволяет опытному летчику более эффективно организовать съемку и даже выполнять ее самостоятельно.

Даже при потере спутникового сигнала система продолжает работу — ведется запись данных IMU, выдаются управляющие команды на гиростабилизирующую установку и срабатывание затвора, ведется запись временных меток точек фотографирования.

Система UltraCam состоит из сенсорного блока (SX), устанавливаемого на гироплатформу, и блока управления (CX), где происходит запись данных .

Сенсорный блок осуществляет съемку в панхроматическом, видимом и инфракрасном каналах, причем панхроматическое изображение формируется четырьмя объективами, расположенными друг за другом параллельно направлению движения воздушного судна (1). Съемка проводится последовательно разными объективами из одной точки пространства, что позволяет получить общий снимок в единой проекции. Главный объектив формирует первое изображение, которое является основой будущего кадра и служит для контроля объединяемых субснимков. После срабатывания затвора сенсорный блок создает 13 файлов «сырых» изображений, которые передаются в блок управления для записи на жесткие диски.

Интегральный размер кадра UltraCamX составляет14430x9420, т. е. 136 мегапикселей. Данная характеристика позволяет сравнивать цифровые топографические аэрофотоаппараты, приемник которых состоит как из одной, так и из нескольких физических CCD(ПЗС) матриц. Это подчеркивает тот факт, что результирующий цифровой аэрофотоснимок синтезируется из первичных фрагментарных аэрофотоснимков. Каждый фрагментарный аэрофотоснимок получается с использованием отдельной CCD матрицы, которые затем сшиваются программно аппаратными методами. При этом с интервалом фотографирования 1,35 с обеспечивается выход полноформатных цветных или даже спектрозональных аэрофотоснимков. Признавая, что производительность не единственный технический параметр аэрофотоаппарата, заметим, что он один из важных, в том числе и с экономической точки зрения. В связи с этим нельзя с гордостью не отметить, что в настоящее время UltraCamX является наиболее производительной цифровой аэрофотокамерой в мире среди камер данного класса. Этот вполне очевидный факт можно вывести самостоятельно из простого сравнения технических спецификаций. Менее очевидно другое – последняя разработка компании Vexcel по объему получаемой информации превосходит и многие аналоговые (почти все!), т. е. классические пленочные аэрофотоаппараты.

В настоящее время в Узбекистане приобретена новая цифровая аэрофотопографическая камера DMC III (рис.2) производства Leica Geosystems[3] со встроенной матрицей CMOS, специально предназначенной для целей картографирования территории нашей страны.

Использование нового CMOS датчика выводит аэрофотокамеру DMC III от Leica Geosystems на принципиально новый уровень, по сравнению с предыдущими камерами серии DMC, основаннными на традиционной CCD технологии (ПЗС-матрицы). CMOS-матрица является цифровым устройством с активными чувствительными элементами (Active Pixel Sensor). С каждым пикселем работает свой усилитель, преобразующий заряд чувствительного элемента в напряжение. Это дает возможность практически индивидуально управлять каждым пикселем [4]. Именно благодаря усовершенствованной технологии формирования изображения CMOS, цифровая полноформатная топографическая аэрофотокамера DMCIII создаёт самый большой в мире одиночный кадр.

Рис.2 Аэрофототопографическая камеры DMS III Leica Geosystems

Безусловно - цифровые аэрофототопографические камеры обладают целым рядом преимуществ:

Отсутствуют расходы на пленку;

Нет процесса проявки;

Автоматическое определение выдержки;

Контроль качества снимков в полете;

Лучшая радиометрия (как правило, 12 битные изображения);

Одновременная съемка в разных спектральных диапазонах;

Отсутствие процесса внутреннего ориентирования в ЦФС;

Возможность создавать сколько угодно копий снимка с качеством оригинала и практически бесплатно;

Отсутствие деформации при хранении (НО: требуются специальные устройства хранения);

Большие объемы устройств хранения, позволяющие получить большое количество снимков за один залет;

Суммарная стоимость обработки одного

цифрового снимка в 2 раза меньше стоимости обработки аналогового.

В настоящее время цифровые АФА вытеснили с рынка аналоговые АФА, а цифровые методы создания планов, карт и ортофотопланов в свою очередь вытесняют аналоговые методы, и все это связано с высоким уровнем развития современной техники и технологий.

Литература:

1. Журнал «Геодезия и картография» №5, 2010г. М.- Создание цифровых топокарт с использованием цифровой аэрокакмеры UltraCam X.

2. Щукина О.Г., Учебник по цифровой фотограмметрии, Ташкент, 2021

3. https://leica-geosystems.com

4. Leica DMC III Installation Information стр.11.

УДК 621.396.67.01

ЧТО ТАКОЕ USSD ЗАПРОСЫ И ЗАЧЕМ ОНИ?

Ҳотамов Абдуғафур, доцент, **Жумабоев Туйгун Ахтамович,** ассистент
Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий
Мухамадиев Камол Эсанович. и.о. директора Регионального отделения "Ucell-Samarqand"

USSD-сервис поддерживается в GSM Phase 1и Phase 2. USSD-сервис во многом схож с SMS, оба сервиса используют для передачи данных формат коротких сообщений. Однако USSD в основном предназначен для обмена сообщениями между абонентом и дополнительными сервисами, в простейшем случае, службой автоинформатора расчётного счета, тогда как SMS в основном служит для обмена короткими сообщениями между абонентами.

Ключевые слова: дистанционное обслуживание клиентов, дополнительный шлюз, сторонний сервис, навигация

USSD xizmati GSM 1 va 2 bosqichlarida qo'llab-quvvatlanadi. USSD xizmati SMSga juda o'xshaydi, ikkala xizmat ham ma'lumotlarni uzatish uchun qisqa xabar formatidan foydalanadi. Biroq, USSD asosan abonent va qo'shimcha xizmatlar o'rtasida xabar almashish uchun mo'ljallangan, eng oddiy holatda joriy hisobning avtoinformatori xizmati, SMS esa asosan abonentlar o'rtasida qisqa xabarlar almashinuvi uchun ishlatiladi.

Kalit so'zlar: mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatish, qo'shimcha shlyuz, uchinchi tomon xizmati, navigatsiya

Ключевые слова: Локализация, модернизация, занятость, окружающая среда, общество, вторичные ресурсы, природные ресурсы, экологическая культура.

The article describes the interaction of nature and society in the development of components and other raw

materials within the framework of a localization program, as well as the manifestation of human thinking in environmental activities.

Keywords: Localization, modernization, employment, environment, society, secondary resources, natural resources, ecological culture.

Ўзбекистон республикасида истиқлол шарофати билан халқ фаровонлигини таъминлашга қаратилган ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий соҳаларда кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида мулкни давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш хамда хусусий тадбиркорликни ривожлантириш туфайли кўп укладли иқтисодиёт шаклланди ва фаолият кўрсатмоқда. Хўжалик юритувчи субъектлар бозор талаблари асосида ишлаб чиқаришга инновацион технологияларни кенг жорий қилмоқдалар, мавжуд ишлаб чиқариш фондлари техник модернизация асосида фаолият кўрсатмоқда. Шунга мутаносиб равишда, ишлаб чиқариш тузилмаси хам диверсификация қилинмоқда. Ушбу тоифадаги хўжалик юритувчи субъектлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, истеъмол бозорларини товар ва маҳсулотлар билан тўлдириш, аҳолининг бандлигини таъминлаш билан бирга, хўжаликлар даромадининг асосий объектига айланиб бормоқда.

Аммо таъкидлаш жоизки, ушбу хўжалик юритувчи субъектларнинг маҳаллийлаштириш дастури доирасидаги фаолиятлари анча суст аҳволда, бу эса ўз навбатида маҳсулот таннархини ошириб, оқибатда уларнинг самарадорлик кўрсаткичларини паст даражада қолдирмоқда.

Маҳаллийлаштириш дастури доирасида улар табиат билан ўзаро мулоқотда бўлади, натижада атроф-муҳит ва жамиятга ўзининг таъсирини ўтказади. Шуларни инобатга олган ҳолда рўй бериб турадиган ҳодиса бўлган иқтисодий инқирознинг олдини олиш мақсадида асосий вазифалардан бири табиий ресурслардан, шунингдек, иккиламчи ресурслардан оқилона фойдаланиш, бу соҳадаги ишлар кўламини янада кенгайтириш, улар салоҳияти имкониятларини тўлиқ изга солувчи механизмлар, йўналишлар ва усулларни қидириб топиш ҳамда амалиётда қўллай олиш кун тартибига қўйилиши лозим бўлган масалалардан биридир.

Ана шундай йўллардан бири – табиат ва инсон, табиат ва жамият нуқтаи – назаридан, экологик онг, қарашлар орқали экологик маданиятни шакллантиришдир.

Хўжалик амалиётида аввалом бор асосий субъект бўлиб инсон иштирок этади, инсон ижтимоий тизимда асосий бўғин, бошқарув объекти ва субъектидир. Инсон ўз фаолияти билан табиатга, жамиятга ва атроф-муҳитга таъсир этса, у бошқарув субъектига айланади. Инсон ўзини, ўз фикрини, хулқини, ишлари ва ҳаракатларини ҳам бошқаради. Шу боисдан ҳам, онгли равишда амалга оширилган фаолият орқасидан инсон маданияти юзага келади.

Инсон ўзи қачонки қилаётган ишидан самара ололса, уни қаноатлантирсагина юқори маданиятли нуқтага етади, унда ижобий тафаккур пайдо бўлади.

Инсонларда табиатга, жамиятга ва атроф-муҳитга нисбатан ижобий тафаккурнинг шаклланишида қуйидагилар бирламчи ҳисобланади:

- хўжалик юритишнинг табиат билан мулоқотсиз бўлмаслиги ва шу боисдан ҳам бетакрор табиатга муносабатнинг шаклланиши;
- табиий ресурсларнинг табиат тизимидаги тутган ўрни, манбалари, хўжаликда фойдаланиш хусусиятларига кўра чекланганлиги;
- ресурслар чекланганлиги сабабли улардан рационал фойдаланиб, мамлакатнинг бетакрор табиатини келажак авлодларимиз бўлган фарзандларимизга асл ҳолда қолдиришимиз кераклиги.

Юқорида қайд этилган бирламчи ҳисобланган заруратнинг инсонлар тафаккуридан ижобий ўрин олишида, аввалом бор оиланинг, шунингдек, таълим муассасалари, фуқаролар ўзини-ўзи бошқариш идораларининг кенг иштироки зарур бўлади.

Атроф-муҳит муҳофазаси бўйича кейинги босқич йўналиш бу – инсон хўжалик фаолиятида, айниқса саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда потенциал хом ашё ҳисобланган чиқитлар, яъни иккиламчи ресурсларнинг тўпланиши ва улардан фойдаланиш самарадорлигидадир.

Мамлакат ўзининг тараққиёт ва демократия йўлида ўзининг табиий бойликларига таянар экан, табиий ресурслардан комплекс фойдаланиш муҳим аҳамиятга эгадир. Мамлакатнинг иккиламчи ресурслари структурасида пахта саноатининг, тўқимачиликнинг, шу жумладан маиший чиқитларнинг салмоғи каттадир. Масалан, бир тонна пахта чиқитларидан иккиюз хилдан ортиқ буюмлар ишлаб чиқариш мумкин. Бундан ташқари минерал хом ашё ҳисобланган рудадан олинган пўлат, темирга нисбатан металл ломларини қайта ишлаш 70 % га арзонга тушади ва бунда ҳар бир тонна пўлат ҳисобига 1,5 тонна руда, 0,2 тонна кокс моддаси тежалади, 60 % кам энергия сарфланади, ҳавонинг ифлосланиши 15 % га, сувнинг ифлосланиши эса 60 % га камаяди. Материаллардан иккиламчи фойдаланиш мамлакат тараққиётининг комплекс муаммоларини ечишга хизмат қилади, [1] жумладан:

- табиий бойликлар ўзлаштирилмаган ҳолатда, асл ҳолича келажак авлод вакилларига мерос бўлиб қолади;
- бирламчи хом ашё истеъмоли камаяди;

- ер, сув ва атмосферанинг ифлосланиши камайиб, атроф–муҳит муҳофазаланади, экологик барқарорлик вужудга келади;

- меҳнат русурсларининг меҳнат шакли ўзгариб, меҳнат унумдорлиги ўсади, самарадорлик таъминланади;

- мамлакат халқаро меҳнат тақсимотида ўз мавқеига эга бўлади [2].

Иккиламчи ресурслар тўпланишининг мониторингини олиб бориш ва уни қайта

ишлаш мақсадида саноат ҳудудларида мазкур йўналишга хизмат қилувчи бир нечта кичик бизнес субъектларини ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Уларнинг вазифаларига қуйидагиларни киритиш зарур:

- иккиламчи ресурслар шаклланиши ва тўпланишининг узоқ муддатли башоратини тармоқлар ва ҳудудлар бўйича ишлаб чиқиш, ҳамда мунтазам мониторингини олиб бориш;

- иккиламчи ресурсларни махсус белгиланган жойларга тўплаш мақсадида гуруҳлар ташкил қилиш ва унга аҳолининг фаол қисмини жалб қилиш ;

- иккиламчи ресурслардан рационал фойдаланишнинг иқтисодий рағбатлантириш механизмини ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш;

- иккиламчи ресурсларнинг мамлакат ташқарисига чиқиб кетишининг олдини олиш.

Мазкур жараённи йўлга қўйишда албатта давлат, нодавлат ташкилотларининг, бозор инфратузилмасининг ҳамда жамоат тузилмаларининг беқиёс кўмаги лозим бўлади.

Бундан ташқари, мамлакатнинг бой табиий ресурслар салоҳияти саналган биологик, рекреация ресурсларидан рационал фойдаланиш бўйича ҳам бир қатор иқтисодий рағбатлантириш механизмларини қўллаб, экологик барқарорликни таъминлаш ва шунингдек, туризм, спорт ва соғломлаштириш соҳалари орқали мамлакатни дунёга кенг танитиш мумкин.

Юқорида баён этилганларни умумлаштирган ҳолда, шуни айтиш мумкинки, бугунги кунда мамлакат табиий ресурслар салоҳиятидан оқилона фойдаланиш, уни авайлаб асраш, уни келажак авлодларимиз бўлган фарзандларимизга асл ҳолича етказиш орқали табиат мусаффолигини сақлаш мамлакатда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг таркибий қисми ҳисобланади. Зеро, буни айнан ушбу мақсадда ташкил қилинган Ўзбекистон экологик ҳаракатининг фаолиятида ва унинг ўз олдидаги дастурий вазифаларида ҳам кўриш мумкин.

Adabiyotlar:

1. Alimov T.A., Xaskin V.V. Ekologiya. Ucheb. Posob. M.2014

2. Alimov T.A., Rafiqov A. Ekologik xatolik saboqlari T. O`zbekitson

QURILISH MAJMUASIDA MENEJMENTNI TASHKIL QILISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

Soatov Anvar Mahkamovich, katta o‘qituvchi
Jizzax Politexnika instituti

Maqolada qurilish majmuasida menejmentni tashkil qilish maqsadida transformatsiyalash asosida ishtimoiy sherikchilik yo‘nalishida yangi tashkiliy tuzilmalarga asos solish uchun tavsiyalar, shuningdek, dasturiy-maqsadli menejment turlari sifatida matritsali menejment tuzilmalarini amaliyotga joriy etish yo‘nalishlari va uning difersifikstsion mazmun mohiyati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Transformatsiya, difersifikatsiya, ishtimoiy sherikchilik, gorizontal va vertikal tuzilmalar, chiziqli-funktsional tuzilma, dasturiy-maqsadli menejment, matritsali menejment tuzilmalari.

В статье представлены рекомендации по созданию новых организационных структур в сфере социального партнерства на основе трансформации с целью организации управления в строительной отрасли, а также направления внедрения матричных структур управления как видов программно-целевого управления. и его дифференцированное содержание.

Ключевые слова: Трансформация, дифференциация, социальное партнерство, горизонтальные и вертикальные структуры, линейно-функциональная структура, программно-целевое управление, матричные структуры управления.

The article provides recommendations for the establishment of new organizational structures in the field of social partnership on the basis of transformation in order to organize management in the construction industry, as well as directions for the implementation of matrix management structures as types of program-targeted management and its differentiated content.

Keywords: Transformation, differentiation, social partnership, horizontal and vertical structures, linear-functional structure, program-targeted management, matrix management structures.

So‘ggi paytlarda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish xo‘jalik ish yurituvlarida xo‘jalikni transformatsiyalash asosida ishtimoiy sherikchilik yo‘nalishida diversifikatsion faoliytni yo‘lga qo‘yish shu asosida menejmentni tashkil etishning yangi shakllarini joriy qilish dolzarb masala bo‘lib bormoqda.

Buning uchun esa yangi menejment tuzilmalarini shakllantirish, ularga xos va mos bo‘lgan yo‘nalishlarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Qurilish ishlab chiqarishining o‘zaro hamkorlikka asoslangan tuzilmalarida esa menejment tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy menejment tizimlarini har xil o‘ziga xos shakllari bilan farqlash uchta asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- menejment jarayonining alohida funktsiyalarini amalga oshirish uchun vakolat va javobgarlikni quyi darajalarga tushirish;
- menejment faoliyatining ayrim turlarini amalga oshirishga ixtisoslashgan tashkiliy bo‘linmalarni ajratish;
- xo‘jalik faoliyatiga doir qarorlarni jamoviylashtirish.

Ushbu bardavomiyliklar vazifaviy cheklanganning tashkiliy tarkibida o‘z aksini topadi. Ushbu tizimlarda shtabli bo‘linmalarga ma’lum huquqlar berilgan va shu bilan birga qat’iy belgilangan funktsiyalarni bajarish uchun ularning mas’uliyati oshiriladi va ular o‘zlari bir qator masalalar bo‘yicha ko‘rsatmalarni quyi darajalarga berishlari mumkin. Har xil turdagi qurilish tashkilotlarini yaratishda funktsiyalarni markazlashtirish alohida qurilish tashkilotlari va tarmoqlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash uchun sharoit yaratadi. Qurilish ishlab chiqarishining jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy sharoitida qurilishni maqsadli va funktsional boshqarishning eng samarali uyg‘unlashtirish shakllarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

Bunday uyg‘unlashuvning misolini yirik energetika tuguni qurilishi menejmenti tizimida ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, qurilish ishlab chiqarish ko‘lamining o‘sishi, yirik tashkilot va uyshmalarning tashkil etilishi, axborot to‘plash va qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish imkoniyati uchun yangi tashkiliy tuzilmalarga asoslangan yangi boshqaruv apparatini yaratishni shart qilib qo‘yadi. Ushbu rivojlanishning asosiy yo‘nalishi - qurilish sohasidagi o‘zgarishlarga tezkor javob beradigan transformatsion tuzilmalarga o‘tishdir. Ushbu jarayon o‘z menejment jarayonini boshqa menejment shakllari bilan integratsiyalashtirish asosida menejmentning chiziqli-funktsional tuzilmasini yanada rivojlantirishda o‘z ifodasini topadi.

Ma’lumki, menejment tuzilmalari gorizontal ravishda har qanday darajadagi bo‘g‘inlar majmuasidan (masalan, qurilish va montaj tashkilotlari, boshqarmalar) tashkil topgan bo‘g‘inlarga yoki funktsional jihatdan alohida bo‘g‘inlarga, vertikal ravishda esa – menejment darajalariga bo‘linadi. To‘g‘ri chiziqli gorizontal tuzilmalar doirasidagi gorizontal muvofiqlashtirishning tashkiliy mexanizmlari dasturiy-maqsadli menejment tizimlari deb ataladi, ularning mohiyati chiziqli-funktsional tuzilmada maxsus dastur yordamida berilgan maqsadga erishish uchun yaxlit va tizimli yondashuvdir [1].

Dasturiy-maqsadli menejment turlariga esa quyidagilar kiradi: loyihalar menejmenti, mahsulotlar menejmenti, innovatsion xizmat va boshqalar.

Ilmiy-tadqiqot va loyihalashga ixtisoslashgan qurilish tashkilotlarida bajariladigan vazifalar doirasidagi funktsional va chiziqli bo‘linmalarning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydigan aloqalarda *matritsali menejment tuzilmalarini* qo‘llash maqsadga muvofiqdir [2]. Bunday holda, funktsional xizmatlarning har bir xodimiga ma’lum bir loyiha (mahsulot) beriladi. Bu ikki taraflamalik bo‘ysunishga olib keladi, chunki xodim bir vaqtning o‘zida loyiha (mahsulot) bo‘yicha boshqaruvga va funktsional-vazifaviy xizmatda ro‘yxatga olingan.

Loyiha guruhining rahbari nimani va qachon bajarish kerakligini belgilaydi va funktsional guruh rahbari vazifani qanday bajarishni hal qiladi, mutaxassisning takliflarini ma’qullaydi. Matritsali tuzilmalar butun loyiha tashkilotida ham, alohida xizmatlarda ham qo‘llaniladi.

Yuqorida muhokama qilingan zamonaviy menejment tuzilmalari ko‘plab turlanishlarga ega. Ularning barchasi aniq maqsadlarga erishishga aniq yo‘naltirilganligi, yuqori egiluvchanligi, ishning tugashi yoki ma’lum bir menejment tuzilmasini tugatish sanasini ko‘rsatgan holda aniq ishlash muddati bilan tavsiflanadi. Qurilishda yuqorida aytib o‘tilgan inshootlarga misol qilib, yirik va murakkab majmualarda qurilish shtabli bo‘linmalar tashkil etilmoqda. Shtab boshlig‘i majmuani qurish bilan bog‘liq barcha masalalarni, boshqa rasmiy lavozimidan qat’iy nazar hal qiladi.

Amalda odatiy tuzilmalar ko‘pincha ma’lum qurilish sohalari uchun ishlatiladi. Bunday tuzilmalar markazlashtirilgan tarzda ishlab chiqilgan va har bir alohida qurilish ishlab chiqarishi uchun o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq hisobga olgan holda eng oqilona menejment tizimini tanlashda asosiy tuzilmalar sifatida tavsiya etiladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, qurilishda menejment tizimini takomillashtirish orqali qurilish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmaydi [3]. Qurilish tashkilotlari, markaziy boshqarmalar, uyushmalarning tashkil etish tamoyillarini, ishlash mexanizmini va qurilish ishlab chiqarishining kontsentratsiyasi va ixtisoslashuv darajasini tahlil qilish kerak. Idoraviy tarqoqlikni bartaraf etish, tarmoq va hududiy menejmentni yanada moslashuvchan uyg‘unlashuvi, qurilish majmuasini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini amalga oshirish menejment tuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo‘lidir.

Samarali tuzilma ob’yektning o‘zida va butun menejment tizimidagi o‘zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo‘lishi kerak. Boshqaruv apparati tuzilishining sifati va uning ish samaradorligi menejment funktsiyalarini aniqlashning to‘liqligiga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda qurilishda mavjud bo‘lgan tarmoq va hududiy menejment shakllarini

takomillashtirish va ishlab chiqish bo‘yicha juda ko‘p ishlar olib borilmoqda. Turli darajalarda menejment tuzilmalarini rivojlantirish uchun maxsus xizmatlar yaratilmoqda.

Bir qator idoralarda va qurilish vazirliklarida menejmentni takomillashtirish va shu kabi ishlarga uslubiy rahbarlik qilish muammolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan bo‘g‘inlar mavjud va tegishli bo‘lim va bo‘limlar tashkil etilmoqda.

Samarali menejment tuzilmasi me’zonlari quyidagilardir: menejment aloqalarining uning funktsiyalariga muvofiqligi; menejment iyerarxiyasidagi eng kichik darajalar (bo‘g‘inlar); barcha kerakli menejment funktsiyalarining har bir darajasida kontsentratsiya; funktsional bo‘linmalarning funktsional birliklarda konsentratsiyasi (masalan, barcha iqtisodiy xizmatlar bosh iqtisodchi nazorati ostida birlashtirilgan); har bir bo‘g‘in uchun yagona menejment jarayonida ishtirok etish uchun haqiqiy imkoniyat, funktsiyalarning takrorlanishiga barham berish, har bir menejment bo‘g‘ini uchun ko‘rsatmalarning “qabul qilish” va “chiqish” manbalarining eng kam miqdori. Iqtisodiy me’zon qabul qilingan menejment tizimini yaratish, saqlash va undan foydalanish uchun pasaytirilgan xarajatlarning ko‘rsatkichi bo‘lishi kerak.

Chiziqli va funktsional munosabatlarning yanada rivojlanishi qurilish ishlab chiqarish menejmenti uchun ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy talablariga javob beradigan va qurilish majmuasi samaradorligini oshirishning muhim va murakkab muammolarini hal qilishga hissa qo‘shadigan yangi tashkiliy tuzilmalarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Янчевский В.Г. Система управления строительством: формирование и функционирование. – М.: Высшая школа, 2015.

2. Веснин В.Р. Менежмент в схемах и определениях: Учебное пособие. - М.: Проспект, 2009.-120 с

3. Кане М.М., Иванов Б.В, Корешков В.Н, Схиртладзе А.Г. Системы, методы и инструменты менежмента качества: Учебник для вузов. Под ред. М.М.Кане.- СПб.: Питер, 2009.-560 с.

QURILISH MAJMUASIDA KLASTERNI YARATISH JIHATLARI

Soatov Sharof Anvarovich, mustaqil ilmiy izlanuvchi
Jizzax Politexnika Instituti

Maqolada iqtisodiyotning qurilish majmuasida o‘zaro xo‘jaliklararo hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yuritish klasterining mazmun mohiyati va uning namoyon bo‘lish jihatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Klaster, diversifikatsiya, kooperatsiya, real sektor, franchayzing, subpudrat, lizing, rentabellik.

В статье раскрыто содержание экономического кластера и его проявления для реализации межхозяйственной кооперации в строительном секторе экономики.

Ключевые слова: Кластер, диверсификация, кооперация, реальный сектор, франчайзинг, субподряд, лизинг, рентабельность.

The article reveals the content of the economic cluster and its manifestations for the implementation of inter-farm cooperation in the construction sector of the economy.

Keywords: Cluster, diversification, cooperation, real sector, franchising, subcontracting, leasing, profitability.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo mahalliy xom ashyo resurslarin chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot islab chiqarishni jadal rivolantirishga qaratilgan sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va deversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatdosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot turlarini va o‘zlashtirish, shu asosida ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatdoshligii ta’minlash, belgilangan.

Ammo, yanada modernizatsiya uchun bugungi kun talabi bo‘yicha yuqorida zikr etilgan ustuvor yo‘nalishlarni izchil, samarali, tizimli va jadal ravishda amalga oshirish uchun zaruriy usul va vositalar kerak bo‘ladi. Ana shunday usul va vositalardan biri – bu xo‘jalik yuritish klasteridir.

Dolzarbligi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, xo‘jalik yuritish klasteri yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui bo‘lib, u ilm-fan, ta’lim hamda xo‘jalik yuritish kooperatsiyasini chuqurlashtirish, yangi texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishni imkoniyatini o‘zida nomoyon etadi. Xo‘jalik yuritish klasterining asosiy negizini xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi tashkil etadi. Xo‘jalik yuritish klasteri doirasidagi kooperatsion aloqalar umumiy maqsadlarga erishish (tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun jismoniy va yuridik shaxslarnng ixtiyoriy birlashuvini yoki o‘zaro hamkorlik qilishini o‘zida aks ettiradi. O‘z navbatida, kooperatsion aloqalar hamkorlik bosqichi bo‘yicha texnologik to‘plam, texnologik bog‘lamiga aylanib xo‘jalik yuritish klasterini vujudga keltiradi [1].

Xo‘jalik yuritish klasterining pirovardida xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o‘tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi. Klasterni

yaratish esa olim va iqtisodchilar, qurilish-montaj tashkiloti hamda qurilish industriyasi sanoati, shuningdek, Infratuzilmaviy tashkilotlar hodimlari salohiyati, ularning ilg‘or tajribasini yagona maqsad yo‘lida birlashtirishni taqozo qiladi. Masalan, iqtisodiyotning real sektori korxonalarida (sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi) xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi va klasterini tashkil qilish va rivojlantirish uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar mavjud.

Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar o‘rtasidagi kooperatsiyasi va klaster aloqalari turli xildagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda, bizning firimizcha, resurslar yetkazib beruvchi va qayta ishlovchi, shuningdek, mahsulotni sotishga ixtisoslashgan korxonalar bilan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar kooperatsiyasi va klasterini subpudrat asosida, texnologik uskunalar va butlovchi qismlar yetkazib beruvchi korxonalar bilan – lizing asosida, mayda ulgurji tovarlar ishlab chiqaruvchi sub’yektlar bilan esa – franchayzing asosida aloqani ta’minlash maqsadga muvofiq.

Dastlabki o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining xo‘jalik yurituvchi sub’yektlari kooperatsiyasi va klasteri jarayonlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan ushbu korxonalarning qayta tarkiblanishi va ular ichidan mayda ulgurji va past rentabelli korxonalarning ajratilishiga va ularga moliyaviy mustaqillik va shu bilan birgalikda hamkorlik maqomining qoldirilishi bilan bog‘liq. Xo‘jalik yuritish klasteri quyidagi tamoyillar asosida barpo etiladi.

- ishlab chiqarishni uning balansida ushbu ishlab chiqarishga bevosita aloqador bo‘lmagan tuzilmalarni ushlab turishdan halos etish;

- mayda ulgurji, past rentabelli va zarar keltiruvchi ishlab chiqarishlarni kichik biznes korxonalariga topshirish yo‘li bilan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishining texnologik tizimini ulardan xalos etish;

- davlat mulkini xususiylashtirish imkoniyatlaridan foydalanish va shu asosida kichik tadbirkorlikning yanada rivojlanishini ta’minlash [2].

Xulosa va natijalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak, iqtisodiyotning qurilish sektorida, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi va klasteri masalalarini amaliy jihatdan hal etishda bozor infratuzilmalarining, shu jumladan, bank, marketing, konsalting, ta’minot, savdo-vositachilik, sotish va boshqa tuzilmalarning roli ortadi. Shu munosabat bilan ularning rivojlanishiga alohida e’tiborni qaratish lozim. O‘z navbatida ta’kidlash joizki, xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi va klasteri innovatsiyaga ko‘maklashuvchi muhim vosita bo‘lib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda zamonaviy korxonalarning ko‘payishiga mustahkam zamin yaratadi. Pirovardida qo‘shimcha qiymat zanjiri yaratilib butun mahsulot yaratish texnologik zanjirida boshidan oxirigacha butun jamoa mahsulotdan keladigan nafdan bahramand bo‘loadi, ya’ni qo‘shilgan qiymat zanjirini hosil qiladi, eksport salmog‘i ko‘payadi, shuningdek, ishlab chiqarish va tender savdosi munosabatlari takomillashuvi hisobiga katta iqtisodiy samara keltiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

2. Berkinov B.B, Aynaqulov M.A. Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi. Monografiya. -JizPI kichik bosmaxonasi,-2014. -114 b.

QURILISHDA KASANACHILIK, KOOPERATSIYA VA KLASTER TUSHUNCHALARI VA ULARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Xatamov Aziz Yaxraqulovich, mustaqil ilmiy izlanuvchi
Jizzax Politexnika Instituti

Maqolada kasanachilik, kooperatsiya va klasterlar tushunchalariga ta’rif berilgan va ularning o’zaro bog‘liqligi yoritilgan bo‘lib, unda kasanachilikning oilaviy mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashuvi bayon qilingan.

Kalit so’zlar. Kasanachilik, kooperatsiya, klaster, oila, YaIM, muloqot-naflilik zanjiri, mehnat resurslari.

В статье описываются концепции надомного труда, кооперативов и кластеров и объясняются их взаимосвязи, объясняется сочетание надомного труда с семейным трудом.

Ключевые слова: Надомный труд, кооперация, кластер, семья, ВВП, коммуникационная цепочка, трудовые ресурсы.

The article describes the concepts of home-based work, cooperation and clusters, and explains their interrelationships, explaining the combination of home-based work with family work.

Keywords: Home-based work, cooperation, cluster, family, GDP, communication chain, labor resources.

So‘nggi paytlarda ilmiy adabiyotlarimizga kasanachilik, kooperatsiya va klaster atamalari bir-biriga bog‘langan holda kirib kelmoqda.

Xo‘sh mazkur atamalarning ma’nosi nima va ular bir-biri bilan qanday aloqada?

Avvalombor, kasanachilik oiladan uy

xo‘jaligidan boshlanadi.

Oila – an’anaviy tarzda nikoh-qarindoshchilik munosabatlari asosida hayot kechirishni, birgalikda yashashni bildiradi.Oilaning asosiy maqsadli funksiyasi-insonni dunyoga keltirish,uy xo‘jaligiiki esa–inson salohiyatini qayta tiklashdir.Shu nuqtai–nazardan,uy xo‘jaligining asosiy funksiyasini inson kapitalini ishlab chiqarish, realizatsiya qilish va asrash sifatida belgilash lozim.Inson kapitali, o‘z navbatida, insonning bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va mehnat sa’y-harakatlari yig‘indisi sifatida tushuniladi.Oilada farzand voyaga yetib uy xo‘jaligida topilgan daromad hisobidan ma’lum bir xarajatlar evaziga bilim ko‘nikma, malaka bilan salohiyatga ega bo‘lib mehnat resurslari safiga kelib qo‘shiladi. Mehnat resurslari esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyot ishtirokchisi, uni rivojlantiruvchi, siljituvchi, uning YaIMini to‘ldiruvchi sub’yektdir.

Mehnat resurslari maqsad ila qurilish tashkiloti faolyatida mehnat qiladi, innovatsion faolyatga kirishadi. Mazkur yo‘nalishda o‘z-o‘zidan kooperatsiyaga zaruryat paydo bo’ladi.O‘z mohiyatiga ko‘ra qurilish ishlab chiqarishi (xizmat ko‘rsatishi) kooperatsiyasi umumiy maqsadlarga erishish uchun jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashuvini yoki o‘zaro hamkorlik qilishini o‘zida nomoyon qiladi [2].

Darhaqiqat, qurilish majmuasi ishtirokchilarida sanalgan jismoniy va yuridik shaxslarda ham har xil iste’mol tovarlariga va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj ularda o‘z-o‘zidan turli xildagi iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar bilan muloqatga kirishishiga zarurat tug‘diradi. Ko‘p hollarda iqtisodiy jihatdan nofaol aholi qatlamlari, shuningdek, vaqtincha band bo‘lmagan shaxslar uy sharoitida, ya’ni farzand tarbiyasi bilan mashg‘ul bo‘lgan ayollar, hunarmandlar, kosiblar uy mehnatiga asoslangan kasanachilikka kirishadilar.

O‘z navbatida ta’kidlash joizki, kasanachilik faolyati ham ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasi orqali amalga oshiriladi.Hukumat qarori bilan kasanachilik to‘grisidagi Nizom tasdiqlangan [3]. Zero, mazkur hujjatda ko‘zda tutilgan tadbirlarni hayotga tadbiq etish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish inkonyatini beradi. Xususan, ish bilan band bo‘lmagan aholini qurilish ishlab chiqarishiga (xizmat ko‘rsatishiga) jalb etish, oila byudjeti daromadlarini ko‘paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda karkaslar, beton qoliplar, butlovchi qismlar tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va ba’zi bir xizmatlar ko‘rsatishini tashkil etish yo‘li bilan yirik korxonalar faolyati samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Kasanachilik -16 yoshdagi va undan katta yoshdagi (agarda kasanachilik xususiyati kasanachi bilan to‘liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to‘g’risida shartnoma tuzilishi zarurligini talab etsa,18 yoshdagi) jismoniy shaxs ya’ni kasanachi tomonidan ish beruvchi bilan shartnoma asosida ish beruvchining ishlab chiqarish joyidan tashqarida o‘z uyida yoki o‘ziga yoxud uning oila a’zolariga tegishli boshqa joyda ish beruvchining buyurtmasiga binoan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish maqsadida ishlarni bajarish bilan bog’liq faolyat hisoblanadi [3].

O‘z-o‘zidan ma’lumki, qishloq joylaridagi kam ta’minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni temir daftarga yoki yoshlar daftariga kiritish va o‘z navbatida ularni ish bilan ta’minlash davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi kunlarda bir shaxsning ikkinchi bir shaxs (jismoniy yoki yuridik) bilan faolyatlari samaradorlik jihatidan bir-biri bilan uyg‘unlashuvi talab qilinar ekan,ular muloqoti ma’lum bir masofaviy xarakterga ega bo‘lsa bu jarayon o‘z navbatida albatta, ma’lum vaqt bilan birgalikda ma’lum xarajatlarni ham talab qiladi.Shundan kelib chiqqan holda ular faolyatini uyg‘unlashtiruvchi **“muloqot-naflilik zanjiri”** lozim bo‘ladi.

“Muloqot-naflilik zanjiri’’ ning bir xo‘jalik yuritish doirasida amalga oshirilishi xo‘jalik klasterini vujudga keltiradi. Xo‘jalik klasteri ham o‘z mohiyatiga ko‘ra yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan xo‘jaliklar majmui bo‘lib u ilm-fan, ta’lim hamda ularning o‘zaro hamkorligini chuqurlashtirish, yangi texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etish imkoniyatini o‘zida namoyon etadi. Xo‘jalik klasterining asosiy negizini xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi tashkil etadi.O‘z navbatida, kooperatsion aloqalar hamkorlik bosqichi bo‘yicha texnologik bog‘lam, texnologik to‘plamga aylanib xo‘jalik klasterini vujudga keltiradi.Klasterning pirovardida xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o‘tib eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi.

Klasterni yaratish pirovardida olimlar, iqtisodchilar, qurilish-montaj, sanoat tashkiloti, shuningdek, infratuzilmaviy tashkilotlar va ularning ilg‘or tajribasini yagona maqsad yo‘lida birlashtirishni taqozo etadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, “Xo‘jalik yuritishlarni asta sekinlik bilan klaster shakliga bosqichma-bosqich o‘tkazish bo‘yicha izlanishlarimizni davom ettiramiz. Parlamentimiz ushbu islohotlarimizning huquqiy asosi bo‘lgan **“Kooperatsiya va klasterlar to‘g‘risida**” gi yangi qonunni tezroq qabul qilsa ushbu katta reja va niyatlarimizga mos ish bo‘lur edi” [1].

Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur jarayonlarning huquqiy asosi yaratilgan bo‘lib ular jumlasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 11-yanvardagi 4-son qarori bilan tasdiqlangan “Kasanachilik to‘g‘risidagi Nizom”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Kooperatsiya to‘g‘risidagi” Qonuni kiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Jizzax haqiqati” 2020-yil 25-yanvar.
2. Berkinov B.B., Aynaqulov M.A. “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi ”. Jizzax.: 2004-114 b.
3. Berkinov B.B. “Kooperatsiyaga asoslangan kasanachilik”. Ilmiy-ommabop nashr.TDIU.: 2008-30 b.

ҚУРИЛИШДА ОИЛАВИЙ ПУДРАТ ИМКОНИЯТЛАРИ

Холиқов Давлат Рахматович, ассистент
Жиззах политехника институти

Мақолада оилавий пудратнинг иқтисодиётнинг қурилиш мажмуасининг иқтисодий тизимларидаги алоҳида ўрни унинг микроиқтисод билан сўнгра макроиқтисод билан уйғунлашув асослари, шунингдек, пандемия даврида оилавий шароитларда уй меҳнатини ташкил этиш йўналишлари баён қилинган.

Калит сўзлар: Пандемия, инқироз, уй хўжалиги, оилавий пудрат, микро ва макроиқтисод, меҳнат ресурслари, инсон капитали, бозор коньюктураси.

В статье раскрывается особая роль семейного подрядчика в экономических системах строительного комплекса экономики, основы его интеграции с микроэкономикой, а затем с макроэкономикой, а также направления организации домашнего труда в семье в период пандемии.

Ключевые слова: Пандемия, кризис, домохозяйство, семейный договор, микро- и макроэкономика, трудовые ресурсы, человеческий капитал, рыночные условия.

The article describes the special role of family contracting in the economic systems of the building complex of the economy, the basics of its integration with microeconomics and then macroeconomics, as well as the organization of domestic labor in the family during the pandemic.

Keywords: Pandemic, crisis, household, family contract, micro and macroeconomics, labor resources, human capital, market conditions.

Ўзбекистонда мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб ўз Ҳаракатлар стратегиясига асосланиб амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар, давлат мулкини хусусийлаштириш ва хусусий тадбиркорликга кенг йўл очиш натижасида кўп укладли иқтисодиёт шаклланди ва фаолият кўрсатмоқда. Унда турли тармоқ ва соҳаларга мансуб бўлган акциядорлик жамиятлари шаклидаги йирик корхоналар билан бирга аҳоли ташаббуси билан барпо этилган масъулияти чекланган жамиятлар, хусусий корхоналар тоифасидаги кичик тадбиркорлик корхоналар хусусан, оилавий пудрат асосидаги хўжалик субъектлари асосий ўрин тутади. Мамлакатимизда пандемия шароитида карантин қоидаларини сақлаган ҳолда уй меҳнатини ривожлантиришга ва унинг институционал асосларини яратишга муҳим ахамият берилмоқда. Бу борада иш берувчи корхоналар учун ҳам, оилавий пудрат асосидаги иш юритувчи аҳоли учун ҳам рағбатлантиришнинг яхлит ва таъсирчан тизими яратилган. Бугунги босқичда оилавий пудрат соҳаси бандлик ва оила бюджети даромадларини оширишнинг қўшимча манбаига айланиб бораётганини ҳеч ким инкор этолмайди. Айни вақтда оилавий пудрат фуқароларни, биринчи навбатда, хотин-қизлар, айниқса кўп болали аёлларни, ёрдамга муҳтож ногиронлар ва меҳнат қобилияти чекланган бошқа шахсларни ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш фаолиятига жалб этиш учун муҳим ижтимоий аҳамият касб этмоқда. Шуларни ҳисобга олган ҳолда, қурилиш тармоғида оилавий пудрат асосида хўжалик юритадиган фаолиятлар кўламини янада кенгайтириш, улар имкониятларини тўлиқ изга солувчи йўналишлар ва усулларни қидириб топиш, ҳамда амалга жорий этиш карантин пайтларида мамлакатимизда иқтисодий инқирозга юз тутмасликнинг йўналишларидан бири ҳисобланади.

Иқтисодий жиҳатдан қараганда, уй хўжалиги бу оилада юритилиб фаолиятини олиб боради, лекин буни рўзғордаги хўжалик ишлари деб тушуниш нотўғри, чунки бу тушунча иқтисодий фаолият юритувчи оилавий мехнат субъектини англатади. Уй хўжалигининг аксарият қисмини оилавий пудрат асосида ишловчилар ташкил этади.

Оилавий пудратнинг иқтисодий мазмуни шундан иборатки, у пировард махсулот ишлаб чиқариш жараёнида оилавий пудрат аъзолари билан йирик хўжалик субъекти ўртасидаги иқтисодий муносабатлар, яъни кооперация шаклларидир. Оилавий пудрат микро (кичик доирадаги) иқтисоднинг бир кўриниши деб қаралади. Ўз навбатида эса микроиқтисодга макроиқтисод, яъни мамлакатнинг миллий иқтисоди боғлиқ бўлади. Шу сабабдан ҳам оилавий пудратнинг миллий иқтисодиёт учун аҳамияти катта ва буни унинг мехнат ресурсларини етказиб бериш, яъни **инсон капиталини шакллантириш, истеъмол этиш ва уй хўжалигини юритиш, шунингдек ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш** каби функцияларини бажаришида кўриш мумкин.

Мамлакатимизда айниқса қурилиш мажмуа-

сида оилавий пудратни йўлга қўйишнинг имкониятлари жуда кенг, чунки истиқомат қилаётган аҳоли таркибида меҳнат ёшидагилар 50 % дан кўпроқни ташкил қилади. Ҳар йили оилалардан 120 минг нафар меҳнат ёшига етган кишилар меҳнат ресурслари сафига қўшилиб боради[1].

Илмий тадқиқот натижаларидан шу нарса аниқланганки, қурилишда оилавий пудрат усулида улар кам салмоққа эга бўлганлиги учун, қолаверса бозор талабларига, бозор коньюктурасига тез мослаша олиши билан энг яхши натижаларга эришади. Шу боис, оилавий пудрат аъзолари сони 8-12 киши атрофида бўлиши керак. Бу эса ўз навбатида, мустақиллик, масъулият ва манфаатдорлик каби бошқарув тамойилларининг уйғунлашувини келтириб чиқаради. Оилавий пудрат азалдан Ўрта Осиё республикаларида енгил қурилиш ишларида, хусусан пахса девор кўтаришда, томнинг устини сувоқ қилишда кенг қўлланилиб келинган ва мавжуд меҳнат ресурсларидан оқилона фойдаланиш, қурилиш-монтаж ишларини ташкил этиш усулларидан бири сифатида ўзини оқлаган.

Бугунги кунда Ўзбекистонда оилавий пудратни йўлга қўйиш учун иқтисодиётнинг базавий тармоқларидан қурилишда, қурилиш саноатида, шунингдек, хизматлар кўрсатишда кенг миқёсдаги имкониятлар мавжуд. Чунки мазкур тармоқларга қарашли хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодиётнинг асосий негизини ташкил этади. Хусусан, 2020 йилда ялпи ички маҳсулотдаги таркиби қурилиш саноати тармоғида 22,3 %, қурилишда 5,6 %, хизматлар кўрсатиш соҳасида 43,4 % ни ташкил этди [2].

Жиззах вилоятида қишлоқ хўжалигининг пахтачилик, чорвачилик ва картошка етиштириш, полиз экинларини етиштириш каби турлари кенг ривожланганлиги сабабли қурилиш хўжалик юритувчи субъектларида асосий қурилиш-монтаж ишлари фаолиятидан ташқари диверсификацион фаолият сифатида қишлоқ хўжалик фаолиятини иккиламчи пассиф фаолият даромад манбаи сифатида йўлга қўйиш ва мазкур фаолиятда оилавий пудрат имконияларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Хусусан, вилоятнинг суғориладиган чўл ҳудудлари (Мирзачўл, Пахтакор, Дўстлик, Арнасой, Зафаробод, Зарбдор ва ҳ.) асосан пахтачилик ва полиз маҳсулотлари етиштиришга, вилоятнинг лалмикор ҳудудлари эса асосан чорвачиликка ихтисослаштирилган. Чунки, суғориладиган ҳудудларда ернинг захлиги сабабли чорвачиликнинг кўп касалликларга чалиниши оқибатида ундан чорвачилик тармоғи бўйича самарали хўжалик юритишда фойдаланиб бўлмайди. Аксинча, лалмикор худудларда чорвачилик тармоғини хўжалик юритишда ривожлантиришнинг имкониятлари мавжуд бўлиб, бироқ деҳқончиликни йўлга қўйиб бўлмайди. Шуларни ҳисобга олиб, суғориладиган ерларда ўз фаолиятини юритаётган қуриш ташкилоти иккинчи фаолияти саналган чорва молларини ривожлантириш учун лалмикор дашт шароитида ўз фаолиятини юритаётган чорвачиликка ихтисослаштирилган қурилиш ташкилотидаги билан чорва молларини боқиб бериш шарти билан пудратчи сифатида оилавий пудрат асосида, лалмикор дашт шароитида ўз фаолиятини юритаётган чорвачиликка ихтисослаштирилган қурилиш ташкилоти эса чўл суғориладиган ҳудудларда чорва моллари учун озуқа етиштириб бериш шарти билан пудратчи сифатида оилавий пудрат асосида кооперация шартномасининг икки томонлама имзолаши мумкинки, бу эса ўз навбатида халқимизнинг бандлигини таъминлашда, шунингдек оилавий даромадларининг ўсиши оқибатида карантин шароитларида иқтисодий инқирозга юз тутмасликнинг асосий омилларидан бири хисобланади.

Қурилиш мажмуасида оилавий пудратнинг ижобий жиҳатларидан яна бири шундаки, иш кучига бўлган мавсумий талабни қондиради, ишга қўшимча ишчи кучлари – мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар колежлари ўқувчиларини, шунингдек, олий таълим муассасаларининг талабаларини, ижтимоий ишлаб чиқаришда мунтазам иштирок этмайдиган фуқароларни жалб этиш имкониятида намоён бўлади. Бу эса ёзги пайтларда қурилиш ишларида асосан қўл келади. Хизмат кўрсатиш соҳасида ҳам оилавий пудратни кенг ёйиш мумкин, масалан умумий овқатланиш шахобчаларида, техник хизмат кўрсатишда, савдо шахобчаларида ижарадаги йўловчи транспортларида оилавий пудратнинг афзаллик томонлари борки, бу жараён одатда, уларнинг қариндошлик ришталари, ўзаро бир-бирини қўллашга таянганликлари билан изоҳланади.

Қуриш тармоғида оилавий пудратнинг ялпи ички маҳсулот суръатини оширишдан ташқари, унинг ҳам ижтимоий-иқтисодий ҳам маънавий-маърифий томонлари мавжуд.

Ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан, қурилишда оилавий пудрат асосидаги қилинган ишлар натижасида олинган даромаддан улушбайчилик қоидаларига биноан, оила мулки шаклланади, сўнгра умумий даромаднинг жамғарилиши асосида кўпайиб боради. Ўз навбатида, оилавий пудрат меҳнатларининг ҳосиласи сифатида шаклланган оила мулки - мамлакат миллий бойлигининг таркибий қисми ҳисобланади.

Маънавий-марифий жиҳатдан, қурилишда тармоғидаги оилавий пудратда инсон капитали шаклланади. Яъни, бу жараёнда оила тарбиясидан четда қолмаган ҳолда келажак ёш авлоднинг ақлий ва жисмоний қобилиятлари камол топади, ўз касбининг устаси сифатида меҳнат ресурслари сафига келиб қўшилади.Ўз навбатида моддий неъматлар яратишда қатнашади ҳамда

жамиятнинг иқтисодий салоҳияти ва унинг тараққиёти учун ҳисса қўшади.

Қурилиш мажмуасида оилавий пудратнинг аҳоли яшаш тарзини оширишда, карантин шароитида иқтисодий инқирозга юз тутмасликда жуда кўплаб қулай томонлари борки, бунинг учун уни ривожлантиришга кўмаклашишнинг қуйидаги потенциал имкониятларига эътибор қаратилиши керак:

- минтақаларнинг потенциал имкониятларига қараб тармоқлар ичида ёки тармоқлараро оилавий пудрат йўлга қўйилиши ва бу жараён давлат бошқарув идоралари томонидан амалга оширилиши керак;

-хўжалик юритишнинг бозор механизмларини кенгайтириш;

- оилавий пудратчиларнинг инновацион фаолиятини кенгайтириш учун молиявий механизмлар ва рағбатлардан фойдаланиш;

- касбга оид йўналишлар бўйича кўникмаларни шакллантириш мақсадида таълим хизматларини кўрсатувчи махсус курсларни ташкил этиш.

Адабиётлар:

1. Ўлмасов А. Оила иқтисоди. – Тошкент.: Меҳнат, 1998.

2. Худайбердиев А.А. Оилавий хўжаликларнинг асосий объект ва субъектлари, уларнинг фаолият механизмлари // Инновационная экономика: проблемы и перспективы развития. Международная научно-практическая конференции (20-21 мая 2021 года) – Т.: “Voris-nashriyot”, 202 стр.

ҚУРИЛИШ КОРХОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ВА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Худайбердиев Абдуазиз Абдувалиевич, техника фанлари номзоди,
Жиззах политехника институти

Мақолада қурилиш ташкилотлари фаолиятини диверсификациялаш ва трансформациялаш мақсадида унинг асосий усуллари ва босқичлари келтирилган, шунингдек, мазкур жараённи дифференциал равишда бошқарув органлари томонидан қўллаб-қувватлаш механизмлари баён қилинган.

Калит сўзлар: қайта таркибланиш, диверсификация, рентабеллик, баланс, технологик тизим, аудиторлик текшируви, стратегия, асосий фондлар, потенциал имкониятлар, маркетинг.

В статье описаны основные методы и этапы с целью диверсификации и трансформации деятельности строительных организаций, а также описаны механизмы дифференцированной поддержки этого процесса управляющими органами.

Ключевые слова: реструктуризация, диверсификация, рентабельност, баланс, технологическая система, аудит, стратегия, основные средства, потенциальные возможности, маркетинг.

The article describes the main methods and stages for the purpose of diversifying and transforming the activities of service entities, and also describes the mechanisms of differentiated support of this process by the governing bodies.

Keywords: restructuring, diversification, profitability, balance sheet, technology system, audit, strategy, fixed assets, potential, marketing.

Кириш. Мамлакатимизда мустақиллик йилларида амалга оширилган кенг кўламли ислоҳотлар миллий давлатчилик ва суверенитетни мустаҳкамлаш, хавфсизлик ва ҳуқуқ-тартиботни, давлатимиз чегаралари дахлсизлигини, жамиятда қонун устуворлигини, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик муҳитини таъминлаш учун муҳим пойдевор бўлди, халқимизнинг муносиб ҳаёт кечириши, фуқароларимизнинг бунёдкорлик салоҳиятини рўёбга чиқариши учун зарур шарт-шароитларни яратди. Олиб борилаётган ислоҳотлар самарасини янада ошириш, давлат ва жамиятнинг ҳар томонлама ва жадал ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ҳамда ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш бўйича устувор йўналишларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони билан “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси” қабул қилинди. Унга кўра III - устувор йўналиш қилиб иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишларида, яъни таркибий ўзгаришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг рақобатбардошлигини ошириш белгиланди [Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7- февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони].

Ўз навбатида таъкидлаш жоизки, иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарнинг қайта таркибланиши, яъни диверсификацияланиши ва трансформацияланиши, ўз моҳиятига кўра ўзининг таркибидан майда улгуржи ва паст рентабелли корхоналарнинг ажратилиши билан изоҳланади.

Тадқиқот усуллари. Мазкур соҳага оид манбаларни ўрганиш натижасида иқтисодиётнинг модернизация қилиниши шароитида йирик қурилиш корхоналарини қайта таркиблаш йўли билан қатор вазифаларни ҳал этиш мумкинлиги асосланди, хусусан:

- қурилиш ишлаб чиқаришини унинг балансида ушбу ишлаб чиқаришга бевосита

алоқадор бўлмаган тузилмаларни ушлаб туришдан халос этиш;

- майда улгуржи, паст рентабелли ва зарар келтирувчи майда бўлимларни касаначиларга топшириш йўли билан хизматларнинг технологик тизимини улардан холос этиш;

- қурилиш корхоналари хўжалик фаолиятини диверсификациялаш имкониятларидан фойдаланиш ва шу асосда кичик тадбиркорликнинг янада ривожланишини таъминлаш.

Қурилиш корхоналарининг стратегик ривожланишини инобатга олган ҳолда, унинг фаолиятини диверсификациялашни амалга оширишга қуйидагича ёндашиш мумкин:

Биринчи босқич. Қурилиш корхонасини комплекс тадқиқ этиш, у қуйидагиларни ўз ичига олади:

- корхона, унинг ташкилий тузилмаси ва бошқарув тизимининг умумий тавсифи;

- корхонанинг мол-мулкини аниқлаш, корхона асосий фондларининг аҳволини инвентаризация қилиш, улардан фойдаланиш самарадорлиги;

- корхонанинг молиявий аҳволини таҳлил қилиш;

- хўжалик фаолияти харажатларини ўрганиш (фойда келтириш даражасини таҳлил қилиш);

- унинг заҳиравий, шунингдек, меҳнат потенциали бўйича иқтидорли имкониятларини ўрганиб чиқиш.

Иккинчи босқич. Рақобат муҳити ва корхонанинг товар бозорларидаги мавқеини таҳлил қилиш ва баҳолаш, у қуйидагиларни ўз ичига олади:

- товарнинг маркетинг тадқиқотини ўтказиш;

- корхона маркетинги соҳасидаги тадқиқотлар.

Учинчи босқич. Қурилиш корхонасини ривожлантириш стратегияси ва уни молиявий соғломлаштириш бизнес-режасини ишлаб чиқиш, у қуйидагиларни ўз ичига олади:

- корхонани ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш;

- корхона фаолияти стратегиясини шакллантириш (ишлаб чиқариш турлари, таъминот-сотиш, ишлаб чиқариш-технологик, нарх-наво, молиявий, инвестицион, кадрлар ва бошқа сиёсатлар);

- ташкилий-бошқарув тизимини шакллантириш;

- ислоҳотлар жараёнини режалаштириш ва уни бошқариш.

Бир жумлани алоҳида қайд этиб ўтиш лозимки, яъни юқорида кўрсатилган масалаларни турли йўналишлардаги консалтинг фирмалари ёрдамида ҳал этиш кутилган натижаларни беради.

Ушбу ишларнинг **биринчи босқичини** амалга оширишда асосий ижрочилар сифатида аудиторлар иштирок этади. Уларнинг вазифаси хизмат кўрсатиш корхонасининг молиявий ҳисоботлари ундаги ҳақиқий ҳолатни қанчалик аниқ акс эттиришини аниқлашдан иборат бўлади. Гап шундаки, кўпинча қурилиш корхонасининг ҳисоб юритиш сиёсати ноаниқ акс эттирилади, бунинг натижасида маҳсулот таннархи ва фойда нотўғри ҳисоб-китоб қилинади ва барча молиявий кўрсаткичларни аниқ ҳисоблаб чиқишнинг имкони бўлмайди. Бундай вазиятдан чиқишнинг иккита йўли мавжуд: ё аудитор ҳисоботларни тўлиқ тиклашни амалга оширади (лекин бу жараён узоқ вақт ва кўп маблағ талаб қилади, бунга қурилиш корхонасининг имконияти бўлмаслиги мумкин), ёки аудиторлар ҳисоботларга ўзгартишлар киритиш бўйича тавсиялар беради, бу тавсияларни эса, қурилиш корхонасининг ўзи бажаради. Биринчи босқичнинг асосий вазифаси иқтисодий ва молиявий кўрсаткичлар асосида бажарилган ишларга нархлар белгилашга сезиларли таъсир кўрсатувчи алоҳида ишлаб чиқариш участкаларини аниқлашдан иборат.

Корхона фаолиятини дивесификациялаш (қайта таркиблаш) ишларининг **иккинчи босқичини** амалга оширишда менежмент ва маркетинг бўйича мутахассисларга муҳим рол берилади. Бунда корхона материаллари ва тегишли бозор тузилмаларининг маълумотлари ўрганиб чиқилиши лозим. Айнан ушбу босқичда қурилиш ишлаб чиқаришининг муайян технологик жараёнларида иштирок этувчи қурилиш корхонасининг рентабелсиз ва паст рентабелли бўлинмаларига алоҳида эътибор қаратилади, бунинг сабаблари ва ушбу бўлинмалар фаолияти самарадорлигини ошириш йўллари таҳлил қилинади.

Бу борадаги ишларнинг **учинчи босқичи** энг мураккаб жараён бўлиб, у ташкилий тадбирлар мажмуининг ишлаб чиқилишини ўз ичига олади. Мазкур босқичда қурилиш корхонаси активларининг самарасиз қисмини сотиш, корхона таркибидан рентабелсиз ва паст рентабелли фаолиятларни ажратиш, уларни давлатнинг имтиёзларига кўра кичик тоифадаги субъектларга бериш орқали ишлаб чиқариш жараёнларини ривожлантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилади.

Таҳлил натижалари. Юқорида таъкидланганидек, диверсификациялаш (қайта таркиблаш) фаолият самарадорлигини ошириш асосида қурилиш корхонаси бизнесининг қийматини оширишга йўналтирилган чора-тадбирлар мажмуини ўзида намоён қилади. Ушбу концепцияга мувофиқ дивесификациялаш (қайта таркиблаш) тадбирини бошлаш учун мазкур қурилиш корхонасининг бизнесини баҳолаш зарур. Ҳар қандай соғломлаштириш ишида муваффақиятнинг ярми тўғри ташхис қўйилишига боғлиқ. Шу муносабат билан баҳолаш, биринчи навбатда, корхонанинг ташхиси ҳисобланади [B.B.Berkinov, M.A.Aynaqulov,2004].

Баҳолаш ўрнига қурилиш корхонасида аудиторлик текширувидан фойдаланиш мутлақо нотўғри қадам ҳисобланади. Шунинг учун аудиторлик текшируви баҳолаш ўрнига эмас, балки

баҳолаш билан бирга ўтказилиши керак. Кейинги ишлар жараёнида қурилиш корхонаси учун мол-мулкни сотишга зарурат туғилиши мумкин. Шу муносабат билан ушбу мол-мулкни баҳолаш зарур бўлади. Бундан ташқари, қурилиш корхонасини ривожлантиришда инвестиция лойиҳаларини баҳолаш ва бизнесни режалаштириш бўйича билимлар талаб этилиши мумкин. Шундай қилиб, иқтисодиётни модернизациялаш шароитида қурилиш корхонасини дивесификациялаш (қайта таркиблаш) учун баҳолаш ишларининг аниқ бажарилишини таъминлаш лозим.

Қурилиш корхоналарини дивесификациялаш (қайта таркиблаш) ишлари, фақат уларда корхонанинг ва тегишли бозор инфратузилмасининг мутахассислари иштирок этган тақдирда, бажарилиши мумкин, дивесификациялаш (қайта таркиблаш) дастурининг ишлаб чиқилиши натижасида эса, қурилиш корхонасининг нафақат иқтисодий, балки ижтимоий, маънавий мақом йўналишлари аниқланади.

Қурилиш корхоналарини диверсификациялаш меҳнат тақсимоти ва ишлаб чиқаришнинг ихтисослашувини таъминлаган ҳолда, ишлаб чиқарувчилар ва уларнинг ишлаб чиқарган маҳсулотларидан баҳраманд бўлувчилар, яъни, истеъмол қилувчиларнинг манфаатларини инобатга олувчи ягона концепция доирасида амалга оширилиши лозим. Минтақаларда диверсификацион жараёнларни ривожлантириш "Диверсификация ривожини қўллаб-қувватлаш дастури" таркибига кирувчи махсус ишланмаларга асосланиши керак [М.А.Айнакулов, Э.М.Абдухамидов, 2016].

Қурилиш корхоналарини диверсификациялаш жараёнида бир-бирига хом ашё, ресурслар, товарлар, ишлар ва хизматларни ўтказиш каби ўзаро кооперацион алоқа касб этувчи бир нечта хўжалик субъектлари ҳамкорлик муносабатида бўлади, шунингдек, якуний даромад ва фойдани (қўшилган қиймат) олиш билан боғлиқ ўзига хос муносабатларга киришади. Шунинг учун ҳам ҳар бир туман ҳокимликлари мазкур туманнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига ҳиссасини қўшаётган иқтисодиётнинг базавий корхоналари учун ўзининг дифференциал "Корхонани диверсификациялаш Низоми" нинг яратилиши ва шу асосида иш фаолияти юзасидан доимий мониторинг юритиши керак, чунки диверсификациялаш жараёнлари йилнинг тўрт фаслида ҳам барқарорликни таъминлаш гаровидир. Бу ва шунга ўхшаш масалалар Республикамиздаги юқори бошқарув органларига оид тегишли меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар орқали ҳал этилишни ҳам ўз навбатида талаб қилади.

Адабиётлар:

1. "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ" тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7- февралдаги ПФ-4947 сонли Фармони.

2. Berkinov B.B., Aynaqulov M.A. "Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi ". Jizzax.: 2004-114 b.

3. Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. //«Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

УДК 65.9(2) 0.8

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ КЛАСТЕРОМ В СТРОИТЕЛЬНОМ КОМПЛЕКСЕ

Убайдуллаев Абдилбасе Суванкулович, старший преподаватель
Джизакский политехнический институт, кафедры

В публикации выявлены предложений и рекомендации методов хозяйственных кооперации на основе кластера и их экономичесческие эффективности.

Ключевые слова: Кластер, кооперация, диверсификация, стратегия, реформа, инновация, либерализация, эффективность, ВВП, лизинг, франчайзинг.

The publication identifies proposals and recommendations based on the cluster of methods of economic cooperation and their economic efficiency.

Keywords: cluster, cooperation, diversification, strategy, reform, innovation, liberalization, efficiency, GDP, leasing, franchising.

Масштабные реформы, проведенные в годы независимости Республики Узбекистан, имеют важное значение для укрепления национальной государственности и суверенитета, обеспечения безопасности и правопорядка, нерушимости границ, верховенства закона, прав и свобод человека, межэтнического согласия и религиозной терпимости. Он заложил основы, создал необходимые условия для достойной жизни нашего народа, реализации творческого потенциала наших граждан.

Абсолютный отказ от системы командования и управления в экономике, постепенное проведение рыночных реформ и тщательная денежно-кредитная политика обеспечат макроэкономическую стабильность, высокие темпы экономического роста, поддержание инфляции на прогнозном уровне и послужило созданию широких

возможностей и благоприятных условий для развития малого бизнеса и частного предпринимательства, фермерского движения.

Углубленный анализ пути развития Республики Узбекистан, тот факт, что сегодня ситуация на мировом рынке резко меняется и конкуренция усиливается в условиях глобализации, совершенно новый подход к устойчивому и динамичному развитию нашей страны требует разработки и реализации принципов. В целях дальнейшего повышения эффективности проводимых реформ, создания условий для всестороннего и быстрого развития государства и общества, реализации приоритетов модернизации и либерализации всех сфер жизни от 7 февраля 2017 года был принят Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий развития Республики Узбекистана 2017-2021 годах». В соответствии с этим Указом была утверждена Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан. У каждой из этих областей есть определенные разделы о том, как углубить реформы и инновации в стране. В рамках реализации пятилетнего стратегического плана действий в пять этапов были определены тактические действия, и Государственная программа по его реализации ежегодно утверждалась в соответствии с названиями, указанными в годах [1].

В приоритетах третьем направлении Стратегии действий «Экономическое развитие и либерализация» лежит качественно новый подход к быстрому развитию высокотехнологичных перерабатывающих производств, прежде всего производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки местного сырья. Дальнейшая модернизация и диверсификация промышленности, формирование эффективной конкурентной среды для отраслей экономики и постепенное сокращение монополий на рынке товаров и услуг, разработка принципиально новых видов продукции, что способствует повышению конкурентоспособности национальных товаров на внутреннем и внешнем рынках. Также планируется продолжить политику стимулирования локализации производства и, прежде всего, заменить импорт потребительских товаров и комплектующих, расширить межотраслевое промышленное сотрудничество. Особое внимание уделяется текущим направлениям развития, таким как шаги в этих направлениях, наряду с развитием малого бизнеса и частного предпринимательства на ранних этапах экономической реформы, приватизацией и разгосударствлением объектов были ключевым фактором в формировании диверсифицированной экономики. За годы независимости в результате дальнейшего расширения потенциала развития промышленного сектора и сферы услуг доля сельского хозяйства в ВВП постепенно снижалась (с 32,4% в 1995 году до 17,6% в последние годы). В то же время снижение доли сельского хозяйства в ВВП произошло на фоне положительных среднегодовых темпов роста сельскохозяйственного производства. В результате принятия мер по диверсификации, модернизации, техническому и технологическому обновлению промышленного сектора рост общего объема промышленного производства и доли промышленности (включая строительство) в ВВП увеличится с 27,8% в 1995 году. В последние годы он вырос до 32,9%. За годы независимости структура ВВП претерпела радикальные изменения с точки зрения собственности. Негосударственный сектор сыграл ключевую роль в производстве ВВП, и его доля увеличилась с 58,4% в 1995 году до 81,3% в последние годы [3]. Однако современные требования требуют необходимых методов и инструментов для последовательного, эффективного, систематического и динамичного осуществления вышеуказанных приоритетов. Одним из таких методов и инструментов является хозяйствующих кластер.

По сути, хозяйствующих кластер представляет собой совокупность предприятий, интегрированных в единую технологическую цепочку, которая демонстрирует способность углублять сотрудничество в науке, образовании и управлении, быстрое внедрение новых технологий на практике достигает основой кластера управления является экономическое сотрудничество. Кооперационные отношения в рамках хозяйствующего кластера представляют собой добровольное объединение или взаимодействие физических и юридических лиц для достижения общих целей (производство товаров, выполнение работ и оказание услуг). В свою очередь, кооперационные отношения становятся технологическим пакетом, технологическим звеном хозяйствующих кластеров.

В конце хозяйствующего кластера сырьё проходит все стадии обработки и становится ориентированным на экспорт готовым продуктом. Создание кластера требует, чтобы потенциал ученых и экономистов, строительно-монтажных компаний, а также потенциал сотрудников инфраструктурных организаций объединяли их передовой опыт в общей цели. В качестве объективной необходимости повышения эффективности управления экономикой, взаимодействия хозяйствующих субъектов и производственной кооперации для решения проблем, стоящих перед соответствующими секторами экономики при производстве определенных товаров, работ и услуг сосредоточенным. Мы считаем, что развитие производственной кооперации между предприятиями имеет особое значение. Это свя-

зано с тем, что предприятия этих отраслей составляют основу экономики и играют решающую роль в ее росте.

Например, строительный сектор, который является реальным сектором экономики, имеет широкий спектр возможностей для установления и развития экономического сотрудничества и хозяйствующих кластеров. Сотрудничество на основе хозяйствующего кластера строительных комплексов с хозяйствующими субъектами могут принимать различные формы. В то же время крупная строительная компания сотрудничает и кластерами предприятий с поставщиками и переработчиками ресурсов, а также предприятиями, специализирующимися на продаже продукции, на субподрядной основе, с поставщиками технологического оборудования и комплектующих - на лизинговой основе, мелкооптовыми производителями с юридическими лицами - на основе франчайзинга.

В свою очередь, определенные особенности деятельности хозяйствующих субъектов могут породить другие формы экономического сотрудничества и кластеров. Предварительные результаты исследования показывают, что развитие кооперационных и кластерных процессов хозяйствующих субъектов основных секторов экономики в строительном секторе во многом обусловлено реструктуризацией этих предприятий и разделением мелкооптовых и малоприбыльных предприятий и их финансовой самостоятельностью. Однако это связано с отказом от партнерского статуса.

В контексте модернизации экономики можно решить ряд задач путем реструктуризации крупных предприятий, в частности:

- избавиться от продукции на своем балансе от структур, которые не имеют прямого отношения к этой продукции;

- избавиться от технологической системы производства товаров и услуг путем передачи мелким оптовым, малоприбыльным и убыточным отраслям малого бизнеса;

- использовать возможности приватизации государственного имущества и на этой основе обеспечить дальнейшее развитие малого бизнеса [2].

Исходя из вышеизложенного, можно сделать вывод, что в строительном секторе экономики инфраструктура рынка, в том числе банковская, маркетинговая, консалтинговая, закупочная, торговая, позволяет на практике решать вопросы экономического сотрудничества и кластерные вопросы субъектов хозяйствования. Роль посредничества, продаж и других структур возрастет. В связи с этим особое внимание следует уделить их развитию. В свою очередь, экономическое сотрудничество и кластеры являются важными инструментами для инноваций, повышения конкурентоспособности экономики и создания прочной основы для роста современных предприятий. В результате увеличится производство строительной продукции с добавленной стоимостью, увеличится доля экспорта, и будут значительные экономические выгоды благодаря улучшению производственных и тендерных торговых отношений.

Литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий развития Республики Узбекистана 2017-2021 годах».

2. Беркинов Б.Б., Айнакулов М.А. Производственное кооперация малых предприятий с крупными предприятиями. Монография.- Типография-ДПИ, -2014.-114 с.

3. www.stat.uz

ЁШЛАРНИНГ ҚУРИЛИШ ТЕНДИРИДА ҚАТНАШИШ ЖАРАЁНИДАГИ МУАММОЛАР

Сиддиқов Мумин Юнусович – катта ўқитувчи. Жиззах политехника институти

Мазкур мақолада қурилиш соҳасидаги ислоҳотлар,бу борада тадбиркорлик фаолияти ривожи, муаммолар, уларни бартараф этиш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган. Ёшларни мазкур соҳадаги замонавий мутахассисликлар ва касб-ҳунарларга тайёрлашни стратегик ёндашувлари бўйича амалий тавсиялар илгари сурилган.

Асосий тушунчалар: қурилиш, лойиҳалаш, меҳнат, қурилиш-монтаж, тадбиркорлик, инвестиция, касбий фаолият,пудратчи.

Проблемы молодежного участия в строительном тендере

В данной статье представлены реформы в сфере строительства, развитие предпринимательства в этой сфере, проблемы, предложения и рекомендации по их решению. Выдвинуты практические рекомендации по стратегическим подходам к подготовке молодежи к современным специальностям и профессиям в этой сфере.

Ключевые слова: строительство, проектирование, труд, строительно-монтажные работы, предпринимательство, инвестиции, профессиональная деятельность, подрядчик.

Problems of youth participation in the construction tender

This article presents reforms in the field of construction, the development of entrepreneurship in this area, problems, proposals and recommendations for their solution. Practical recommendations were put forward on strategic approaches to preparing young people for modern specialties and professions in this area.

Key words: construction, design, labor, construction and installation work, entrepreneurship, investment, professional activity, contractor.

Жаҳонда глобаллашув ва кескин рақобатчилик жараёнлари кечаётган бир шароитда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик (КБХТ) субъектлари дунё мамлакатлари иқтисодиётининг драйвери сифатида майдонга чиқмоқда. 2018 йилда Европа давлатларидан Италияда 3,6 млн., Францияда 2,8 млн., Испанияда 2,4 млн. ва Германияда 2,3 млн.та КБХТ субъектлари фаолият кўрсатди. Айниқса, қурилиш тармоғида КБХТнинг роли тобора ортиб, ЕИ давлатларида, айниқса, Буюк Британияда иқтисодиётнинг қурилиш тармоғи савдо (6,5 млрд.АҚШ долл.) ва ишлаб чиқариш (2,3 млрд.АҚШ долл.) дан кейин 1,31 млрд.АҚШ доллари оборот билан 3-ўринни эгалламоқда [1].

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралда тасдиқлаган ПФ-4947-сонли "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони асосида ишлаб чиқилган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг "Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишлари" деб номланган 4-қисми 4.1 бандида яқин беш йилда аҳолини иш билан бандлиги ва реал даромадларини изчил ошириш, бунинг учун эса: "... янги иш ўринларини яратиш ҳамда аҳолининг, энг аввало, ўрта махсус ва олий ўқув муассасалари битирувчилари бандлигини таъминлаш, меҳнат бозори мутаносиблиги ва инфратузилмаси ривожланишини таъминлаш" амалга оширилиши муҳим ҳисобланган устувор йўналиш сифатида белгиланган бўлиб, бундай мақсадларга эришиш учун "...меҳнатга лаёқатли аҳолининг меҳнат ва тадбиркорлик фаоллигини тўлиқ амалга ошириш учун шароитлар яратиш, ишчи кучи сифатини яхшилаш, ишга муҳтож шахсларни касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини кенгайтириш" каби вазифаларни ҳал этиш кўзда тутилади [2].

Бугунги кунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини кенг қўллаб–қувватланиши натижасида уларнинг мамлакатимиз иқтисодиётидаги ўрни ортиб, барқарор ўсиш суръатларида ўз ифодасини топмоқда. Жумладан "...кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ЯИМдаги улуши қарийб 56,5%, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда 45,3%, қишлоқ хўжалигида 98,2%, қурилиш ишлари ҳажмида 67,8%, савдода 89,6% ни ташкил этмоқда. Шунингдек, фаолият кўрсатаётган КБХТ субъектлари сони 218170 тани ташкил этиб, унда иқтисодиётда жами банд бўлганларнинг 78,2% меҳнат фаолияти билан банд бўлмоқда" [3, 196.]

Қурилишга доир меъёрий ҳужжатлар, жумладан, шаҳарсозлик қоидалари ва қурилиш меъёрларининг аксарият қисми собиқ тузум давридан бери янгиланиб маҳаллий шароитга мосланмаганлиги туфайли, ушбу меъёрларни ривожланган мамлакатлар талабларига мослаштириш долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.Мустақиллик йилларининг дастлабки йилларидаги аҳоли сони 17 миллион атрофида бўлган ҳолда 2021 йил ҳолатига аҳоли қарийиб 34 миллиондан ортиб бормоқда. Бунинг негизида мамлакатимизда шаҳарларнинг бош режалари, қишлоқларда архитектура-режалаштириш лойиҳаларини ишлаб чиқиш замон талабига жавоб бермаяпти. Бундан ташқари, қурилиш ва лойиҳалаш бўйича кадрлар тайёрлаш сифати ривожланган давлатлардан орқада қолиб кетмоқда.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан таъкидланганидек, "...мавжуд муаммоларни аниқлаш, уларни чуқур таҳлил этиш, ечимлари бўйича таклиф ишлаб чиқиш, ижроси устидан жамоатчилик назоратини таъминлашга ижтимоий буюртма асосида нодавлат нотижорат ташкилотлари кенг жалб этилади. Бундай ҳамкорликни, энг аввало, таълим, маданият, тиббиёт, қурилиш, коммунал хўжалиги, ижтимоий хизмат кўрсатиш соҳаларда кенг жорий этиш мақсадага мувофиқ бўлади. Бу ишларни ташкил этиш учун келгуси йилда 60 миллиард сўм йўналтирилади. [4.]

Юқорида қайд этилган дозарб муаммоларни ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти тамойиллари асосида ҳал этиш бўйича илмий-амалий асосланган хулосалар ва тавсияномалар ишлаб чиқиш мамлакат иқтисодиёти олдида турган долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Олимларнинг фикрича "Қурилиш, моддий ишлаб чиқариш тармоғи сифатида, аввало ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг характери, яъни унинг кўчмаслиги, ўлчамлари, катталиги, серқирра ва мураккаблиги билан боғлиқ ўзига хос хусусиятларга эгадир. Қурилиш маҳсулоти кўп меҳнат ва капитал сарфхаражатларни талаб қилиб, уни ишлаб чиқариш даври узоқ муддатлидир" [5].

Халқаро экспертларнинг маълумотларига биноан, жаҳон ялпи ички маҳсулотининг ўсиш ҳажми йил бошида 2,5 фоизни ташкил этиши прогноз қилинган бўлса, пандемия оқибати ушбу ўсиш сурати 1 фоизга қисқариши маълум қилинмоқда. Пандемиянинг хизматлар соҳасига таъсирини кузатадиган бўлсак, ривожланган мамлакатларда меҳмонхона, ресторан ва авиаташувлар ҳажми 13-18 фоизга, қурилиш хизматлари 1-7 фоизга, чакана ва умумий савдо хизматлари 4-16 фоизга ва бошқа бевосита инсон омили билан боғлиқ баъзи хизмат турларининг 31 фоизгача қисқариши мумкинлиги прогноз қилинмоқда [6].

Ўзбекистонда ҳам бугунги кунда 24,1 мингдан ортиқ қурилиш корхоналари фаолият кўрса-

тиб уларнинг 98 фоизини кичик бизнес субъектлари ташкил қилади. Биргина, 2018 йилда 38,1 минг КБХТ субъектлари ташкил этилган бўлса, уларнинг 13 фоизи ёки 4953 таси қурилиш соҳасига тўғри келгани ҳолда умумий қурилиш ишларининг 41 фоизи КБХТ секторида, мамлакат ЯИМнинг 9,7 фоизи эса бевосита қурилиш тармоғида яратилди [7].

Б.Ражабовнинг эътироф этишича "Пандемиянинг салбий таъсирида юзага келган инқироз ҳолатидан чиқиб кетишда қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш, қурилиш соҳасига инвестицияларнинг киритилиши истиқболдаги иқтисодий ўсиш сабабчиси бўлиши мумкин" [8].

Ўзбекистон Республикасида иқтисодиётнинг асосий тармоқлари бўлган қурилиш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш каби соҳалардаги тадбиркорлик субъектлари иш фаолиятларини ривожлантириш бўйичаташкилий-иқтисодий чора-тадбирлар белгиланмоқда. Ушбу муаммолар ва йўл қўйилган камчиликларни бартараф этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апрелдаги «Қурилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5392-сон фармони қабул қилинди. [9].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апрелдаги №5392 сонли "Қурилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони архитектура ва қурилиш соҳасини бошқаришнинг самарали механизмларини жорий этиш ҳудудларнинг замонавий қиёфасини шакллантириш, ҳаёт ва тадбиркорлик учун қулай шарт-шароитларни яратишга қаратилган шаҳарсозлик фаолиятини сифат жиҳатидан янги даражага кўтаришнинг муҳим қонунчилик ҳужжати бўлди. Шу билан бирга, қурилиш соҳасида давлат бошқарувини ташкил этишда замонавий шаҳарсозлик услублари, нормалари ва қоидаларини кенг жорий қилишга, рақобатни ривожлантиришга, янги субъектларнинг инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологиялар билан бозорга кириб келишига тўсқинлик қилаётган бир қатор тизимли муаммоларни бартараф этиш белгиланди ва натижада тадбиркорлик ва ишбилармонлик фаоллигини ривожлантиришга эътибор қаратилди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 мартдаги ПҚ-4227-сон қарорини ижро этиш мақсадида қабул қилинган Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 5 июлдаги 566-сонли қарори билан ўтган йили 1 сентябрдан бошлаб ўзини ўзи банд қилган фуқароларга вақтинчалик меҳнат гувоҳномалари, уларнинг эгаларига меҳнат стажини ҳисобга олиш ва рағбатлантирувчи имтиёзлардан фойдаланиш ҳуқуқи берилишини назарда тутадиган тартиб жорий қилинганлигини таъкидлаш лозим. Мазкур қарор билан тасдиқланган рўйхатга мувофиқ уй хўжалигини юритиш ва уй ишларини амалга ошириш, мураккаб бўлмаган умумий қурилиш, таъмирлаш ишларини бажариш каби бир қатор хизматлар келтирилганлиги норасмий сектордаги фуқароларни ўзини ўзи банд қилишида муҳим аҳамият касб этади [10].

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 5 февралдаги 55-сон қарорига мувофиқ қурилиш соҳасида танловларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисида вақтинчалик низом ишлаб чиқилган бўлиб, унга кўра қурилиш-пудрат ташкилотларининг фаолиятини такомиллаштириш ва қурилиш ишлари сифатини ошириш мақсадида:

– қурилиш-пудрат ташкилотларининг фаолиятини баҳолаш рейтинги жорий этилади;

– ташкилотларнинг ихтисослашуви, қурилиш-монтаж ишлари турлари, доимий ишлайдиган ишчи-ходимлар сони, асосий ишлаб чиқариш воситалари тўғрисида маълумотларнинг ягона электрон базаси жорий этилади;

– қурилиш-пудрат ташкилотлари ишчиларини қайта тайёрлаш ва касбга ўқитиш бўйича қисқа муддатли ўқув курслари, касб-ҳунарга эга бўлганлиги тўғрисида сертификатлар бериш кўзда тутилган [11].

Қурилиш-пудрат ташкилотларининг фаолиятини такомиллаштириш ва қурилиш ишлари сифатини ошириш мақсадида амалдаги фаолият юритаётган қурилиш-пудрат ташкилотларининг фаолиятини баҳолаш рейтинги жорий этилишнинг ижобий томонлари катта бўлиб, ўз навбатида қурилиш-пудрат ташкилотларинг маъсулиятини оширади.

Бугунги кунда қурилиш соҳасида бош пудратчи ташкилотларни тендерда иштирок этишлари бўйича маълум талаблар қўйилган бўлиб, олдиндан фаолият юритаётган ташкилотларнинг тендерда ютиш эҳтимоли юқори бўлиб қолмоқда. Бизнинг фикримизча олий таълим муассаларида қурилиш соҳаси бўйича тадбиркорлик фаолиятига қизиқувчи битирувчи курс талабаларини Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил, 27 июлдаги "Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари" тўғрисида ПҚ-3151-сонқарори доирасида қўллаб-қувватлаш, уларга ўқишлари билан бир қаторда қурилиш соҳасида тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланишлари учун имконият яратиб бериш талаб этилади.

Кўп ҳолларда мутахассис етишмайди деб нолиймиз. Яхши мутахассисни ташқаридан ҳеч ким олиб келиб бермайди. Уларни ўзимиз тайёрлашимиз керак. Бундан ташқари қурилиш соҳасидаги таркибий ўзгаришлар, янги иш жойларини яратишга йўналтирилган инвестициялар ҳажмини етарли эмаслиги, меҳнат ресурслари

сонининг яратилаётган иш жойлари миқдорига нисбатан тезроқ ўсиши, ишчи кучига талаб ва таклиф ўртасидаги номутаносиблик, маҳаллий кадрлар малакаси ва рақобатбардошлигининг пастлиги тармоқ даражасида тартибга солишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмини такомиллаштирини ҳамда пировардида эса оқилона иш билан бандликни таъминлашни мақсад қилиб қўяди.

Бундан ташқари ҳудудларда тоғли, чекка жойларда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари (пудратчилар) томонидан амалга оширилаётган қурилиш-монтаж ва ободонлаштириш ишларининг норматив-меъёрий хужжатлар талабларига риоя этилаётганлигини тегишли мутахассислар (архитектор, қурувчи, геодезист, сметачи ва ҳ.к.лар) томонидан ҳар томонлама ўрганиш ҳамда мазкур ишлар назоратига битирувчи курс талабаларини ҳам жалб қилиш уларни моддий-техник, консультатив билимларини янада оширишга таъсир кўрсатади.

Бизнингча, маҳаллий ҳокимликлар ва жойлардаги маъсуллар ҳудудлардаги беш юз миллион сўмгача бўлган жорий ва капитал таъмирлаш ишларини йирик буюртмачи корхоналарга бермасдан айнан қурилиш соҳасида таълим олаётган битирувчи босқич талабаларига танлов асосда беришлари мақсадга мувофиқ. Албатта бу борада ёшларнингтадбиркорлик фаолиятларини камида уч йилгача жорий ва капитал таъмирлаш ишларидаиштирокини маҳаллий хокимликлар томонидан қўллаб-қувватлаш зарур бўлади ва ўз навбатида қурилишда юзага келаётган коррупцион ҳолатларнингбартараф этилишига ҳам эришилади. Шу вақт оралиғидақурилиш соҳасида фаолият юритаётган ёш тадбиркорлар касбий фаолиятини ривожлантириб, тажриба ва кўникмага эга бўладилар, икки уч йил оралиғида маълум баҳолаш рейтингини шакллантириб, кейинги босқичда ўзлари рақабатбардош эркин пудратчи ташкилот сифатида тендерларда иштирок этишлари мумкин бўлади.

Адабиётлар:

1. Eurostat http://xn--80aplem.xn-p1ai/analytics/ Malyj-i-srednij-biznes-v-stranah-Evropy/
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги ПФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.
3. Такабоев, Қ. Ў., & Хажиматова, М. М. (2021). Хўжалик чиқинди сувлари, улардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида. Science and Education, 2(6), 325-336.
4. Рўзиева Д.И Пандемия шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-кувватловчи инвестицион лойиҳаларнинг мамлакат иқтисодиётидаги аҳамияти. Молия ва Банк иши. № 2. 2020- 196 б.
5. Ugli, U. S. R. (2021). Reagent Water Softening in Illuminators. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(5), 18-23.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий мажлисга Мурожаати 2020. 30.12).
7. Бузырев, В.В. Планирование на строительном предприятии: уч. пос.для студ. вузов / В.В. Бузырев, Ю.П. Панибратов, И.В. Федесеев - М.: Изд-во «Академия», 2005. – 332 с.
8. Хажиматова, М. М. (2021). Некоторые гидродинамические эффекты, проявляемые при пузырьковом и снарядном режимах течения газожидкостной смеси. Science and Education, 2(4), 257-264.
9. The Organisation for Economic Co-operation and Development 2020. – P. 20
10. http/review.uz./ru/post/biznes/goskomstat.
11. Ражабов Б.Мавжуд вазият ва истиқболдаги чоралар.Эксперт коронавируснинг Ўзбекистон иқтисодётига таъсири ҳақида. https://kun.uz/news/2020/04/10
12. Холмирзаев А. Ўзбекистон қурилиш соҳасида туб бурилишларни амалга оширмоқда. 17.12.2020 08:41
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 5 июлдаги “Ўзини ўзи банд қилган фуқаролар учун вақтинчалик меҳнат гувоҳномасини жорий этиш тўғрисида”ги 566-сон. Қарор. Lex.uz.
14. Ганиев К.Б., Ганиева Г.И., Бердикулов А., Сиддиков М. Экономика и организация реконструкции при реструктуризации предприятии// Учебное пособие. Издателство Фан АН РУЗ 2010 г.

QURILISH SOHASIDA IQTISODIY-REJAVIY MASALLARNI ECHISH USULLARI

Parmanov Ne’matilla Nurmuhammadovich – assistent
Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich – dotsent v.b.;
Jizzax politexnika instituti

Ushbu maqola mexanizatorlar va quruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimida hisoblashish shakllari tahlil qilingan. Haqiqiy bajarilgan ishlar hajmini hisoblash usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qurilish mashinalari parki, tugallangan ob’ekt, mexanizatsiyalash.

В данной статье проанализированы формы расчетов в системе взаимодействия механизаторов и строителей. Выделены методы расчета объема фактически выполненных работ.

Ключевые слова: Парк строительных машин, готовый объект, механизация.

This article analyzes the forms of calculations in the system of interaction between machine operators and builders. The methods of calculating the volume of work actually performed are highlighted.

Keywords: A fleet of construction vehicles, a ready-made object, mechanization.

Mexanizatorlar va quruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimida hisoblashish shakllari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mexanizatorlarning quruvchilar uchun bajargan ishlari hajmi turli xil usullarda aniqlanishi mumkin: ishlarning bajarilgan haqiqiy hajmi bo‘yicha va mashinalarning ob’ektda qurilish tashkilotining ihtiyorida bo‘lishi vaqti bo‘yicha.

Ishlarning bajarilgan haqiqiy hajmi bo‘yicha hisob – kitoblarda o‘lchov birligi sifatida *ishlar hajmining tabiiy ko‘rsatkichlari* (masalan, gruntning qazilishida – $1m^3$), yoki *tugallangan ob’ekt* (turar – joy binosi, maktab va boshqalar), yoki uning *bir qismi* (qavati, sektsiyasi va boshqalar) qabul qilinadi. Birinchi ko‘rsatilgan holatda mexanizatsiyalash boshqarmasi ishlarni o‘zining xususiy kuchlari bilan yordamchi pudrat tartibida bajaradi, bunda bajarilgan ishlarga haqiqiy hajmi bo‘yicha haq to‘lanadi. Tabiiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisoblashish ma’lum turdagi ishlar bilan chegaralanadi, ya’ni bunda mexanizatorlar bosh pudratchining ishchi kuchlarini jalb qilmasdan va unga bog‘liq bo‘lmagan holda bajarishi mumkin bo‘lgan ishlar nazarda tutiladi (tuproq qatlamini qazish, qoziqoyoqlar qoqish ishlari va boshqalar). Bunday yordamchi pudratga oid hisoblashish shakli mexanizatsiyalash boshqarmasining faoliyati ko‘rsatkichlarini bevosita texnikaning holati va undan foydalanish samaradorligiga bog‘liq qilib qo‘yadi.

Tugallangan ob’ekt uchun hisoblashishni amalga oshirishda dastlab berilgan binoni qurishda talab qilinuvchi hisobiy mashina vaqti aniqlanadi, bu qiymat preyskurantga oid narhni tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. To‘lovlar preyskurant bo‘yicha ob’ektda mashinaning haqiqiy ishlash vaqti miqdoridan qat’iy nazar amalga oshiriladi. Bunday ko‘rinishdagi tartibda quruvchilar mexanizmlarning ob’ektda bo‘lishi vaqtining qisqartirilishidan manfaatdor bo‘lmaydi, bu holatat esa o‘z navbatida texnikaning yashirin to‘xtalishlariga, mashinalar bilan bajarilgan ish miqdorining kamayishiga, shuningdek mexanizatsiyalash boshqarmasi faoliyati ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga olib keladi. SHu sababli mashinalarning bajargan ishlariga preyskurant bo‘yicha hisoblashish keng ko‘lamda qo‘llanilmaydi.

Mashinalarning ishlash vaqti bo‘yicha hisoblashish (ishlab berilgan vaqt bo‘yicha). Bajarilgan qurilish ishlarining hajmini aniq hisobga olish imkoniyatlari mavjud bo‘lmagan yoki aniqlanishi qiyin bo‘lgan vaziyatlarda, qurilish mashinalarining bajargan ishi uchun hisoblashish boshqa bir shaklda amalga oshiriladi – ya’ni, mashina – soatlar hisobida e’tiborga olinuvchi ularning haqiqatdan bajargan ish vaqtini hisoblash asosida. Bundan tashqari, mashina – smena qiymatining tarkibiga kirmagan bir qator ishlar uchun, masalan kranosti yo‘llarini qurish, kranni montaj, demontaj qilish, tashish va shu kabi boshqa ishlar uchun alohida haq to‘lanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek mexanizatsiyalash boshqarmasi tarkibida mashinalar parkining bo‘lishi (I va III shakllar) texnikani soz holatda saqlash, ta’mirlash ishlarini amalga oshirish, ishga tushirilishi lozim bo‘lgan ob’ektlarda mashinalarni kerakli miqdorda kontsentratsiyalash nuqtai nazaridan qulay shart – sharoitlarni yaratadi. Bu shakllar foydalanish nuqtai nazaridan qaraganda quyidagi kamchiliklarga ega: hisoblashish usullarining takomillashmaganligi; mashinalarning ob’ektda bo‘lishiga mashina – soatlarning miqdori bo‘yicha haq to‘lanishi mexanizatorlarni mashinalardan jadal tarzda foydalanishga rag‘batlantirmaydi, bundan tashqari mashinalar qanchalik past jadallik bilan ishlatilsa, mexanizatsiyalash boshqarmasining ularga xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash uchun sarflaydigan harajatlari shunchalik kam bo‘ladi va bu o‘z navbatida boshqarma faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishini ta’minlaydi; xuddi shu sabablarga ko‘ra, mashinalarni boshqaruvchi shaxslar ishlarning jadallik bilan bajarilishidan moddiy jihatdan manfaatdor bo‘lmaydilar.

Yirik ixtisoslashgan xo‘jaliklarda qurilish mashinalari parkini saqlashning progressiv shakli va ulardan foydalanish usullarining takomillashtirilmaganligi o‘rtasidagi ob’ektiv jihatdan mavjud bo‘lgan o‘zaro qarama – qarshiliklar, avvalom bor bozor munosabatlari uchun xos bo‘lgan turli xildagi iqtisodiy usullar yordamida bartaraf qilinishi mumkin.

Ishlarni bajarish tajribasining ko‘rsatishicha, to‘g‘ri topilgan iqtisodiy shakl qurilish texnikasidan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Mashinalar ishini hisobga olish usullari va ko‘rsatkichlari. Qurilish mashinalari parkinining ishini hisobga olish ulardan foydalanishning asosiy ko‘rsatkichlari (bajarilgan ish va vaqt) bo‘yicha ishlarni mexanizatsiyalashgan usulda bajarilishi darajasini aks ettirishi, hamda foydalanishga oid materiallarning sarflanishi va tahlili bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim.

Mexanizatsiyalash vositalari ishini hisobga olishning quyidagi usullari mavjud hisoblanadi. Mashinistlarning smenaga oid raportlari bo‘yicha ishlarni hisobga olish qurilishda mashinalardan foydalanishning miqdoriy va sifatga oid ko‘rsatkichlarini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Berilgan raportlar asosida hisobga olish kartochkasi to‘ldiriladi, unda har oy davomida mashinalarning bajargan ishlarining yakunlari chiqariladi. Yilning oxirida ishlar haqidagi umumiy ma’lumotlar har bir mashinada uchun tutiluvchi pasportga yozib qo‘yiladi. Ushbu pasport asosda mashinadan foydalanish, uning texnik holati, profilaktikaga oid ta’mirlashning bajarilishi nazorat qilinadi

Horijda asosiy mashinalarning ish-o‘lchagichlar bilan jihozlanishi tajribasi mavjud bo‘lib, bu qurilamalar vaqtini, bajarilgan ishning tonna-metrlarda ifodalangan hajmini qayd qilib boradi. Qayd qilib borish avtomatik tarzda amalga

oshiriladi va smenaning yakunida ma'lumotlar tasmasi qo'lda va avtomatlashtirilgan ravishda qayta ishlash uchun uzatiladi.

Mashinalar parkidan foydalanish ko'rsatkichlari. Qurilish mashinalari *parkidan* to'g'ri foydalanishning asosiy ko'rsatkichi – rejadagi vazifa bilan solishtirgan holda hisobot ma'lumotlari bo'yicha aniqlanuvchi, tabiiy ko'rsatkichlarda ifodalangan (ishlarning fizik hajmlarida) haqiqiy yillik bajarilgan ishning miqdori hisoblanadi. Yillik bajarilgan ish miqdoriini oshirishning sharti – ro'yxatidagi mashinalar parkini foydalanishga kiritishdan iborat hisoblanadi. Bu mashinalarning foydalanish uchun tayyorligi, ishlar fronti va smenalar soniga bog'liqdir. Mashinalarning ishdan to'xtab turishi tashkiliy sabablarga bog'liq hisoblanadi: jumladan, mashinalarni bir joydan boshqa joyga ko'chirishga olib keluvchi qurilish ob'ektlarining tayyor emasligi; jamlanuvchi mashina va transport vositasi unumdorligining mos kelmasligi sababli etakchi mashinalarning ishdan to'xtab turishi; energiya resurslari yoki qurilish materiallari bilan ta'minot tizimidagi uzilishlar, hamda mashinalarni foydalanishga kiritilishigacha bo'lgan vaqtning yo'qotilishi (ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishda mashinalarning rejadan ortiqcha ushlab turilishi, montaj, demontaj qilish va joyini o'zgartirishda me'yordan ortiqcha vaqtning sarflanishi) natijasida ishdagi to'xtalishlar yuzaga keladi.

Mashinalar parkidan foydalanishning sifati bir qator xususiy ko'rsatkichlar bilan ham tavsiflanadi.

Vaqt bo'yicha qurilish mashinalari parkidan foydalanish koeffitsienti – mexanizatsiyalashgan ishlar uchun texnikani amalda qo'llanilishini ifodalaydigan nisbiy qiymatidir. Uni hisoblash uchun qurilish jarayonida haqiqatdan kuzatilgan (amalda o'rin olgan) mashina-kunlar – son qiymatining xuddi shu davrda qurilish xo'jaligida (maydonida) joy olgan texnikaning taqvimiy mashina-kunlar miqdoriga bo'lish bilan aniqlanadi:

$$k_{fp} = {T_{ap}}/{T_{rp}}$$

bu erda k_{fp} - qurilishga jalb qilingantexnikadan foydalanish ko'rsatqichi (darajasi); T_{ap} - qurilish jarayonida haqiqatdan kuzatilgan (amalda o'rin olgan) mashina-kunlar (mash-kn) soni; T_{rp} – qurilish xo'jaligida (maydonida) joy olgan texnikaning taqvimiy mashina-kunlar miqdori.

Yil davomida mashinalardan foydalanish koeffitsienti – yil davomida mashinalarning haqiqatdan bajargan ishlarining bajarilish vaqtining son qiymatini yil uchun belgilangan (rejalashtirilgan) ish vaqtiga bo'lgan nisbati bilan ifodalanadi:

$$k_{fy} = {T_{ay}}/{T_{ry}}$$

bu erda k_{fy} - qurilish jarayonida yil davomida haqiqatdan kuzatilgan (amalda o'rin olgan) mashina-kunlar (mash-kn) soni;

T_{ay} - qurilish jarayonida haqiqatdan yil davomida kuzatilgan (amalda o'rin olgan) mashina-kunlar (mash-kn) soni;

T_{ry} - qurilish xo'jaligida (maydonida) yil davomida joy olgan texnikaning taqvimiy mashina-kunlar miqdori.

Mehnat unumdorligini mashinalardan foydalanish koeffitsienti yordamida aniqlash – ma'lum davr davomida mashinalar vositasida haqiqatdan bajarilgan ishlarning miqdorini xuddi shu davr davomida rejalashtirilgan me'yoriy miqdoriga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi:

$$k_{iu} = {V_{ab}}/{V_{ri}}$$

bu erda k_{iu} - qurilish jarayonida yil davomida texnika vositasida haqiqatdan o'lcham birligida bajarilgan ishlar hajmi; V_{ab} - qurilish jarayonida haqiqatdan bajarilgan ishlar hajmi qiymati; V_{ri} - qurilish maydonida texnika vositasida bajarilishga mo'ljallangan ishlar hajmi qiymati (o'lcham birligida).

Mashina ishining smenaliligi koeffitsienti – qiymati hisobot davri davomida, masalan bir haftada, bir xil turdagi mashinalar bilan bajarilishida sarflangan mashina-soatlar qiymatining ushbu mashina besh kunlik hafta davomida ish kunining o'rtacha davomiyligiga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi:

$$k_{hd} = {T_{as}}/{(T_{kun} \cdot t_{sm})}$$

bu erda k_{hd} - hisobot davri, masalan, bir hafta davomida bir xil turdagi texnikadan foydalanish darajasi; T_{as} - bir xil turdagi texnika bilan bajarilgan ishga sarflangan haqiqiy mashina-soatlar soni;

T_{kun}- muayan ishni bajarilishiga rejalashtirilgan ish kunlari soni; t_{sm} - ish smenasi davomiyligi, soat.

Smena davomida vaqt bo'yicha mashinalardan foydalanish koeffitsienti – qiymati smena davomida mashinalarning bajargan ish soatlari qiymatining smena davomiyligi – qiymatiga nisbati bilan ifodalanadi:

$$k_{sm} = {T_{sm}}/{t_{sm}}$$

bu erda k_{sm} - smena davomida bir xil turdagi texnikadan foydalanish; T_{sm} - bir xil turdagi texnika bilan bir smenada ishlagan soatlari; t_{sm} – bir ish smenasi davomiyligi, soat.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha baholashlarni asosiy mashinalarning ish bajarishi va ulardan foydalanish bo'yicha hisobot ma'lumotlarini belgilangan me'yoriy ma'lumotlar qiymatlari bilan solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Adabiyotlar:

10. Адилов, О. К., Кулмурадов, Д. И., Каршибаев, Ш. Э., & Нуруллаев, У. А. (2015). Проблемы управления автоперевозками и методы их решения. Молодой ученый, (2), 121-124.

11. Косимов, С.Х., & Нишонов, А.О. (2021). Пути развитие логистической системы при организации

перевозки грузов на международных маршрутах. Academic research in educational sciences, 2(3).

12. Суванкулов, Ш., Исламов, Ш., Каршибаев, Ш., & Бердиѐров, Т. (2015). Способы расчета вредных веществ возникающих на постах повседневного предоставления услуг транспортным средствам. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 23-27). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.

13. Xoshimova, S. (2020). Development of Formative Evaluation in the Teaching-Learning ProcessInternational Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), 5, 503–509.

14. Qarshiboev, S., & Berdiyorov, T. (2020). Shifting to a European Credit module system in Uzbekistan, impact and perspectives to vocational education. Journal of Critical reviews, 7(12), 553-559.

15. Berdiyorov, T., & Berdiyorov, A. (2020). Long-range planning of a public transport company. Архив научных исследований, (29).

16. Berdiyorov, T. (2020). Ways of Using Innovative Marketing Technologies in the Passenger Transport System. Архив научных исследований, (32).

17. Azamatovich, B. T. (2019). MARKETING RESEARCH OF THE TRANSPORT SERVICES MARKET. Экономика и Социум, 12.

18. Berdiyorov, T. (2020, December). Metrobus in separated corridors as an optimal public transport system. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 614, No. 1, p. 012056). IOP Publishing.

УДК. 274.24

ТАРИХИЙ ОБЪЕКТЛАРНИ ХАРАЖАТЛИ ЁНДАШУВДА БАҲОЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ УСУЛЛАРИ

Ганиева Ф.С. Рахматова С.С., Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти

Тарихий объектларни бахолашнинг услубий асосларини ўрганиш ва баҳолаш фаолияти билан боғлиқ жараёнларни такомиллаштириш республикамизда эркин бозор инфратузулмасини ривожлантиришда ўта долзарб муаммо ҳисобланади. Ушбу долзарб муаммони тарихий объект Султон Саодат мажмуаси мисолида кўриб чиқамиз.

Калитли сўзлар: Кўчмас мулк бозори, арихий объектлар ,бахо, харажатли ёндашув, қиймат, баҳолаш, бозор қиймати, таннарх, нарх, кўчмас мулк бозори, мулк, ислоҳотлар, қиёсий ёндашув, даромадли ёндашув, таккомилаштириш

Изучение основ оценки памятников архитектуры Узбекистана и совершенствование процессов, связанных с оценочной деятельностью, является очень важной проблемой в развитии инфраструктуры свободного рынка в стране. Мы рассмотрим эту актуальную проблему в качестве примера оценки паятника архитектуры комплекса Султон Саодат.

Ключевые слова: Рынок недвижимости, памятники архитектуры, цена, затратный подход, стоимость, рыночная стоимость, себестоимость, недвижимость, сравнительный подход, доходный подход.

The study of the methodological foundations of the assessment of architectural monuments in the context of Uzbekistan and the improvement of the processes associated with the assessment activity is a very important problem in the development of the infrastructure of the free market in the country. We will consider this actual problem as an example of evaluating the pendulum of the architecture of the Sulton Saodat fortress.

Keywords: Real estate market, historical objects, valuation, cost approach, value, valuation, market value, cost, price, real estate market, property, reform, comparative approach, profit approach, improvement

Асосий қисм Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида» 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сон Фармонига мувофиқ, шунингдек, моддий маданий мерос объектларидан оқилона фойдаланиш тизимини яратиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилди.Қарорни амалда Султон Саодат мажмуаси **мисолида кўриб чиқамиз.** Султон Саодат мажмуаси - Термиз сайидлари, яъни пайғамбар авлодларининг дафиналари жойлашган маҳобатли мақбаралар мажмуаси ҳисобланади. 9 асрда Ватанимиз равнақига катта ҳисса қўшган Термиз сайидлари хонадони шаклланади. Марказий Осиё сайидларининг кўпчилиги ўзларининг келиб чиқишини шу хонадон билан боғлайдилар. Мажмуа – Термиздаги меъморий ёдгорлик бўлиб, 12 – 17 асрларда бунёд этилган. Мақбара қурилиши узунлиги 70 метрлик ҳовлида қурилган. Қурилишнинг бош биноси ғарбда жойлашган. Термизнинг шимоли-шарқида жойлашган бу зиёратгоҳ етти аср давомида шаклланган. Йигирмага яқин мақбараларни ўз ичига олади. Унда Сайидлар сулоласининг мақбаралари жойлашган. Халқ орасида Султон Саодат мақбараси номи билан машҳур бўлган мақбаралар 12 асрда, қолганлари, асосан, 15-17 асрларда ёнма-ён қурилиб, узун ҳовлининг икки томонини эгаллаган. Термиз саййидлари сулоласининг турли даврларда қурилган мақбаралари ва маросим хоналаридан ташкил топган ва ўзига хос бир бутун холга келтирилган меъморий мажмуадир.

X-XV-XVII асрлар яъни карийб 700 йил давомида шаклланган мажмуанинг энг кадимий

қисми унинг Жанубий-Ғарбидаги XI асрда қурилган баланд гумбази 9х9 м бўлиб, икковини бирлаштирувчи гумбаз остидаги кенг майдон масжид хизматини бажарган. Унда шакли турли-туман уйма ғиштлар жуда моҳирона ва турли услубда терилган.

Тарихий бино ва иншоатлар Ўзбекистон кўчмас мулк бозорини ката қисмини эгаллайди, улар 7000 га яқин, шундан: 545 та-архитектура объектлари,575 та - тарихий,1457 та - маданий, 5500 та - археологик. Ундан ташқари яна 1000 та қўрилмани архитектура мерос сифатида сақлаб қолиш керак. Тарихий объектларни энг қимматли кўчмас мулк категорияси сифатида ҳисоблаш мумкин. Бир томонлама –ўзоқ вақт олдин қўрилганлиги, иккинчи томонлама тарихий-маданий изланишларни олиб борилиши унинг қийматини кўтаради. Буларни эътиборга олган холатда, баҳолаш ҳам маданий, ҳам моддий булиши лозим, шунда аниқ қиймат белгиланади. Ундан кейин сўғуртани ташқиллаштириш ёки зарар келтирганлиги учун жарима пулини белгилаш мумкин бўлади. Демак, шакллантирилган баҳо тарихий объектни ҳимоя воситаси деб ҳисобланади.

Харажат ёндашуви билан тарихий объектларни баҳолаш алгоритмини асосий босқичлари:

1.Фойдаланаётган ер участкасини жорий йилдаги бозор қийматини аниқлаш;

2. Тикланиш қийматини аниқлаш, катталаштирилган улчамлар 1м^2, 1м^3 асосида ёки тулик смета орқали.

3. Умумий йимирилиш қийматини аниқлаш (жисмоний, функционал, ташқи);

4. Объектни тикланиш қийматини, умумий йимирилишни эътиборга олиб хисоблаш, харажат ёндашувининг базаси сифатида;

5. Объектни тикланиш қийматини интеграл қимматлашув хусусиятларига купайтириш.

1-жадвал.Тарихий объектларни қимматлашув коэффициенти

Объектни баҳоловчи кўрсатгичлари	Максимал кўрсатгич	Минимал кўрсатгич
Объект тури	5	3
Қурилиш вақти	20	15
Мураккаблик категорияси	10	2
Ноёблиги	20	5
Тарихий бино ёки уни қисмларини моддийлиги	30	25
Тикланиш	10	1,5
Шаҳарсозлик зарурлиги	5	1
Жами:	100	52,5

Шундай қилиб, харажатли ёндашувни Султон Саодат мажмуаси баҳолашда куллаймиз. Харажат ёндашуви билан тарихий объектларни баҳолаш алгоритмини қўллаймиз ва куйидаги формулани ишлатамиз:

$$С_з=(С_в-И_о)\,x\sum К_i$$

Бунда: $С_з$- объектни бозор қиймати; $С_в$- объектни тикланиш қиймати; $К_i$- объектни қимматлашув коэффициенти; $И_о$-умумий йимирилиш.

Емирилиш - фойдалилиги камайгани туфайли кўчмас мулкни қиймати йуқолганлиги. Шунинг оқибатида, емирилиш иқтисодий категория деб юритилади.

Бунда:

1. Объект тури –максимал балл 5, архитектура ва шаҳарсозлик объектларга -3,монументал ва декоратив объектларга-4, тарихий ва маданий объектларга -4.

2. Қурилиш вақти- максимал 20 балл- IX асргача қурилган объектлар учун,IX-X III асргача - 18, X IV-XV асргача -17, XV I-XVIIасргача- 14, XVIII-XIXасргача-8, XIXаср боши -6, XX аср ўртаси ва охири-4.

3. Мураккаблик категорияси- максимал - 10 IV гуруҳ мураккаблик категорияси учун, IIIга-8, II-6, I-2.

4. Ноёблиги - максимал-20балл объект ягона бўлган ҳолатда, кам учрайдиган объектлар учун-10, такрорланадиган объектлар учун-5.

5. Тарихий бино ёки уни қисмларини моддийлиги- максимал 30 балл-объект ўзгармас ҳолатида бўлганда, сақланиши 50%-24,30%-18,30% кам бўлганда-7.

6. Тикланиш- максимал 10, сақланган расмларга асосан тикланиш-5,аналог асосида айрим қисмларни тикланиши-2, кайта монтаж орқали тиклаш-1,5.

7. Шаҳарсозлик аҳамияти - максимал-5 балл шаҳарни шакллантурувчи аҳамиятига эга бўлса, маҳалий доминанта бўлса-2,5, саф курилишни шакллантирса-1.

Демак, $К_i$= 52,5

Барча кўрсатгичларни формулага куйиб объект қийматини аниқлаймиз:

Султон Саодат мажмуасини янгидан курилишига тузилган сметасига асосан (№428- С-18.02.89й.) унинг смета қиймати -175,15 минг сўмга тенг.

2-жадвал. Султон Саодат мажмуасини тикланиш қийматини аниқлаш

Кўрсаткичлар	Миқдори
Султон Саодат мажмуасини тикланиш курилишига тўзилган сметасига асосан (№426 С-18.02.87й.)унинг смета қиймати, минг сўм	175,15
Ҳудудий коэффициент	1,0
Сейсмик коэффициент	1,0
Бинони баландлилига тўзатиш	1,0
НБИТКАЙКТга асосан аниқланган тикланиш қийматлари 1991 йил нархларини 1998 йилга келтириш индекси	61,8
Тикланиш қийматининг 01.01.2001йилга келтириш индекси	8,57
01.01 2002 й.-1.01.2021 й.	5309,42
Султон Саодат мажмуасини тикланиш қиймати: 175,15 х 61,8х8,57х 5309,42= 492523004,4	

Формулага маълумотларни қўйиб чиқамиз:

492523004,4х52,5=2 585 7457 735,8минг сўм

Тарихий бино ва иншоатлар қийматини аниқлаш учун унинг қолдиқ қийматига тадбиркорлик фаолияти даромади қўшилади. Тадбиркорлик даромади одатда 10-30%ни ташқил этади. Тадбиркорлик даромадини 20%деб қабул қиламиз.

3-жадвал

Султон Саодат мажмуасини қийматини аниқлаш

Литер	Бинонинг тури	Тикланиш қиймати, сўм	Тадбиркорлик даромади коэффициенти	Қиймат, сўм
А	мажмуа	2 585 7457 735	1,20	3 1028 949 283

Султон Саодат мажмуасини харажат ёндашувида аниқланган қиймати 3 1028 949 283 сўмни ташкил қилди.

Султон Саодат мажмуасини -3500 м^2, жамоат бино жойлашган ер майдони учун солик миқдори-1500 сўм , 1м^2. Ер майдонидан олинадиган даромадни ер солигидан аниқлаштирамиз:

3500х1500=5250000 сўм

Капитализация ставкаси рефинансли ставкасига асосан олинди ва 9% ташкил этди.

5250000\0.09=58333333 сўм

Шундай қилиб ,ер майдонидан келиб тушадиган даромад- 58333333 сўмни ташкил қилади

4-жадвал

Султон Саодат мажмуасини ер майдони даромадини аниқлаш

Бинонинг тури	Майдони, м^2	1м^2 ,ер солиги,сўм	Жами ер солиги, сўм	Объект қиймати, сўм	Жами, сўм
мажмуа	3500	1500	58333333	3 1028 949 283	31087282616

Жами Султон Саодат мажмуасини харажат ёндашувида аниқланган қиймати 31 087 282 616 сўмни ташкил этди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси «Баҳолаш фаолияти тўгрисида»ги Қонуни 19.08.1999 й. №811-1.

2. Мирзиёев Ш.М 2017-2021 йиларда Харакатлар стратегияси.Т.: Ўзбекистон, 2017.

3. Ганиева Ф.С Экономическая оценка памятников истории и культуры Узбекистана.– Т.: Voris, 2008. -70с.

УДК 629.08

AVTOTRANSPORT KORXONALARINI TEXNOLOGIK JIHOZLASHGA TA'SIR QILUVCHI ASOSIY FAKTORLARNI ANIQLASHDA EKSPERT BAHOLASH USULIDAN FOYDALANISH

Islomov Sherzod Eshquvvatovich, katta o'qituvchi; **Asqarov Ixtiyor Baxtiyorovich**, PhD, dotsent
Jizzax Politexnika instituti, (O'zbekiston)

